

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

*Qo'lyozma huquqida*  
*UDK: 9 (497.1)*

**TUVALOV TEMUR**

# **XX asrda mustamlakachilik tizimining evolyutsiyasi va qulashi**

5A120302 – Tarix (yo'nalishlar va mamlakatlar bo'yicha) mutaxassisligi  
Magistr akademik darajasini olish uchun

## **MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI**

Ish ko'rildi va himoyaga  
ruxsat berildi: "Jahon tarixi"  
kafedrasi mudiri  
\_\_\_\_\_ dots. M.M.Hoshimova  
“\_\_\_” \_\_\_\_ 2016 y.

Ilmiy rahbar: dots. Rahmatullayev M.R.

SAMARQAND 2016

**Mavzu: XX asrda jahon mustamlakachilik tizimining evolyutsiyasi va  
yemirilishi.**

**Mundarija:**

Kirish.....	2-7
<b>I. Bob. Mustamlakachilik tizimi ikki jahon urushi oralig‘ida.</b>	
1.1. Millatlar Ligasi va mustamlaka masalalari.....	8-19
1.2. 20-30-yillarda milliy-ozodlik kurashlari: dastlabki yutuqlar va qiyinchiliklar.....	20-36
<b>II. Bob. Ikkinchi jaxon urushidan keyiningi yillarda mustamlakalarda mustaqillik uchun kurashning avj olishi.</b>	
2.1. Xalqlarning milliy-ozodlik kurashi masalalari Birlashgan Millatlar Tashkiloti faoliyatida.....	37-45
2.2. Mustamlaka tizimining barbod bo‘lishi.....	46-59
<b>III. Bob. Mustamlakachilik tizimining yemirilishi va neokolonalizm.</b>	
3.1. Mustamlaka imperiyalarining mustaqil davlatlar Hamdo’stligi sifatida qayta shakllanishi.....	60-71
3.2. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar munosabatlari.....	72-85
Xulosa.....	86-88

**KIRISH.**

**Tadqiqot mavzusining dolzarbliji.** Vatanimiz istiqlolga erishganidan so‘nggina tarixni haqqoniy yoritish va shu asosda milliy o‘zlikni anglash zaruriyati yuzaga keldi. Tarixga yangicha yondashish- tarixni chuqur, xolisona o’rganish, tadqiqot natijalarini davrimizning dolzarb muammolari bilan bog’lab rivojlanadirish, kishilarning yangi dunyoqarashini shakllantirishdir. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov “O’zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi” - degan nazariy qoidani ilgari surdi<sup>1</sup>.

Mustaqillik tufayli demokratiya yo’lidan rivojlanayotgan yurtimizda tarixiy manbalarga tayangan holda, tarixiy voqyelikni bo'yab ko'rsatmasdan, o'z ko'rinishida yoritish, uni xolis tadqiq etishga sharoit yaratildi. Shu munosabat bilan yurtimizda tarix faniga alohida e'tibor qaratilib, nafaqat Vatan tarixi, shuningdek Jahon tarixini o’rganish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, jahon tarixida ro'y bergen va ro'y berayotgan siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy o'zgarishlar, globallashuv sharoitida O’zbekistonga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Zero, O’zbekiston tarixi- Jahon tarixining ajralmas qismidir.

Ushbu dissertatsiyada XX asrda mustamlakachilik tizimining rivojlanish bosqichlari, yemirilish sabablari va undan keyingi neokoloniyal munosabatlar o’rganib chiqiladi. Mustamlakachilikning tarixiy evolyutsiyasi XX asrga kelib oxirgi, o'z mavjudligining beshinchi yuz yilligiga kirdi. Mustamlakachilining roli, uning darjasи, Sharq xalqlarining tarixiy taqdiriga ta'siri-tarixchi va siyosatshunoslar uchun chuqur bahsli mavzu hisoblanadi. Tarixiy adabiyotlarda mustamlakachilikning ikki tomonlama vazifasi -vayrongarchilik va bunyodkorlik, progressiv va regressiv omillar e'tirof etiladi. Mustamlakachilik doimo zo'ravonlik, xalqlarni eksplutatsiya qilish, qul savdosi, tabiiy boylik va resurslarni talon-taroj qilishga harakat qilgan. XX asrda mustamlakchilik tizimi bir-biridan keskin farq qiladigan bir necha rivojlanish boshqichlarini o'z ichiga oladi. Davr, sharoit taqozasi bilan mustamlakachilik tizimi ham o'zgarib bordi. Ikkinci jahon urushidan keyin mustamlaka tartiblari yemirilishi bilan bir qatorda, neokoloniyal tizim shakllanib bordi. Yevropa davlatlari o'zlarining iqtisodiy va texnikaviy

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. - Т., Шарқ. 1998. 5 б.

ustunliklaridan foydalanib, eski mustamlakalari ustidan nazorat o'rnatishtiga urinishi, yangi ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda. Ayni paytda, tadqiqot mavzusining dolzarbliji ko'p ming yillik tariximizning yangi bosqichi hisoblangan mustaqillik davrida o'zimizning zamon va makondagi o'rnimizni aniqlab olishimizga xizmat qiladigan o'tmishimizni anglash, xolis baholash hamda undan yaqin va uzoq istiqbolimiz uchun hayoti-amaliy xulosalar chiqarishning zarurati bilan ham belgilanadi.

“Ayniqsa, bugungi kunda, xaqaro maydonda turli siyosiy kuchlar o'zining milliy va strategik maqsadlariga erishish uchun erkinlik va demokratiyani olg'a siljitish niqobi ostida amalga oshirayotgan, uzoqni ko'zlagan siyosatining asl mohiyati va maqsadlarini o'z vaqtida sezish, anglash katta ahamiyat kasb etadi ”<sup>2</sup>. Binobarin, Galoballashgan dunyoda geosiyosiy jarayonlarni tub mohiyatini anglab yetishda, avvalambor, uning tarixiy ildizlarini chuqur o'rghanish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Magistrlik dissertatsiyasining maqsadi va vazifalari.** Tadqiqotning maqsadi, XX asrda mustamlakachilik tizimi rivojlanishining o'ziga xos hususiyatlari, yemirilish sabablarini, neokaloniyal munosabatlar shakllanishi va unda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar munosabatlarini o'rghanish, tahlil qilish va ochib berish. Bu maqsaadni amalga oshirishda quidagi vazifalarga e'tibor qaratish talab etiladi.

- Birinchi jahon urushidan keyin tuzilgan mandat tizimining mustamlaka xalqlarning taqdiridagi o'rni, mustamlakchi davlatlarning ko'zlagan maqsadlari va uning atrofida kelib chiqqan keskinliklarning sabablarini tahlil qilish;
- 20-30-yillarda Osiyo va Afrika xalqlari milliy-ozodlik harakatlari, siyosiy kurashlari, natijalari, mustamlakchilik tizimini saqlanib qolishi, eski metropoliyalar, AQSh, yosh Sovet davlati va yangi fashistik davlatlarning geopolitik maqsadlari va ziddiyatlarini ochib berish;

---

<sup>2</sup> Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch”. T., 2008. 116-117-bet.

- Mustamlakchilik tizimini yemirilishida BMTning tutgan o'rni, Vasiylikdagi hududlarning keyingi taqdirini ochib berish;
- Mustamlakchilik tizimini parchalagan omillar, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar munosabatlar tahlil qilish.

Tadqiqotning **metodologik asosini** tahlil, tarixiy yondashuv, tanqidiy o'rganish tashkil qiladi.

**Tadqiqot ishining manbashunosligi va tarixshunosligi. Muammoning ishlab chiqilish darajasi.** XX asrda jahon mustamlakachilik tizimining evolyutsiyasi va yemirilishi mavzusi bilan bog'liq muammolar tarixshunoslikda o'rganilgan bo'lsa-da, mavzuni o'rganilmagan qirralari juda ko'p va hozirgi siyosiy jarayonlarda mintaqaviy, etnik, diniy mojarolarning kuchayishi yana bir bor shu mavzuni o'rganish, uni chuqur tahlil qilish vazifasini qo'yemoqda. Bu tarixshunoslikda turlicha qarashlar, munosabat va munozalarni o'z ichiga olib, hamon bahsli mavzulardan biri bo'lib qolmoqda.

Birinchi jahon urushidan keyin Mandat tizimini tashkil topishi, mustamlakalarni qayta bo'lib olishi va bu masalalarga birinchi xalqaro tashkilot Millatlar Ligasining munosabati, tutgan o'rni yuzasidan 1989-yilda Moskvada chiqqan A.I. Utkinning "Vudro Vilson diplomatiyasi"(Уткин А.И. Дипломатия Вудро Вильсона. М., 1989.)<sup>3</sup> asarida AQShning roli va maqsadlarini ochib berishga harakat qiladi. I.A. Xodnev "Millatlar Ligasi va mustamlakachilik masalalari" mavzusidagi dissertatsiyasi aynan mustamlakachilik masalalariga bag'ishlangan<sup>4</sup>. A.V. Torkunovning Moskvada 2012-yilda nashrdan chiqqan 3-tomlik "Xalqaro munosabatlar tarixi" asarining ikkinchi qismida Millatlar Ligasining tashkil topishi va mustamlakachilik tarixida tutgan o'rni alohida yoritilgan. Unda manfaatlari hisobga olinmaganli bahona qilibh AQSh Kongressi shartnomalarni ratifikatsiya qilmaganligi va bu masala yuzsidan V. Vilson "AQSH dunyoni boshqarish imkoniyatini boy bermoqda"<sup>5</sup> – deb afsus bilan bilan takidlab o'gan.

---

<sup>3</sup> Уткин А.И. Дипломатия Вудро Вильсона. М., 1989

<sup>4</sup> Ходнев А.С. Лига наций и колониальный вопрос 1919-1939. Диссертация: Афтореферат. М., 1996. 23-24-стр.

<sup>5</sup> История международных отношений. Под ред. А.В.Торкунова.Том-II. М., 2012.

Undan tashqari 20-30-yillarda milliy-ozodlik kurashlari taixini yoritishda M.B. Ponomarevning “Yevropa va AQShning yangi tarixi”<sup>6</sup>, R. Farmanovning “Xalqaro munosabatlar tarixi”, G.F. Hidoyatovning “XX asr diplomatiyasi”, G. Kessinjerning “Diplomatoya”<sup>7</sup> va har bir metropoliya va uning mustamlakasi tarixi ko’rib chiqildi. Bu siyosiy jarayonlarga har ikki tamonlama o’rganish, uni chuqur tahlil qilish uchun mustamlakalar ham metropoliyalarning tarixi, har ikki tamon maqsadlarini o’rganib chiqish talab etildi<sup>8</sup>. Urushdan keyin mustamlakchilikni yemirilishi va yangi koloniyal munosabatlarni shakllanishi bahsli mavzu bo’lib qolmoqda. Uning manshunoslikda hujjatlatlar tahlili A.D. Bagoturovning “Xalqaro munosamatlari tarixi” da atroficha yoritilgan<sup>9</sup>.

**Tadqiqotning davriy va xronologik chegaralari.** Tadqiqotning davriy va xronologik chegarasi XX asrning 20-30-yillari mastamlakchilik masalalari va XX asrning ikkinchi yarmidagi mastamlakchilik tizimining yemirilishi, tarixiy o’rni va neokaloniyal munosabatlar shakllanishi aks ettirilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: birinchidan, XX asrda mustamlakachilik masalalari ko’pgina Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixiga oid ilmiy asarlarida to’xtalib o’tilgan bo’lsa-da, aynan mustamlakchilik tizimining o’ziga bag’ishlangan va uni atroficha yoritib, asoslab bergen ilmiy ishlar unchalik ko’p emas; ikkinchidan, bu masalaga turli davr va davlatlardagi ilmiy adabiyotlarda turlicha yondashilganligini kuzatish mumkin. Ayrim mamlakatlarda mustamlakachilik siyosatini oqlash, niqoblash holatlari uchraydi. Mustamlakachilining roli, uning darajasi, Sharq xalqlarining tarixiy taqdiriga ta’siri-tarixchi va siyosatshunoslar uchun chuqur bahsli mavzu hisoblanadi; uchunchidan, hozirgi zamondagi mintaqaviy mojarolar, milliy-etnik ziddiyatlarning ko’philagini ildizi eski mustamlakchilik siyosatiga borib taqaladi.

<sup>6</sup> Пономарев М.В. История стран Европы и Америки в новейшее время. М., 2010.

<sup>7</sup> Киссинджер Г. Дипломатия. М., 1997.

<sup>8</sup> Зимулина Л.А. Эволюция национальной государственности британских доминионов. Британская империя в XX веке; под ред. А.М. Пегушева, Е.Ю. Сергеева. М., 2010.

<sup>9</sup> Системная история международных отношений. Под. ред. А.Д.Богатуров., том-4(1945-2003) Документы. М., 2003.

Chunki, dunyoning mustamlaka davrdagi mustamlakchi davlatlar o'rnatilgan chegaralar va mustamlaka xalqlarning sun'iy tarzda bo'lib yuborilishi asoratilari hozirgi kunda chuqur ziddiyatlarni keltirib chiqarayotgani hech kimga sir emas.

**Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslarini** respublikamiz prezidenti I.A.Karimov assarlarida ilgari surilgan nazariy konseptual qoidalar, tarixiy voqealarni obyektiv tahlil qilish, tarixiylik, umuminsoniy va milliy qadriyatlarning birligi tamoyili tashkil etadi. Tadqiqot ishi xolislik, qiyosiy-tahlil va konseptual yondashuv usullaridan foydalanilgan holda amalga oshirildi.

**Tadqiqotning ilmiy-nazariy va amaliy ahmiyati.** Ushbu dissertatsiya ishi mustamlakachilik tizimining Sharq xalqlari tarixida o'rni, ahmiyati, yuz bergen milliy-ozodlik kurashlari, mustamlakachi davlatlarning bir-biriga to'g'ri kelmaydigan maqsadlari, ziddiyatlari, yemirilishi va uni keyingi xaqaro munosabatlarga ta'siri, natijalari aks ettirilgan. Mazkur ilmiy tadqiqot natijalaridan mustamlakachilik masalalari, milliy va etnik siyosat, milliy munosabatlar haqida ilmiy maqolalar, o'quv qo'llanma, dasturlar, maxsus kurslar tayyorlashda, Oliy va o'rta maxsus ta'lim maskanlarida talabalari, magistrantlarga ma'ruzalar o'qishda foydalanish mumkin.

#### **Ishning tuzilishi va qisqacha mazmuni:**

Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 91-sahifani tashkil etadi.

## **I. Bob. Mustamlakachilik tizimi ikki jahon urushi oralig‘ida.**

### **1.1-§. Millatlar Ligasi va mustamlaka masalalari.**

Yevropa davlatlarining zabit etish va koloniyal siyosati XV asr oxirlari-XVI asr boshlarida-Buyuk geografik kashfiyotlar davridan boshlandi. Yevropada ishlab chiqarish va monopolistik kapitalizm, moliya oligarxiyalari rivojlanishi bilan yangi-yangi mustamlaka va bozorlarga talab oshib bordi. Bu esa mustamlakalarni toboro ko‘proq bosib olishga undardi. Chunki mustamlakalar metropoliyaga ishlab chiqarilgan sanoat maxsulotlari uchun bozor, taboro rivojlanib borayotgan sanoat korxonalariga xom ashyo bazasi, aholisi esa arzon va tekin ishchi kuchi bo‘lib xizmat qilardi. Har bir mustamlakachi davlat juda katta daromad manbayi bo‘lgan mustamlakalarini boshqa buyuk dalatlar uchun yopib qo‘yar yoki katta bojxona to‘silalarini joriy etardi. Masalan, XIX asrning ikkinchi yarmidan Buyuk Britaniya jaxon ustaxonasi maqomini yo‘qotdi. Uni sanoat ishlab chiqarish va iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha AQSh va Germaniya quvib o‘tib, dunyoning har bir burchagida siqib chiqara boshladи, hatto Britaniyani o‘zida ham raqobat kuchaydi. Mana shunday sharoitda o‘zining sanoat maxsulatlari uchun bozor va hom-ashyo bazasi sifatida mustamlakalarining ahamiyati oshib bordi. Shuning uchun ham o‘sha davr tarixchilari Buyuk Britaniya uchun mustamlakalarning ahamiyati haqida obrazli qilib bunday deb yozgan edilar: „Hindiston Buyuk Britaniyani boquvchi enaga. Misr esa Britaniya imperiyasi boshiga kiydirilgan tojdir“. Har qanday qarshilik harakatlari ayovsiz bostirilardi.

XIX asr oxiri-XX asr boshlariga kelib buyuk davlatlar o‘rtasida dunyoni hududiy jihatdan bo‘lib olish nihoyasiga yetdi. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi ko‘plab davlatlar va xalqlari mustamlakaga aylantirildi<sup>10</sup>. Angliya, Fransiya va Rossiya katta hududlarga ega bo‘lgan yirik mustamlakachi davlatlarga aylangan bo‘lsa, Germaniya, Italiya va Yaponiya uncha katta bo‘lmagan hududlar bilan kifoyalishga majbur bo‘ldi. Germaniya mustamlakalarni egallash borasida kechga qoldi. Mustamlaka hududlarni bunday taqsimlanishi sanoat

---

<sup>10</sup> Новейшая история стран Азии и Африки. XX век. Под ред. А.М. Родригеса. часть-1. 1900-1945. М., 2001. 5-стр.

maxsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘ringa chiqib olgan Germaniya imperiyasini aslo qoniqtirmas edi. Chunki shiddat bilan rivojlanayotgan sanoati uchun katta-katta bozorlar va hom ashyo bazalari zarur edi. Dunyo mustamlakalari va bozorlari esa bo‘lib olingan edi<sup>11</sup>. Juhon bozori va mustamlakalari uchun kurash buyuk davlatlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni yanada chuqurlashirib yubordi. Endi kun tartibiga jahon mustamlakalari va bozorlarini qayta bo‘lish masalasi qo‘yildi<sup>12</sup>. Muommoni yechish vositasi kuch va qurol bo‘lib qoldi. Oqibatda bu ziddiyatlar birinchi jahon urushiga sabab bo‘ldi. Urushda Germaniya va uning ittifoqchilari mag‘lubiyatga uchradi. Bu urushga jaxon bozori va mustamlakalari uchun ikki blok (“Antanta”va “Uchlar ittifoqi”) o‘rtasidagi kurash asosiy sabab bo‘lgan edi. Birinchi jahon urushidan keyin tuzilgan shartnomalar urushayotgan davlatlarning urushdagi asl maqsadlarini ochib berdi<sup>13</sup>. Zero, Versal (1919-1920-yillar) shartnomalarida asosiy masala mustamlakalar muommosi edi.

Birinchi jaxon urushidan keyin xalqaro tinchlik koferensiyasi 1919-yil 18-yanvarida Parijda ish boshladi. Unda Yevropa, Osiyo va Amerikaning 27 ta davlati bir yil davomida tinchlik shartnomalari ustida ish olib bordgan bo‘lsalar-da, amalda barcha asosiy masalalar “Katta uchlik” deb atalgan (AQSH, Buyuk Britaniya va Fransiya) davlat rahbarlari tomonidan hal etildi.

Tinchlik konferensiyasida Millatlar Ittifoqi (Millatlar Ligasi ham deyishadi) tuzuldi va u dunyo davlatlarining birinchi xalqaro tashkiloti edi. Tashkilotning asosiy vazifasi-tinchlikni va xalqaro xavfsizlikni ta‘minlashdan iborat bo‘lishi kerak edi. Bunday tashkilotni tuzish tashabbusi urushdan oldin ham ilgari surulgan edi. Hatto urush yillarida Angliya, Fransiya va AQSh da alohida loyihalar ham ishlab chiqqilgan edi. AQSH Prezidenti va konferensiyadagi vakili V. Vilson konferinsiyaga o‘z loyihasi bilan keldi va bu uning 14 moddali tinchlik dasturida o‘z ifodasini topgan edi. Antantaning yetakchi davlatlari (Buyuk

<sup>11</sup> История международных отношений. Под ред. А.В.Торкунова. Том-І. М., 2012. 320-326-стр.

<sup>12</sup> Новейшая история стран Азии и Африки. XX век. Под ред. А.М. Родригеса. часть-1. 1900-1945. М., 2001. 7-8-стр.

<sup>13</sup> Киссинджер Г. Дипломатия. М., 1997. 181-182-стр.

Britaniya va Fransiya) bu loyihani qo‘llab-quvvatladi. Konferensiyada Millatlar Ligasi Nizomini tayyorlash maqsadida V. Vilson boshchiligidagi maxsus kamissiya tuzuldi. Bu Nizom negizida ingliz-amerika qo‘shma loyihasi yotardi. 1919-yilning 13-fevralda Millatlar Ligasi Nizomi tayyor bo‘ldi va 14-fevral kuni dunyoning 44 davlati tashkilotning Nizomini tasdiqladilar<sup>14</sup>. Nizom 26 moddadan iborat bo‘lib, unda Liga a‘zolarining vazifalari va majburiyatlar, tashkilotning ishslash tamoyillari, tuzilishi aks ettirilgan edi. Tashkilotning oliy organi Assambleya edi. Uning ishida barcha a‘zo davlatlar ishtirok etardi. Assambleyalar oralig‘ida Ittifoqning ishiga Ittifoq Kengashi rahbarlik qilardi. Unga katta vakolatlar berishgan edi. Besh davlat (AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya va Yaponiya) Kengashning doimiy a‘zolari edi. Millatlar Ligasining doimiy qarorgohi deb Jeniva (Shvetsariya) belgilandi (Nizomning 7-moddasi)<sup>15</sup>.

Nizom aggressor davlatga nisbatan birgalikda harbiy va iqtisodiy sanksiyalar (choralar) qo‘llashni ham ko‘zda tutardi. Biroq Nizomda qanday davlat aggressor davlat deyiladi, degan savolga aniq javob yo‘q. Bu esa har bir davlatga xalqaro nizomlar xarakterini o‘zicha talqin etish imkonini beradi. Millatlar Ittifoqi o‘zi faoliyat ko‘rsatgan 1946-yilgacha amalda biror marta ham jazo choralarini qo‘llay olmadi<sup>16</sup>. Bunga Ittifoqning amalda Buyuk Britaniya va Fransiya siyosatining quruliga aylanib qolganligi sabab bo‘ldi. AQSH kongressi Versal shartnomasini tasdiqlamaganligi uchun Ittifoq a‘zoligidan chiqqan edi. Nizomda uning a‘zolari zimmasiga “barcha a‘zolarning hududiy yaxlitligini hurmat qilish va asrash” vazifasi ham yuklatilgan edi. Biroq amaldagi Ittifoqning hech bir a‘zosi bu vazifani bajarishga astoydil intilgan emas<sup>17</sup>.

Millatlar Ittifoqining Nizomida “Mandat tizimi” deb atalgan xalqaro huquqning yangi bir normasi belgilab qo‘yildi. Unga ko‘ra, Millatlar Ittifoqi mustamlaka bo‘lib kelgan yoki bo‘lib qolayotgan hududni boshqarish huquqini u

---

<sup>14</sup>Пономарев М.В. История стран Европы и Америки в новейшее время. М., 2010. 254-257-стр.

<sup>15</sup> Шацилло В.К. Президент В.Вильсон: от посредничества к войне. Новая и новейшая история. 1993. N-6.

<sup>16</sup> Уткин А.И. Дипломатия Вудро Вильсона. М., 1989., 23-29-стр.

<sup>17</sup> Илюхина Р.М. Лига наций 1919-1934. - М: наука, 1982. 143-146-стр.

yoki bu davlatga topshirishi mumkin edi. Bunday huquqni olgan davlat o'sha mustamlakani mustaqillikka tayyorlashi lozim edi. Aslida bu ayyorona tizim mustamlakalarni bo'lib olish siyosatini niqoblovchi mash'um vosita bo'lib xizmat qildi. Jumladan, Birinchi jahon urushi tugashi bilan mag'lub davlatlar mustamlakalari g'olib davlatlar o'rtasida qayta taqsimlandi<sup>18</sup>. 1919-yil Parij tinchlik konferensiyasida ishlab chiqilgan Millatlar Ligasining qarorlariga ko'ra sobiq Germaniya va Usmonli turk imperiyasiga qarashli mustamlakalar boshqaruvi Antanta va uning ittifoqchilari qo'liga o'tdi. Bu jarayon huquqiy jixatdan Millatlar Ligasining Mandat tizimi orqali qonuniylashtirildi. Amalda mustamlakalar Millatlar Ligasi (1919-yil) tashkil topmasidan avval, birinchi jaxon urushi davrida bo'lib olingan bo'lib, Mandat tizimi uni chegaralarini tasdiqladi halos. Millatlar Ligasi ustavining 22-moddasida mandat (lot. mandatum-topshiriq, vakolat) tizimi asoslab berilgan<sup>19</sup>.

22-modda:

1. Hozirgi zamonning murakkab sharoitida o'zini-o'zi boshqarish imkonini bo'lmagan sobiq mustamlakalar xalqlari farovon hayot kechirish va har tamonlama taqraqqiy etishga haqlidirlar. Ushbu xalqlarga yordam berish sivilzatsiyaning muqaddas burchidir.
2. Ushbu burchni amalga oshirishda eng yaxshi prinsip-ilg'or davlatlarning "qoloq" xalqlar ustidan vasiylik o'rnatilishidir. Ilg'or davlatlar o'zlarining resurslari, tajribasi va jug'rofiy o'midan foydalib, mas'uliyatni sezgan holda o'z vasiyligini mandatariy sifatida Millatlar Ligasi nomidan amalga oshiradi.
4. Usmonli imperiyasining mulki bo'lgan hududlarning rivojlanish darajasi hisobga olib, bu joylarda yashovchi xalqlarning mustaqilligini vaqtincha tan olinsa maqsadga muofiq bo'ladi. Mandatariyning maslahatlari va yordami toki bu yerda yashovchi xalqlar o'zini-o'zi boshqarish qobiliyatiga yetgunga qadar berilishi lozim.

---

<sup>18</sup> Киссинджер Г. Дипломатия. М., 1997. 193-203-стр.

<sup>19</sup> История международных отношений. Под ред. А.В.Торкунова. Том-II. М., 2012. 16-стр.

5. Markaziy va Sharqiy Afrikada yashovchi xalqlarning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda, manatariy qul, qurol-yaroq, alkagol savdosiga taqiqlashi, vijdon va din erkinligini hech qanday cheklovlarsiz kafolatlashi, jamoat tatiblari va odob qoidalarini ta‘minlashi zarur. Makaziy va Sharqiy Afrika hududida joylashgan mandatli hududlarda harbiy inshoatlar, harbiy dengiz bazalari qurulishi va mahalliy aholini harbiy ta‘limga jalb qilish taqiqlanadi.

6. Janubiy-g‘arbiy Afrika va Tinch okeanining ayrim orollarida yashovchi xalqlarning kam sonli ekanligi va ularning sivilizatsiya markazlaridan uzoqda joylashganligini hisobga olgan holda, ushbu hududlar mandatariyning tarkibiy qismi sifatida, aynan mandatariy qonunlari asosida boshqarilishi maqsadga muofiq. Mandatariy davlat mahalliy xalq manfaatlarini ko‘zlab ish yuritishi shart.

7. Barcha holatlarda mandatariy davlat Kengashga unga topshirilgan hudud yuzasidan yillik hisobot topshirishga majbur.

9. Doimiy koissiya mandatariylarning yillik hisobotini qabul qilib, ko‘rib chiqadi va Kengash mandatariy bajarishiga doir turli masalalarga oid xulosalarni beradi<sup>20</sup>.

1919-yil Parij tinchlik konferensiyasi qarorlariga muvofiq Millatlar Ittifoqi mandatli nazoratga berilgan hududlari uch kategoriya bo‘lindi (A, B, C). Uning muallifi Janubiy Afrika Ittifoqi Bosh vaziri Yan Smets edi. Kategoriyalarga bo‘linishi mandat hududining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy rivojlanish darajasiga qarab belgilandi va turlicha boshqaruv tartiblari joriy etildi<sup>21</sup>.

“A”-kategoriyaga faqat Usmonli Turk imperiyasiga tegishli Yaqin sharq hududlari kiritilib, ularni boshqarish huquqi Buyuk Britaniya va Fransiyaga berildi. Parij tinchlik koferensiyasida ularni mustaqillikka so‘zsiz haqli ekanligi tan olindi. Lekin bu hududlarni o‘zini-o‘zi boshqarishga o‘tish davri muddatini madatariy ya‘ni, uni mustaqillikka tayyorlovchi vasiy davlat belgilaydi<sup>22</sup>. Go‘yo arab

<sup>20</sup> Ключников Ю.В. (ред.) Версальский мирный договор. М. , 1925, 7-15-стр.

<sup>21</sup> История международных отношений. Под ред. А.В.Торкунова Том-II. М., 2012. 16-17-стр.

<sup>22</sup> Ходнев А.С. Лига наций и колониальный вопрос 1919-1939. Диссиртатсия: Афтореферат. М., 1996. 23-24-стр.

davlatlari mustaqillikka haqli ammo, tayyor emas, ularni mustaqillikka tayyorlashni mandat boshqaruvini olgan davlatlar zimmasiga yuklatiladi<sup>23</sup>.

Mandatli nazoratga olgan davlat o‘tish davri tugagunga qadar mandat hududi tub aholisiga din, til, va madaniy erkinliklarni yaratib berishi, siyosiy sohada aftonomiya berilishi, AQShning qattiq talabi bilan iqtisodiy soxada “Ochiq eshiklar” siyosatini o‘tkazishi lozim edi. Chunki, AQShning iqtisodiy jixatdan qudratli sanoati uchun bu juda qo‘l kelardi.

Mandatli hududlrning bu kategoriyasi Sevr shartnomasi (1920-yil, avgust) va San-Remo (Italiya) konferensiyasi (19-26. 04. 1920) qarorlariga ko‘ra quidagicha tasniflandi.

1). Mesopatamiya (Iroq), Transiordaniya va Falastin-Buyuk Britaniya mandat boshqaruviga (Balfur deklaratsiyasi (9. 09. 1922 ) qaroriga muvofiq Transiordaniya va Falastin boshqaruvi Britaniyaning Quddusdagi Oliy komessari qo‘liga o‘tdi),

2). Suriya va Livan– Fransiya mandat boshqaruviga berildi.

Yaqin sharq tarixi bo‘yicha yirik mutaxasisi prof. Dj. S. Grevits:- “Usmonli turk imperiyasining qulashi bilan Sharq masalasi “yechildi”. Siyosiy huquqlari o‘z qo‘lida bo‘lmasada, to‘g‘ridan-to‘g‘ri anneksiya qilinmadni. Mandat tizimi esa vaqtinchalik bitim harakteriga ega edi”-deb yozgan. Lekin G‘arbiy mustamlakachilikning turli ko‘rinishlari milliy ozodlik harakatlarini kuchaytirib yubordi. Chunki arab davlatlari Parij tinchlik koferensiyasi ularga mustaqillik berishiga katta umidalar kutgan edi.

Germaniyaning Afrika qit‘asidagi mandat tizimiga o‘tgan mustamlakalari hududi 2,5 mln kv. km. va aholisi 13 mln atrofida edi<sup>24</sup>. Mandat tizimining “B”- kategoriyasiga Germaniyaning Sharqiy va Markaziy Afrikadagi sobiq mustamlakalari (Janubi-g‘arbiy Afrikadan tashqari) kiritilgan bo‘lib, ularga mustaqilliklari uchun kafolat berilmadi. Lekin shunday bo‘lsada kategoriyaga kiritilgan hududlarni boshqarish mandatiga ega bo‘lgan davlatlar oldiga qator

<sup>23</sup> Киссинджер Г. Дипломатия. М., 1997. 211-212-стр.

<sup>24</sup> Новейшая история стран Азии и Африки. XX век. Под ред. А.М. Родригеса. часть-1. 1900-1945. М., 2001. 343-стр.

shartlar qo‘yilgan: jumladan, qul, quroq, spirtli ichimlik savdosiga yo‘l qo‘ymaslik; vijdon va din erkinligini kafolatlash, jamiyat va axloqiy tartibni saqlash. Bu tartiblarni bajarilishiga mandatariy davlat mas‘ul bo‘lib har yil Millatlar Ligasiga tapshiriladigan hisobotlariga kiritadi. Undan tashqari Millatlar Ligasining Maxsus komissiyasi tuzulgan bo‘lib, u mandat hududlardagi nazorat, mandatariy davlat Nizomdagi ko‘rsatilgan qoidalarni bajarishini tekshiruvchi tashkilot bo‘lishi kerak edi. 1919-yil 28-iyundagi Versal sharnomasiga ko‘ra Germaniyaning Afrikadagi mustamlakalari quidagicha taqsimlandi.

- 1). Tanganika, g‘arbiy Kamerun, Togoning bir qismi –Buyuk Britaniya;
- 2). Sharqiy Kamerun va sharqiy Togo –Fransiya;
- 3). Ruanda-Urundi esa Belgiya mandat boshqaruviga berildi.

“C”- kategoriyaga Germaniya imperiyasining janubiy-g‘arbiy Afrika va Tinch okeani hududida joylashgan sobiq koloniyalari kiritildi. “C”- kategoriyasiga eng qoloq hududlar kiritilgan. Ularni mandat berilgan davlat o‘z qonunlari asosida boshqarish huquqiga ega bo‘lgan. Ular amalda mandatariy davlatlarining mustamlakalariga aylandi va quidagicha taqsimlandi:

- 1). Janubiy-g‘arbiy Afrika–Janubiy Afrika ittifoqi;
- 2). Nauri va Germaniya Yangi Gveniyasi–Avstraliya;
- 3). Germaniya Samoasi–Yangi Zellandiya;
- 4). Janubiy Tinch okeani orollari, Marshall, Marian va Karolina orollari Yaponiya mandati boshqaruviga berildi<sup>25</sup>.

1920-1922-yillarda mandat tizimi boshqaruvida ikki ishchi organ: Doimiy mandat komissiyasi va mandat Kotibiyat bo‘limi tuzildi. Bu organlarning vazifasi mandatariylar vasiylik hududini boshqarish to‘g‘risidagi maslahatlardan iborat hujjatlarni Millatlar Ligasi Assambleyasi va Kengashiga topshirishdan iborat. Bu organlarining tuzilishi va ularning vakolatlari mandatariylar tamonidan keng tanqid

<sup>25</sup> История международных отношений. Под ред. А.В.Торкунова.Том-II. М., 2012. 15-17-стр.

ostiga olindi. Chunki, ular Millatlar Ligasi organlarining mustamlaka tartiblariga haddan tashqari kirib borishi va vakolatlarini oshib ketishida havfni ko‘rgan edi<sup>26</sup>.

Shunday qilib, Mandat tizimi birinchi jahon urushidan keyin mustamlakalarni qayta taqsimlanishini va mandatariy davlatlar uchun mustamlakachilik siyosatining niqobi edi.

Mandat tizimi xalqoro munosabatlarda o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Chunki, Versal shartnomasi va Mandat tizimi o‘zida nihoyatda kuchli turli qaramaqarshiliklarni mujassam etgan tizim bo‘lib qoldi. Bir tamondan bir mustamlaka sirtmog‘idan ikkinchisiga o‘tgan mustamlaka xalqlarda mandat tizimiga qarshi milliy ozodlik kurashi kuchyib borgan bo‘lsa, ikkinchi tamondan buyuk davlatlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni chuqurlashtirib yubordi. Parij tinchlik konfrensiyasiga chaqirilmagan va uning qarorlarining ko‘pchiligi o‘ziga qarshi qaratilgan Sovet Rossiyasi bu tizimning har qanday ko‘rinishiga muxolifatda bo‘lib qoldi. “G‘olib davlatlarlar ichida mag‘lub” va mustamlakalardan eng kam ulush olgan Italiya, Uzoq Sharqda o‘z hukinronligini o‘rnatmoqchi bo‘lgan, ammo bunga erisha olmagan Yaponiya, o‘zini manfaatlari e‘tirof etimagan deb Parij koferensiysi qarorlarini va shartnomalarini ratifikatsiya qilmagan AQSh ham qarshi pozitsiyada edi. Millatlar Ligasining Mandat boshqaruvida bo‘lgan hududlarining umumiy maydoni 2930 ming km<sup>2</sup> ni, unda yashaydigan aholining esa 17 million kishini tashkil etgan.

Tez orada Mandat tizimi atrofida keskin kurash boshlandi. Ikkinci jaxon urushi davrida Yaponiya Xitoy provinsiyalaridan biri Germaniya mustamlakasi bo‘lgan Shandun viloyati va Szyaochjouvan (Sindao) bandargohini bosib olgan edi. Yaponiya Xitoyga “21 talabnama” yubordi. Ammo, AQSh dan cho‘chib, uni biroz yumshatishga majbur bo‘ldi. O‘z navbatida Versal shartnomasi va “21 talabnama” ga qarshi butun Xitoy hududida “4-may harakati” avj oldi<sup>27</sup>. AQSh Uzoq Sharqda o‘z hukmronligini o‘rnatish va boshqa davlatlarni kuchayib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik harakat qilardi. Vashington konfrensiyasida o‘z

<sup>26</sup> Ходнев А.С. Лига наций и колониальный вопрос 1919-1939. Диссертатсия: Афтореферат. М., 1996. 22-23-стр.

<sup>27</sup> Ражабов К. Жаҳон тарихининг муҳим саналари. Т., 2011. 388-б.

maqsadiga erishdi. Konfrensiyada AQSh Yaponiyaning Xitoyning bir qismini bosib olishiga qarshi chiqdi va uning talabi bilan Shandun yarim oroli Xitoyga qaytarildi. Bunga Xitoyning Millatlar Ligasi a‘zosi ekanligi va har bir a‘zo boshqa davlatlarning chegara va hududi dahlsizligi hurmat qilishi asos qilib olindi. Marshall, Marian va Karolina orollariga mandat huquqi Yaponiyaga berilishi uzoq munozaralarga sabab bo‘lib, faqat Vashington konfrensiyasidan (1921-1922-y.y.) keyin mandat huquqiga ega bo‘ldi. Mandatariylarga Mandat hududidan harbiy plastdarm sifatida foydalanmaslik, aholisinini harbiy ishlarga jalb etmaslik shartlari kiritilgan edi. Ammo, Yaponiya bu orollardan harbiy plastdarm sifatida foydalanmaslik shartlarini bajarmadi. Yaponiya Osiyoni o‘z ichiga olgan buyuk imperiya qurushni omalga oshirish maqsadidan qaytmadi<sup>28</sup>.

Mandat tizimi atrofida ziddiyatlardan biri Kichik Osiyoda xalqaro mojoroga sabab bo‘ldi. Turkiya Sevr shartnomasining Sharqiy Frakiyadagi Adrianopol va Kichik Osiyodagi Izmirni Gretsiyaga berilishi shartlarini tan olmadi. 1918-yil noyabr oyidayoq mamlakat poytaxti Istanbul shahrini ishg‘ol etgan edi. 1919-yilning oxirida Turkiya Buyuk Millat Majlisiga (TBMM) saylov o‘tkazildi va unda kamolchilar g‘alaba qozonishdi<sup>29</sup>. TBMM mamlakat hududida chet el nazoratiga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risida qaror qildi. Bunga javoban, ingliz harbiy ma‘muriyati TBMM ni tarqatib yubordi. TBMM o‘z majlisini Mustafo Kamol (Otaturk) qo‘smini egallab turgan Anqara shahrida o‘tkaza boshladi. 1920-yil 22-aprelda Anqarada chaqirilgan TBMM 23-aprelda Mustafo Kamol Otaturkni davlat boshlig‘i etib sayladi. Shu tariqa ikki hokimiyatchilik Istanbul shahrida sulton hokimiyati, Anqarada esa kamolchilar hokimiyati vujudga keldi. 1920-yilning 10-avgustida sulton hukumati bilan Antanta davlatlari Sevr shartnomasini imzoladilar<sup>30</sup>. Shartnoma mustaqil Turkiya davlati amalda tugatilganligini anglatar edi. M. Kamol (1880-1938)ga 1920-yil 26-aprelda RSFSR rahbari V.I. Lelin tamonidan diplomatik a‘loqlar o‘rnatish va turk xalqining interventlarga qarshi

<sup>28</sup> История международных отношений. Под ред. А.В.Торкунова.Том-II. М., 2012. 231-234-стр.

<sup>29</sup>Новейшая история стран Азии и Африки. XX век. Под ред. А.М. Родригеса. часть-1. 1900-1945. М., 2001. 204-206-стр.

<sup>30</sup> Системная история международных отношений. Под. ред. А.Д. Богатурова.том-2 (1914-1945) Документы. М., 2003. 28-42-стр.

kurashida yordam berishi taklifi to‘g‘risidagi maktubi kelib tushdi. 1920-yilning iyul oyida Turkiya delegatsiyasi Moskvada qabul qilindi. Shu yilning noyabr oyida yangi Turkiyada birinchi elchixona (RSFSR elchixonasi) ochildi. 1921-yil 16-martda Moskvada do‘slik va birodorlik to‘risida sovet-turk shartnomasi imzolandi<sup>31</sup>. Sovet humati Sevr shartnomasini tan olishdan bosh tortdi va Turkiyaga 10 mln oltin rubl miqdorida yordam berdi. Buning yordamida M. Kamol o‘z armiyasini qayta qurollantishga muofaq bo‘ldi. 1919-yil may oyida grek armiyasi Izmirga tushirilishi bilan Kichik Osiyo shiddatli urush maydoniga aylandi. Turkiyaning grek-engliz intevensiyasiga qarshi milliy ozodlik kurashi 1922-yil oktabr oyida g‘alaba bilan yakunlandi. 1923-yil 24-iyulda Lazonno (Shvetsariya) sharnomasiga muofiq Sevr shartnomasining asorathli shartlari bekor qilindi va Turkiya republikasi tan olindi.

Birinchi jahon urushi oxirida Suriya Fransiya qo‘sishlari tomonidan ishg‘ol etildi. 1918-yilning noyabr oyidayoq Suriya xalqining milliy-ozodlik kurashi boshlandi. Fallohlar partizan guruhlarini tuza boshladilar. 1919-yil Latakiyada ko‘tarilgan qo‘zg‘alon 3 yil davom etdi. Parij tinchlik konferensiyasida Suriyani mustaqil davlat deb tan olishgach, Suriya Bosh kongressi qonuniy mudofaa holati e‘lon qildi. 1919-yilning noyabrida joylarda Xalq milliy kengashi tuzildi. Kengash partizan harakati uchun mablag‘ va qurol to‘plash bilan shug‘ullandi. Partizan guruhlariga ko‘ngillilarni jalb etdi. Milliy kengash dekabr oyida Suriya hukumatini tuzdi. Biroq mamlakat amiri Faysalning Fransiya bilan kelishuvchilik siyosati milliy-ozodlik kurashi kuchayishiga to‘g‘anoq bo‘la boshladi. Faysal 1920-yil boshlarida davlat to‘ntarishi o‘tkazdi va parlament tarqatib yuborildi. Mart oyida o‘zini Suriya qiroli deb e‘lon qildi. 1920-yilning aprel oyida, San-Remo shartnomasiga ko‘ra, Suriya Fransiyaning mandati nazoratiga berildi<sup>32</sup>. Fransiya o‘z mandat hududida Britaniya boshqacharoq boshqaruv tizimi o‘rnatdi. Britaniya saqlab qolningan monarxiya orqali boshqaruvni o‘rgan bo‘lsa, Fransiya monarxiyani bekor qildi va Suriyada Fransuz Oliy

<sup>31</sup> История международных отношений. Под ред. А.В.Торкунова. Том-II. М., 2012. 46-стр.

<sup>32</sup> История Востока: В 5 т: Восток в новейший период (1914-1945-г.г.). Гл. редактор. Р.Б.Рыбаков, В.Я.Белокреницкий и др. Том-5. М., 2006. 146-стр.

Komissari, Livanda fransuz gubernatori boshqaruvini joriy qildi. Suriya va Livan Fransiya Levanti sifatida uagano davlatga birlashtirishga harakat qildi<sup>33</sup>. 1920-yilning Iyul oyida Fransiya armiyasi Damashq shahriga kiritildi. 1925—1927-yillar Suriya tarixiga milliy-ozodlik kurashining eng yuksalgan davri bo‘lib kirdi. 1926-yilda butun Suriya va janubiy Livanni qo‘zg‘alonlar qamrab oldi. Fransiya bu qo‘zg‘alonlarni faqat 1926-yil kuzida bostira oldi.


Birinchi jahon urushi yillarda Iroq hududi Buyuk Britaniya tomonidan ishg‘ol qilindi. 1920-yilda milliy-ozodlik qo‘zg‘aloni boshlandi. 30-iyulda Rumeys shahrida yuz bergan qo‘zg‘alon umumiroq ozodlik urushiga aylanib ketdi. Qo‘zg‘alonchilar mamlakatning katta qismini ozod qilishga erishdilar. Buyuk Britaniya bu ozodlik urushini bostirish uchun 150 ming kishilik armiya tashladi. Bu armiya 1920-yilning noyabr oyida ozodlik urushini bostirishga musharraf bo‘ldi. Ozodlik urushi to‘lqinidan cho‘chib ketgan Buyuk Britaniya ichki kuchlar madadiga har qachongidan ham kengroq tayana boshladi. Shularning yordamidagina o‘z mavqeyini saqlab qolishga intildi. Shu maqsadda oktabr oyida Iroqning muvaqqat hukumatini tuzdi, 1921-yilning 23-avgustida esa Angliyaning sodiq malayi Faysal al-Xoshimni (Suriyaning sobiq qiroli) Iroq qiroli deb e‘lon qilinishiga erishdi. Amalda esa hokimiyat, mandat tizimi qoidasiga ko‘ra, ingliz Oliy komissari qo‘lida edi. 1922-yilda inglizlar Iroqqa yana bir og‘ir shartnomani qabul qildirdilar. Unga ko‘ra, Iroq hukumati xalqaro va moliyaviy masalalarni ingliz Oliy komissari maslahati bilan hal etishi zarur edi. Bundan tashqari, Iroqda ingliz qo‘shinlari saqlanib turadigan bo‘ldi. Mamlakat iqtisodiy hayoti ingliz komissiyasi nazorati ostiga olindi. 1924-yilga kelib Buyuk Britaniya mandat tizimi yo‘li bilan Iroqda to‘la hukmronlikka erishdi. 1930-yilning 30-iyunida Buyuk Britaniya va Iroq o‘rtasida 25 yillik yangi shartnomaga imzolandi<sup>34</sup>. Iroq nomidan shartnomani Bosh vazir Nuri Said imzoladi. Shartnomaga ko‘ra, Buyuk Britaniya Iroq Millatlar Ligasiga kirgandan so‘ng, uni mustaqil davlat, deb tan oladigan bo‘ldi. 1932-yil 3-oktabrda Iroq Millatlar Ligasiga qabul qilindi va shu tariqa u

<sup>33</sup> История международных отношений. Под ред. А.В.Торкунова. Том-II. М., 2012. 311-стр.

<sup>34</sup> История Востока: В 5 т: Восток в новейший период (1914-1945-г.г.). Гл. редактор. Р.Б.Рыбаков, В.Я.Белокреницкий и др. Том-5. М., 2006. 182-стр.

to‘liq bo‘lmasa-da, davlat mustaqilligiga erishdi<sup>35</sup>. 20-yillarda Yaqin Sharqda SSSR ning siyosiy ta‘siri nihoyatda sust bo‘lib, xalq harakatlari va inqiloblardan komintern o‘z siyosiy maqsadlarinin ko‘zlar edi. Shuning uchun yosh arab davlatlari bilan aloqalarni mustahkamlashga harakat qildi. 1934-yilda Millatlar Ligasiga a‘zo bo‘lganda ham mandat tizimi haqidagi 22-moddani tan olmadi va Doimiy mandat komissiyasi bilan ishlashdan bosh tortdi. Bu Sovet davlatini Yaqin Sharqda obrusi, tasirini oshishiga sabab bo‘ldi<sup>36</sup>.

Millat Ligasi singari turli qarama-qarshiliklarni o‘zida mujassamlashtirgan Mandat tizimi ham ikkinchi jahon urushidan keyin barham topdi. Mandat tizimidagi hududlarning bir qismi mustaqillikka erishgan bo‘lsa (Yaqin Sharq davlatlari), boshqa hududlar BMT rezolyutsiyasi bilan vasiylik tizimiga o‘tkazildi.



**a-rasm.**

**b-rasm.**

**a-rasm.** Mandat tizimida bo‘lgan Osiyo va Afrika hudulari. 1. *Suriya*, 2. *Livan*, 3. *Falastin*, 4. *Transiordaniya*, 5. *Mesopatamiya*, 6. *Togo(Britaniya)*, 7. *Togo (Fransiya)*, 8. *Kamerun(Britaniya)*, 9. *Kamerin(Fransiya)* 10. *Runda-Urundi*, 11. *Tanganika* 12. *Janubiy-g‘arbiy Afrika*.

**b-rasm.** Tinch okeanida mandat boshqaruvidagi hududlar. 1). *Janubiy Tinch okean mandati*, 2). *Yangi Gvineya*, 3). *Nauri*, 4). *Germaniya Samoasi orollari*.

<sup>35</sup> Новейшая истории стран Азии и Африки. XX век. Под ред. А.М. Родригеса. часть-1. 1900-1945. М., 2001. 245-стр.

<sup>36</sup> История международных отношений. Под ред. А.В.Торкунова. Том-II. М., 2012. 317-стр.

## **1.2. 20-30-yillarda milliy-ozodlik kurashlari: dastlabki yutuqlar va qiyinchiliklar.**

Birinchi jahon urushigacha Osiyo asosan mustamlaka davlatlardan iborat bo‘lib, Yaponiya va Turkiyadan boshqa barcha davlatlarida mustamlaka va yarim mustamlaka tartiblari o‘rnatildi. Mustamlaka xalqlarning ilg‘or qatlami urushdan keyin mustaqillik berilishiga umid bilan qaramoqda edi. Biroq Parij tinchlik konferensiyasi bu umidni oqlamadi. Shunday bo‘lsa-da, Osiyo davlatlarida vaziyat asr boshidagiga nisbatan o‘zgardi. Birinchi jaxon urushidan keyin Osiyo mustamlakalarida Buyuk davlatlarning bir-biridan keskin farq qiluvchi maqsadlari to‘qnashdi. Britaniya va Fransiya eski mustamlaka tartiblarini saqlab qolishga harakat qilgan bo‘lsa, AQSh iqtisodiy jixatdan mustamlakalarga kirib borib raqiblarini siqib chiqarish choralarini izladi, Yaponiya esa buyuk Osiyo imperiyasini qurush ishtiyoyida yonardi. Uzoq Sharq mintaqasida hukumronlik uchun kurash ayniqsa AQSh va Yaponiya ziddiyatlari kuchayib bordi<sup>37</sup>. Eng muhim o‘zgarishlardan biri jahon siyosiy xaritasida RSFSR (keyinchalik SSSR) ning vujudga kelishi bilan ham bog‘liq edi. Rossiyada yuz bergen chuqur ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar milliy-ozodlik harakatlariga katta ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. Yosh Sovet davlati Podsho imperiyasining Turkiya, Eron, Afg‘oniston, Xitoy hududlariga davosi, huquqlari va imtiyozlaridan voz kechdi. Ularning milliy-ozodlik kurashlarini har jihatdan qo‘llab-quvvatladи. To‘g‘ri, Sovet Rossiyasi yuqorida nomlari tilga olingan davlatlarga bekorga yordam bermagan. 1918-1920-yillardagi Fuqoralar urushi davrida uyushtirilgan chet el intervensiysi (14 ta davlat) va buyuk davlatlarning tan olmaslik siyosati, yosh Sovet davlati uchun o‘zining janubiy chegaralari xavfsizligini ta‘minlash va qo‘shni Osiyo davlatlari bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini o‘rnatish juda muhum strategik vazifaga aylangan edi. Ayni paytda Sovet davlati qo‘shni davlatlar bilan aloqani yaxshilash masalasiga “bo‘lajak jahon inqilobi”ning tarkibiy qismi, deb ham qarar edi. Mustamlakalarda milliy-ozodlik kuchlari o‘sdi. Stixiyali milliy-ozodlik kurashi ongli kurashga aylana bordi. Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida,

<sup>37</sup> Пономарев М.В. История стран Европы и Америки в новейшее время. М., 2010. 208-214-стр.

Janubiy-sharqiy Osiyo, Xitoy va Hindistonda milliy-ozodlik kurashi shiddat bilan davom etdi.

Xitoy Osiyodagi eng yirik davlat bo‘lib, XIX asr oxiri- XX asr boshlarida Buyuk davlatlar tamonidan yarim mustamlakaga aylantirilgan edi. Parij tinchlik konferinsiyasi Xitoy mustaqilligini tiklaydi, Yaponiya bosib olgan Shandun yarim oroli qaytariladi va “21-talabnama” bekor qilinadi deb umid qilardi<sup>38</sup>. Chunki, Xitoy Antanta tarafidan urushga kirgan va Millatlar Ligasi a‘zosi bo‘lgan edi. Ammo, Parij tinchlik shartnomalari aksincha, Xitoyda Yaponiya huquqlarini mustahkamladi. Bunga qarshi Xitoyda “4-may harakatlari” boshlandi. Harakat Pekinda talabalar tamonidan boshlanib, keyin butun Xitoyni qamrab oldi. U “Vatan havf ostida”, “yo‘qolsin 21-talabnama”, “Davlat suverenitetini himoya qilamiz” shiorlari ostida o‘tdi. Ular yaponparast vazirlarni iste‘fosini talab qilishdi va Yapon tavarlarini baykot qilish boshlandi<sup>39</sup>. Natijada hukumat Versal shartnomasini tasdiqlashdan bosh tortda iste‘fo berishga majbur bo‘ldi. Xitoydagi bu harakatlar Sovet davlati tashqi siyosatida katta qiziqish uyg‘otdi va 1919-yil iyulda Sovet hukumati “Xitoy xalqining Shimoliy va Janubiy hukumatiga” murojatnomasini yo‘lladi<sup>40</sup>. Unda Podsho Rossiyasining Xitoydagi huquq va imtiyozlarini bekor qilgan holda, do‘stlik aloqalarini o‘rnatish taklif etilgan edi. Ammo, bu davrda SSSR va Xitoy o‘rtasida Sharqiy-Xitoy temir yo‘li va Mug‘iliston masalasida keskinlik mavjud edi. RSFSR Xitoy kommunistik partiya tuzilishda ko‘maklashish uchun G.N. Voytinskiy boshchiligidagi guruh yobordi. Xitoy sotsialistik inqilobi Sovet davlati uchun “bo‘lajak jaxon inqilobi”ning eng muhim qismi hisoblanardi. 1921-yil iyulda Umumxitoy kommunustlari I-se‘zdida Xitoy kummunistik partiyasi(XKP) tuzildi<sup>41</sup>. 20-yillarda Xitoy milliy-ozodlik harakatlarining ikki yirik kuchi: Gomindan va XKP mavjud edi. 1920-yilda Sun Yatsen Xitoy pizedentligiga saylandi. Biroq buyuk davlatlar uni tan olmadi. Sun

<sup>38</sup> История Востока: В 5 т: Восток в новейший период (1914-1945-г.г.). Гл. редколл. Р.Б.Рыбаков, В.Я.Белокреницкий и др. Том-5. М., 2006. 377-379-стр.

<sup>39</sup> История Китая. Под. ред. А.В. Меликсетова. М., 2002. 252-265- б.

<sup>40</sup> Новейшая история стран Азии и Африки. XX век. Под ред. А.М. Родригеса. часть-1. 1900-1945. М., 2001. 119-стр.

<sup>41</sup> История Востока: В 5 т: Восток в новейший период (1914-1945-г.г.). Гл. редколл. Р.Б.Рыбаков, В.Я.Белокреницкий и др. Том-5. М., 2006. 398-403-стр.

Yatsenning “Xitoyni qutqarish” dasturini inkor qilidi va 1921-yil Vashington konfrensiyasi qaroriga ko‘ra Xitoyda “9 davlat” hukmronligi o‘rnatildi. Shunday sharoitda, Sun Yatsen Sovet davlati hamkorlik yo‘lini tutdi. 1923-yil boshida Sovet polpredi<sup>42</sup> A.A. Ioffe va Sun Yatsen o‘rtasidagi muzokaralarda o‘zaro munosabatlarning umumiy prinsiplari haqida kommunike imzolandi. Ko‘p millatli, tarqoq va bo‘linib ketgan ulkan davlatni qisqa muddat ichida birlashtirgan bolsheviklar yutuqlari Sun Yatsenda katta taasurot qoldirgan edi va Gamindonni RKP namunasida qayta tashkil qilish va to‘liq shakllanmagan ijtimoiy harakatdan o‘z armiyasiga ega, qattiq tartib o‘rnatilgan tashkilotga aylantirishni maqsad qilib qo‘ydi. Sun Yatsen Shimolga yurish qilish va butun Xitoyni qurol kuchi yordamida Gomindan qo‘l ostida birlashtirish dasturini ishlab chiqdi. Chunki, Xitoyni birlashtirmay turib mustaqillikka olib chiqish mumkin emas deb hisoblardi. XKP bilan hamkorlik qila boshladi. Shunday qilinganda Sovet Rossiyasidan yordam olish oson kechishini u yaxshi bilardi. 1923-yil kuzida Moskvaga harbiy va moddiy yordam so‘rab yosh general Chan Kayshi boshchiligidida vakillarlarini yubordi. 1924-yil 31-mayda “SSSR va Xitoy Respublikasi o‘zaro munosabatlari tartibga solishning umumiy prinsiplari kelishuvini” imzoladi. 1924-yil yanvarda Gomindan va XKP umummilliylar birlashgan inqilobiy front tuzdilar<sup>43</sup>. Frontning maqsadi Xitoyning shimolidagi mustamlakachi davlatlar bilan hamkorlik yo‘lini tutayotgan ichki kuchlarga hamda Xitoyni yarim mustamlaka holatiga tushirgan imperiyachi buyuk davlatlar ta‘siriga qarshi kurash edi. Bunda Sun Yatsenning uch tamoyili: «milliylik, demokratiya va xalq farovonligi» katta rol o‘ynadi. 1925-yil bahorida Shanxay shahrida talabalar namoyishi ingliz politsiyasi tamonidani o‘qqa tutilishi, Xitoyda xorijiy bosqinchi davlatlarga qarshi kuchli harakat boshlanishiga turki bo‘ldi. Bu harakat Xitoy tarixiga «30-may harakati» nomi bilan kirgan. Gomindan bu inqilobiy harakatlrdan foydalanib Milliy hukumat tuzdi va uni Xitoydagagi yagona qonuniy hokimiyat deb e‘lon qildi. Hukumat boshlig‘i qilib Gomindan chap qanoti yetakchisi va inqilob boshlanmasidan biroz avval vafot

<sup>42</sup> 1941-yilgacha SSSRning chet mamlakatlardagi muxtor vakili.

<sup>43</sup> Системная история международных отношений. Под. ред. А.Д. Богатурова. Том-1(1918-1945) Документы. М., 2003. Г-9.9.

etgan Sun Yatsenning yaqin safdoshlaridan biri Van Szinvey saylandi<sup>44</sup>. Birlashgan Xalq inqilobiy armiyasi qo'mondoni etib general Chan Kayshi tayinlandi. U 1926-yilda Shimolga yurush ikki yo'nalishda (Shimoliy va Sharqiy) amalga oshirilib, Xitoyni katta qismini egallash bilan yakunlandi. Shanxay va Nankin shaharlari zabit etildi. Hukumat Kantondan Uxanga ko'chirildi. Lekin ayni vaqtda umummilliy birlashgan front ichida parchalanish yuz berdi. Manjuriya knyazi Chjan Szolin bu ziddiyatdan foydalani Pekinni egalladi va SSSR elchixonasiga hujum qilib, Chan Kayshiga qarshi urush va Xitoyda kommunistlar hokimiysi o'rnatilishi to'g'risidagi rejalarini qo'lga kiritdi va zudlik bilan Chan Kayshiga yetkazildi. 1927-yilda Moskvadan qaytgan Van Szinvey Chan Kayshini qamoqqa olish haqida buyruq berdi. Biroq bu bajarilmay qoldi. Chan Kayshi raqiblaridan ilgarilab, 1927-yil 12-aprelda Shanxayda aksilinqilobiy to'ntarish o'tkazdi va kommunistlarga qarshi repressiya boshlandi<sup>45</sup>. 1927-yil 18-aprelga Nankinda u boshliq yangi hukumat tuzuldi, Gomindanda mutloq hokimiysi o'rnatildi va kommunistlarga qarshi jazo chorralari kuchaytirildi. Lekin XKP ni to'liq tor-mor qila olmadidi. Birlashgan front barbod bo'lishi va Gomindan va XKP o'rtasidagi ziddiyatlar mamlakatni birlashtirishni yakunlash imkonini bermadi. Xitoyda bo'layotgan siyosiy jarayonlarga qanchalik qiyin bo'lmas-da Yaponiya aralashishdan tiyildi, Britaniya esa bu jarayonlarga faol aralashib, hatto 1927-yilda mayda SSSR bilan munosabatlarini uzushgacha bordi. AQSh va Britaniya Xitoyda kommunizm kirib kelishini oldini olish maqsadida Chan Kayshini qo'llay boshladi va 1927-yil martida harbiy kuch bilan yordam berdi. Biroq, 1931-yilning noyabr oyida Szyansi provinsiyasida o'tkazilgan sovet tumanlari vakillarining 1-Butunxitoy syezdi Xitoy Sovet Respublikasi tuzilganligini e'lon qildi. Davlat boshlig'i etib Mao Szedun saylandi. Shunday qilib Xitoy uchga bo'linib ketdi. Gomindan bilan XKP o'rtasidagi umummilliy birlashgan front barham topgach, Xitoyda fuqarolar urushining ikkinchi bosqichi boshlandi. Gomindan XKP ga qarshi hujum boshlandi. 1930-1933-yillarda 5 marta yurish qilindi. Ayni shunday

<sup>44</sup> История международных отношений. Под ред. А.В.Торкунова. Том-II. М., 2012. 257-стр.

<sup>45</sup> Ражабов Қ. Жаҳон тарихининг муҳим саналари.. Т., 2011. 414-стр.

sharoitda 1931-yilning 18-sentabrida Yaponiya armiyasi Xitoya hujum qildi. Bu hujum Chan Kayshining Xitoyni birlashtirish yo‘lidagi harakatini to‘xtatib qo‘ydi. Uch oy ichida Yaponiya Xitoyning shimoli-sharqida 1,2 mln kv km (aholisi 30 mln) maydonni egalladi. 1931-yil dekabr oyida Millatlar Ligasi Manjuriya agressiyasini tan oldi va hech qanday sanksiyalar qo‘llanilmadi<sup>46</sup>. Xalqoro ahvolini keskinlashtirmaslik uchun Yaponiya 1932-yil 1-martda Man‘chjou-Go (poytaxti Chanchun) davlatini tuzdi va manjurlarning Sin sulolasi so‘nggi vakili Pu I 1934-yilda imperator deb e‘on qildi<sup>47</sup>. Boshqaruv Kvantun armiyasi qo‘lida bo‘lib, Xitoy va Mug‘iliston harbiy yurishlari uchun plasdarm bo‘lib xizmat qilardi (“Tanaka memorandumi”). Chan Kayshi 1935-yilda Yaponiya agressiyasiga qarshi kurashda yordam so‘rab Sovet davlatiga murojaat qildi. Sovet davlati yordam berishga tayyorligini bildirdi, biroq buning uchun fuqarolar urushini to‘xtatish va Xitoy kommunistlariga qarshi jazo operatsiyalari o‘tkazmaslik shartini qo‘ydi. 1937-yilning iyun oyida Gomindan va XKP o‘rtasida harbiy harakatlarni to‘xtatish haqida shartnoma imzolandi. Shu tariqa Xitoyda yagona antiyapon milliy fronti vujudga keldi. Bu Sovet davlatidan harbiy va moddiy yordam olish imkonini berdi va 1937-yil 21-avgustda SSSR va Xitoy Republikasi o‘rtasida o‘zoro hujum qilmaslik haqida shartnoma imzolandi<sup>48</sup>. SSSR 1937-yil 100 mln, bir yildan keyin 150 mln dollar miqdorida qurol-yarog‘ hisobida yordam berdi. Yaponiya 1937-yil avgustda Pekin, noyabrda Shanxay, dekabrdagi Nankin shaharlarini bosib oldi. Yaponiya agressiyasiga qarshi urush 1937-yil yozidan 1945-yil kuzigacha davom etdi.

Xitoydagi antikoloniyal harakatlar Janubiy-sharqiy Osiyo milliy-ozodlik kurashiga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Janubiy-sharqiy Osiyo XX asr boshida AQSh, Britaniya, Gollandiya va Fransiya tamonidan mustamlaga aylantirilgan bo‘lib, faqat Siam (Tailand) siyosiy mustaqilligini saqlab qolgan edi. Janubiy-sharqiy Osiyo Tinch va Hind okeanlari tutashgan hududda joylashgan va shimolda Xitoy,

<sup>46</sup> Системная история международных отношений. Под. ред. А.Д. Богатурова. том-1(1918-1945) Документы. М., 2003. Г-9,13,14.

<sup>47</sup> История международных отношений. Под ред. А.В.Торкунова. Том-II. М., 2012. 271-272-стр.

<sup>48</sup> Новейшая история стран Азии и Африки. XX век. Под ред. А.М. Родригеса. часть-1. 1900-1945. М., 2001. 119-стр.

janubda Avstraliya, g‘arbda Hindiston bilan chegaradosh bo‘lib, muhim geopolitik ahamiyat kasb etardi. XX asrning 20-yillari boshlarida Vietnamda Fransuzlarga qarshi milliy-ozodlik harakatining yangi yuksalishi boshlandi. 1927-yilda milliy-ozodlik harakatining demokratik qanotiga mamlakatning bo‘lg‘usi birinchi prezidenti Xo Shi Min boshchilik qila boshladi. 1918-1919-yillar va 1926-1927-yillarda butun Indoneziyani Golandiya mustamlaka tizimiga qarshi qo‘zg‘olon qamrab oldi. Ayniqsa, Yava hamda Sumatra orollarida qo‘zg‘olon kuchli o‘tdi. 1927-yili Bandungda Indoneziya Milliy partiyasi tuzildi. Bu partiyaga Indoneziyaning bo‘lg‘usi birinchi prezidenti Sukarno boshchilik qildi<sup>49</sup>.

Osiyoda eng yirik milliy-ozodlik harakatlaridan biri Hindistonda yuz berdi va unga 1915-yildan boshlab, Janubuy Afrika Ittifoqidan vataniga qaytgan hind xalqining buyuk farzandi Maxatma Gandhi (1869-1948) boshchilik qiladi. Uning rahbarligi davrida HMK da kurashning kuch ishlatmaslik, faqat tinch, zo‘rliksiz shakliga tayanadigan yo‘li g‘alaba qozondi. Bu harakat “satyagraxi” harakati nomi tarixga kirdi. Hind milliy-ozodlik harakati 1919-1922-yillarda birinchi bosqichi, 1930-yildan ikkinchi bosqichi bo‘lib o‘tdi. 1930-yil 26-yanvarda butun mamlakatni “Mustaqlllik kuni” shiori bilan mitinglar, namoyishlar qamrab oldi. 1930-yil 30-yanvarda Maxatma Gandining mustamlaka tartiblarini bekor qilish to‘g’risidagi 11 talabnomasi “Yang Hindiston” gazetasida nashr qilindi<sup>50</sup>. 1930-yil mayda M. Gandhi, yilning so‘ngiga kelib 60 ming kishi qamoqqa olindi. 1931-yilning 5-martida ingliz mustamlakachi ma‘muriyati HMK bilan bitim imzolashga majbur bo‘ldi. Unga ko‘ra, ingliz ma‘murlari repressiyani to‘xtatish va siyosiy mahbuslarni ozod etish majburiyatini oldi. HMK esa fuqaroviylar bo‘ysunmaslik harakatini to‘xtatadigan bo‘ldi. Britaniya o‘z siyosiy ta‘sirini saqlab qolish maqsadida harakat raxbarlari bilan muzokaralar o‘tkazishga majbur bo‘ldi va 1931-yil 1-sentabrdan 1-dekabrgacha “Doira stoli” atrofidagi muzokaralarda Londonda “Hindiston fuqarolarining asosiy huquq va burchlari haqida” deb

<sup>49</sup> Новейшая истории стран Азии и Африки. XX век. Под ред. А.М. Родригеса. часть-1. 1900-1945. М., 2001. 135-137-стр.

<sup>50</sup> История Востока: В 5 т: Восток в новейший период (1914-1945-г.г.). Гл. редактор. Р.Б.Рыбаков, В.Я.Белокреницкий и др. Том-5. М., 2006. 340-стр.

nomlangan hujjatni taqdim etdi. Britaniya hind ozodlik harkatlarini bo‘lib tashlash, hindlar va musulmonlarni bir-biriga qarshi qo‘yishga harakat qildi. Natijada ingлиз mustamlakachilarining bu talablarini qabul qilmadilar. HMK kofrensiyani baykot qildi. Konferensiya ishi barbod bo‘ldi<sup>51</sup>.

1907-yildagi ingliz-rus shartnomasiga ko‘ra Eron uch qismga bo‘linib, yarim mustamlaka tartiblari o‘rnatalga edi. Sovet davlati 1917-yilning 3-dekabrida podsho hukumatining Eronga majburan qabul qildirgan shartnomalaridan voz kechdi. Rus qo‘sishinlari evakuatsiya qilindi. Buyuk Britaniya esa 1918-yilning boshlarida Eronni butunlay ishg‘ol etishga kirishdi. Inglizlarni birinchi navbatda Eron nefti va O‘rta Osiyo paxtasi qiziqtirardi. Bundan ko‘zlangan maqsad Eronni yarim qaram holatda saqlashni davom ettirish va milliy-ozodlik harakatlarining Hindistonga tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik edi. 1919-yil deyarli butun Eron bosib olindi va Sovet davlatiga qarshi intervensiya davrida Kavkazorti va Kaspiyorti hududlariga harbiy hujumda plasdarm sifatida foydalandi. Buyuk Britaniya 1919-yilning 9-avgustida Eron hukumatini tengsiz shartnoma imzolashga majbur etdi. 1919- yildan mamlakatda milliy-ozodlik kurashi boshlandi. Muhammad Xiyoboniy boshchiligida Tabrizda katta qo‘zg‘alon bo‘lib o‘tdi va hokimiyatni egallab, «Ozodiston»ni tuzdi. 1920-yil iyunda Resht shahrida Fors Sovet sotsialistik Respublikasi tuzildi. Shunday sharoitda Buyuk Britaniya o‘ziga hayrixoh guruhlarning hokimiyatga kelishiga harakat qildi. Bunga davlat to‘ntarishini yusushtirish yo‘li bilan erishdi. 1921-yil 21-fevral kuni Rizoxon boshchiligidagi harbiylar Tehronda davlat to‘ntarishi o‘tkazdilar. Rizoxon harbiy ishlar vaziri bo‘lib qolsa-da, amalda hokimiyatni o‘z qo‘liga oldi. Yangi hukumat mamlakatdagi siyosiy kayfiyat ta‘sirida 1919-yilgi ingliz-eron shartnomasini bekor qilishga majbur bo‘ldi. Biroq Buyuk Britaniya mavqeyi saqlab qolindi. Ayni paytda, yangi hukumat 1921-yilning 26-fevralda Moskvada Sovet Rossiysi va Eron shartnomasi imzoladi<sup>52</sup>. Eron xalqining 1919-1922-yillardagi milliy-ozodlik harakati izsiz ketgani yo‘q. Buning natijasida Buyuk Britaniya Erondan o‘z

<sup>51</sup> Новейшая истории Азии и Африки. XX век. Под ред. А.М. Родригеса. часть-1. 1900-1945. М., 2001. 181-стр.

<sup>52</sup> История международных отношений. Под ред. А.В.Торкунова. Том-II. М., 2012. 333-334-стр.

armiyasini olib ketishga majbur bo‘ldi. Eron armiyasi va moliya tizimida ingliz maslahatchilarining ishlashi taqiqlandi. Biroq inglizlar o‘z ta‘sirini saqlab qolaverdi. 1920-1922-yillarda mamlakatda markaziy hokimiyatni kuchaytirish borasida jiddiy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Chunonchi, separatchi kuchlar qarshiligi bostirildi. Turli ko‘rinishdagi qurolli kuchlar yagona armiyaga birlashtirildi. Bu o‘zgarishlar Rizoxon nomi bilan bog‘liq edi. 1923-yil oktabrida u bosh vazir lavozimini egalladi. 1925-yilning 31-oktabrida Eron Kojarlar sulolasiga ag‘darilib, hokimiyat Pahlaviylar sulolasiga qo‘liga o‘tdi va 12-dekabrda Rizoxon Eron shohi deb e‘lon qilindi<sup>53</sup>. Eronning harbiy-strategik va iqtisodiy jixatdan muhim hududda joylashanligi 30-yillardan Britaniya, AQSh, Germaniya va SSSR mafaatlari to‘qnashgan hududga aylantirdi.

1907-yigi ingliz-rus shartnomasiga ko‘ra Tebet va Afg‘oniston Britaniya tasir doirasida deb tan olindi. Afg‘oniston chet davlatlar bilan aloqalari faqat Britaniyaning Hindistondagi vetsi-qiroli orqali amalga oshirishi mumkin edi. 1919-yil 21-fevralda saroy fitnasi uyushtirildi va Habibullaxon o‘dirildi. Taxtni Habibullaxonning uchunchi o‘g‘li Omonullaxon egalladi. U yosh afg‘onlar harakati bilan mahkam bog‘langan edi. 1919-yilning 28-fevralida Omonullaxon Afg‘onistonni mustaqil davlat deb e‘lon qildi<sup>54</sup>. 1919-yil 3-marda Hindiston vetsi-qiroli lord Chelmsford bilan uchrashdi. Omonullaxon ingliz-afg‘on munosabatlarini qayta ko‘rib chish va Afg‘oniston mustaqilligini qayta tiklash masalasini qo‘ydi. Britaniya buni rad etdi va urush boshlanishi muqarrar bo‘lib qoldi<sup>55</sup>. Sovet Rossiysi o‘z janubiy chegaralarida Buyuk Britaniyaning mustahkamlanib olishini va uning Afg‘oniston bilan birga Turkistondagi milliy-ozodlik kurashi tayanchi bo‘lib qolishini istamas edi. Shuning uchun ham Afg‘onistonning davlat mustaqilligini 1919-yil 27-martda birinchi bo‘lib Sovet Rossiysi tan oldi. Ayni paytda, 1919-yil aprelda Afg‘oniston vakili Moskvada qabul qilindi va RSFSR zarur bo‘lib qolsa, harbiy yordam berishini ham ma‘lum

<sup>53</sup> Иран: история и современность. Под. ред. Л.М. Кулагиной, Н.М. Мамаевой. М., 2014. 53-стр.

<sup>54</sup> С.А. Шумов, А.Р. Андреев. История Афганистана. Документальное исследование. М., 2002. 214-215-стр.

<sup>55</sup> Новейшая история стран Азии и Африки. XX век. Под ред. А.М. Родригеса. часть-1. 1900-1945. М., 2001. 228-229-стр.

qildi. 1919- yilning 3-mayida Britaniya hujumga o‘tdi va uchinchi ingliz-afg‘on urushi boshlandi. Lekin ingliz qo‘smini afg‘on xalqi qarshigini sindira olmadi va 1919-yil 3-iyunda tinchlik sulhi tuzildi. 8-avgustda Ravalpindi shartnomasiga ko‘ra Britaniya Afg‘oniston mustaqilligini tan oldi. 1921-yil 28-fevralda Moskvada sovet-afg‘on do‘stlik shartnomasi imzolandi. 1921-yil noyabrda Britaniya Afg‘oniston mustaqilligini to‘liq tan oldi va diplomatik aloqalar o‘rnatdi<sup>56</sup>. O‘z navbatida Afg‘oniston Dyurant bitiminidagi chegaralarni tan oldi. Omonullaxon markaziy hokimiyatni mustahkamladi. Bu o‘rinda 1923-yil 10-aprelda qabul qilingan Afg‘oniston davlatining birinchi Konstitutsiyasi muhim rol o‘ynadi. 1927-yilda Omonullaxon podsho titulini oldi. Afg‘oniston 1927-1928-yillarda SSSR, Polsha, Misr, Britaniya, Belgiya, Italiya, Germaniya, Turkiya, Eron bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatdi. Yarim mustamlaka davlatdan to‘liq mustaqil davlatga aylandi. Ammo, mustaqillik yo‘li bir tekis kechmadi.

Afrika qit‘asida mustamlaka tizimining eng og‘ir ko‘rinishi: qullik zanjiri, huquqsizlik, segrigatsiya (irqiy ayirmachilik), qashshoqlik hukmronlik qilardi. Metropoliya bu yerda o‘ziga tayanch yaratish uchun ko‘plab yevropaliklarni ko‘chirib keltirar, ular eng unumdor va qulay yerlarni egallardi. Mahalliy aholi esa ularga xizmat qilishi, huquqlarini kamsilishi, unumsiz yelarga surgun qilinishi oddiy holga aylangandi. Birinchi jaxon urushidan keyin Germanyaning Afrikadagi mustamlakalari g‘olib davlatlar o‘rtasida bo‘lingan edi. Butun Qora qat‘ada ikki davlat (Efiopiya, Leberiya)dan tashqari barcha hududlarda mustamlaka tartiblarining turli ko‘rinishlari o‘rnatilgan edi. Afrikadagi mustamlaka tizimi va ahvoli Yevropadagi siyosiy vaziyat va jaroyonlarga bo‘liq bo‘lib, mustamlakalarning taqdiri Buyuk davlatlar konfrensiyalar va kelishuvlarida hal etilardi. Birinchi jaxon urushida keyin o‘gir ahvolga tushib qolgan Angliya va Fransiya mustamlakalari bilan kelishish, mustamlaka tartiblarni isloh qilish, yon berish bilan qarshilik harakatlariga barham barishga harakat qildi<sup>57</sup>.

<sup>56</sup> История международных отношений. Под ред. А.В.Торкунова. Том-II. М., 2012. 329-стр.

<sup>57</sup> История Востока: В 5 т: Восток в новейший период (1914-1945-г.г.). Гл. редактор. Р.Б.Рыбаков, В.Я.Белокреницкий и др. Том-5. М., 2006. 94-97-стр.

Britaniyaning Afrikada mustamlakalari ustidan hukumronlik qilish va saqlab qolishda Misr alohida harbiy-strategik ahamiyat kasb etadi. Urushdan so‘ng Misr mustaqilligini talab qilayotgan kuchlar 1918-yilda vazir Rushdi poshsho va siyosiy arbob A. Zag‘lul boshchiligidagi yuzaga kelgan vaziyatni muhokama qilish uchun Yevropaga delegatsiya tashkil qildi. Misrni talablarni tinglashga rad javobini berilidi, hamda vafdchilar rahnamolaridan to‘rt kishini qamoqqa olindi (A. Zag‘lul Malta oroliga surgun qilindi). Parij tinchlik konferensiyasi esa, Angliya protektarati ekanligini tasdiqladi. 1919-yilning 9-may kuni Qohira aholisi namoyishga chiqdi. Namoyish uch kun davom etib, “Misr-misrliklar uchun” shiori ostida o‘tkazdi, lekin tinch namoyish mustamlakachilar tomonidan o‘qqa tutilishi qo‘zg‘alonga aylanib ketishiga olib keldi. Qo‘zg‘alonlarni bostirilishiga qaramasdan mamlakatda qarshilik harakatlari davom etaverdi. O‘z siyosiy holatini o‘zgartirgan Angliya hukumati 1922-yil 28-fevralda ingliz hukumronligini tugatilganligini va Misr mustaqil davlatini tuzilganligini bildiruvchi deklaratsiyani taqdim etdi. Ammo u o‘zida bir qancha huquqlarni saqlab qoldi bular: Suvaysh kanalini mudofaa qilish, Misr ishlariga boshqa davlatlar aralashmasligini ta‘minlash, Sudan masalasida hamkorlikda ish olib borish edi. 1923-yil 19-apreldan yangi konstitutsiya qabul qilindi: Misr qirol Fuad I boshchiligidagi konstitutsion monarxiyaga aylandi. Ikki palatali Parlament va Vafd rahnamolari boshchiligidagi vazirlar kengashi (hukumat) tashkil qilindi. Ammo mamlakatda inglizlarning ta‘siri butunlay yo‘q qilinmagan edi. Vafd hukumati Sudanning inglizlarga qarshi harakatlarini qo‘llab quvvatladi. Sudandagi ingliz general-gubernatorini Misr terroristi tomonidan o‘ldirilishi natijasida bu yerdagi Misr qo‘sishnari bilan urush boshlanib ketdi. Vafdchilar qarshilik ko‘rsata olishmadi va iste‘fo berishga majbur bo‘ldi. 1930-yilda Buyuk Britaniya Misrga yanada haqoratli yangi shartnomani qabul qildirishga urindi. Lekin Bosh vazir Naxxas poshsho buni qabul qilmadi. Qirol Fuad esa parlamentni tarqatib yubordi va Naxxas poshshoni vazifasidan chetlashtirdi. Yangi hukumatga Ismoil Sidqiy poshsho boshchiligidagi 1930-yilgi konstitutsiyani bekor qildi va mamlakatda avtoritar rejimni yaratgan yangi konstitutsiyani ishlab chiqdi. 1935-

yilning noyabrida butun Misrni yangi ish tashlashlar va demonstratsiyalar qamrab oldi. Inqirozdan keyin boshangan Misrdagi vaziyatga xalqaro vaziyat Gitlerning Germaniyani egallashi va Italiyaning 1935-yilda Abissiniyaga hujum qilishi Angliyani Misr masalasida bir to‘xtamga kelishga undadi. O‘z navbatida Misr ham o‘z qurolli kuchlariga ega bo‘lishiga qaramasdan Angliyaning harbiy yordamiga muxtoj edi. 1935-yilning 13-dekabrida 1923- yildagi bekor qilingan konstitutsiya qayta tiklandi, 1936-yilning may oyida parlamentga saylovlar tashkil qilindi. Unda Vafdchilar katta mandatlarga ega bo‘ldi va Naxxas poshsho boshchiligidagi hukumatni tuzdi. 1936-yil 26-avgustida Misr Angliya bilan shartnoma imzoladi. U 20 yil muddatga tuzilgan bo‘lib, unga ko‘ra Angliya hokimligiga barham berilar edi va ingliz Oliy komissari Misrdagi ingliz elchi maqomiga ega bo‘lar edi. Shunday qilib 1936-yildagi shartnoma bir tomondan Misrning mustaqilligini taminlagan bo‘lsa, ikkinchi tomondan Angliyaning Misrdagi holatini biroz boshqacharoq holatda yanada mustahkamlagan edi. 1937-yil mayda Misr Millatlar Ligasiga qabul qilindi. Shu yilda Liga ishtirokchilari Misrni tan oldi<sup>58</sup>.

Fransiya mustamlakasi Jazoirda 1919-yilda dekret chiqarilda va unga soliq masalasida fransuz mahalliy aholi notengligi tugatildi. 1920-yilda tuzulgan “Yosh jazoirliklar” partiyasi jazoirliklar huquqini fransuzlar huquqiga tenglashtirishni, irqiy kamsitishni tugatishni, mahalliy aholidan Fransiya parlamentiga deputatlar saylanishiga ruxsat etilishini, matbuot va uyushmalarga birlashish kabi erkinliklar berilishini talab etdi. Bu partiyaning nashri “Jasorat” (“Ikdam”) gazetasi edi<sup>59</sup>. 1927-yilda “Saylangan muslimonlar federatsiyasi” tashkiloti hamda “Jazoir ulamolari ittifoqi” tashkil topdi va mustaqillik uchun kurashdi. Mamlakatda ulomo-islohotchilardan iborat jazoirliklar Assotsatsiyasi katta obro‘ qozondi. Ularning dviziyalari jo‘rlikda “Jazoir-mening vatanim, islom-mening dinim, arab tili-mening tilim”- deb qichqirishardi. 1936-yil iyunda ulomolar, kommunistlar va boshqa milliy tashkilotlar Muslimonlar kongressi ta‘sis majlisiga yig‘ildi va

<sup>58</sup> История международных отношений. Под ред. А.В.Торкунова. Том-II. М., 2012. 300-302-стр.

<sup>59</sup> История Востока: В 5 т: Восток в новейший период (1914-1945-г.г.). Гл. редактор. Р.Б.Рыбаков, В.Я.Белокреницкий и др. Том-5. М., 2006. 220-227-стр.

mustamlaka tuzumi va tashkilotlarini bekor qilish mazmunidagi “Jazoir xalqining talablari Xartiyasi” ni qabul qildi<sup>60</sup>.

Birinchi jaxon urushidan keyin Afrika milliy ozodlik kurashi qurolli qo‘zg‘alonlar, namoyishlar, ish tashlashlar bilan bir qatorda huquqiy-siyosiy kurash ham yetakchi o‘rin egallay boshladi. Jumladan, turli ko‘rinishdagi siyosiy partiyalar, tashkilotlar tuzildi o‘zlarining yig‘ilish va kongresslarini tashkil etishdi. Qora Afrikada antikoloniyal tashkilotlardan birinchisi Afrika milliy kogressi-Janubiy Afrika Ittifoqida tashkil etildi, 1920-yilda Britaniya G‘arbiy Afrikasida ham to‘rta mustamlakasini o‘z ichiga olgan Milliy kongress tuzildi. Sharqiy va Markaziy Afrikada “Farovonlik assotsatsiyasi” ( “Mahalliy assotsatsiyalar” shuningdek, Shimoli va Janubiy Rodeziya, Neyaselend, Tanganika va boshqa joylarda ham vujudga keldi) tashkil etildi. Bu siyosiy partiya, assotsatsiyalar dastlab mustamlaka tartiblarini butunlay yo‘q qilish fikrini bildirmagan edilar. Ammo, mustamlaka tizimini yumshatish, turli xil soliqlarni kamaytirish, mahalliy afrikaliklar ta‘lim tizimini yaratish va kengaytirishni talab qilib chiqdilar. Urushlararo davrda afrikaliklarning Yevropa davlatlari demokratik kurugi, Osiyo davlatlarining milliy-ozodlik kurashi harakatlari, Sovet Rossiysi bilan aloqalar o‘rnatish misollari bilan boy bo‘ldi. Ayniqsa 20-30-yillarda afrikalik ishchilar va ishchilarning Xalqaro komitetining qoratanli ziyolilari eng faol bo‘lishgan. Bu Komitet AQSh, Kanada, Vest-Indiya afroamerikaliklari va mustamlaka afrika vakillarini birlashtirgan. Ular faol tarzda irqiy ayirmachilik va kamsitishga qarshi chiqdilar, Afrika xalqining mustamlaka zulmidan ozod qilishni talab qilib chiqdilar. Janubiy va Tropik Afrika xalqining haq-huquqlari uchun kurashi Panafrika harakati deb atalgan harakatni vujudga keltirdi. Bu harakatning tashabbuskori advokat G. Silvestr Uilyam edi. Harakat negr xalqining manfaatlarini himoya qilish maqsadida tuzildi. Birinchi panafrika konfrensiyasi 1900-yilda Londonda o‘tkazilgan bo‘lsada, ammo bu harakat sifatida 1919-yilda Parij shahrida I-Ta‘sis kongressi chaqirilgan vaqtida rasmiylashtirildi. Unda 15

<sup>60</sup> Новейшая истории стран Азии и Африки. XX век. Под ред. А.М. Родригеса. часть-1. 1900-1945. М., 2001. 308-309-стр.

davlat (shu jumladan, 9 ta Afrika davlati) vakillari qatnashdi. Uning Afrika davlatini tuzish loyihasi bor edi. Uning kongresslarini tayyorlash va o‘tkazishda doktor Uilyam Dyubua (1868-1963) katta jasorat ko‘rsatdi (AQShda afroamerika harakati yetakchisi). U dunyoda o‘zining negrafrika tarixiga oid asarlari bilan mashhur edi. Panafrika kongressi yana 1921, 1923, 1927 va 1945-yillarda o‘tkazildi<sup>61</sup>. Kongress Parij konferensiyasini afrikaliklar manfaatini himoya qilishga qaratilgan xalqaro kodeksni ishlab chiqishga chaqirdi. Kongress taklifida yer va uning boyliklari afrikaliklar manfaati uchun xizmat qilishi; chet el investitsiyasi Afrikani xonavayron qilmasligi; qulchilik, majburiy mehnatning va tan jazosining bekor qilinishi; koloniyadagi bolalarga jamoat hisobidan ta‘lim berilishi; yerli aholiga oliy va o‘rta ma‘lumot olish uchun sharoit yaratilishi kabilar ilgari surilgan edi. Bundan tashqari, mahalliy aholi vakillariga boshqaruva organlarida ishtirok etish huquqi berilishi ham qayd etilgan edi. Shuningdek, Kongress Germaniya mustamlakalarining alohida davlatlar nazoratiga emas, xalqaro tashkilot nazoratiga berilishini so‘ragan. Kongress ilgari surgan g‘oyalar keyinchalik milliy-ozodlik harakatining kuchayishida ma‘lum darajada ijobiya ahamiyatga ega bo‘ldi. Yillar o‘tishi bilan Afrika davlatlarida ham milliy burjuaziya va ziyorolar shakllandi. Afrika xalqlari ozodlik uchun kurashdilar<sup>62</sup>.

Mustamlakachilikka qarshi kurashda diniy-siyosiy oqimida birinchi harakat bo‘lib afro-xrisrianlik harakati hisoblanadi. Dastlab Janubiy Afrikada vujudga kelgan bu harakat keyinchalik Belgiya Kongosi, G‘arbiy va Markaziy Afrikaga ham tarqaldi. 20-yillarda Belgiya Kongosida afro-xristianlik diniy-siyosiy harakati keng yoyilda va uning mashhur yetakchilaridan biri Simon Kimbangu edi. Bu harakat keng xalq qatlamlarini birlashtirdi va 1921-yilda butun Kongoni “Konngo-kongoliklarniki” shiori ostida namoyishlar egallab oldi. Ular noqonuniy soliqlar, yevropaliklarning plantatsiyalarida ishlab berishni bekor qilishi talab qilib chiqdi. Qarshilik harakatida kuch ishlatmaslik va ommaviy ish tashlashlar, nomoyishlar yo‘lini tanladi. 20-yillarda afro-xristianlik harakati Fransiya

<sup>61</sup> Новейшая истории стран Азии и Африки. XX век. Под ред. А.М. Родригеса. часть-1. 1900-1945. М., 2001. 344-345-стр.

<sup>62</sup> Пономарев М.В. История Европы и Америки в новейшее время. М., 2010. 206-211-стр.

Ekvatoriyal Afrikasiga(FEA) kirib bordi. Harakatning tashkiliy tus olishi va rivojlanishida A.G. Matsua (1899-1942) alohida o‘rin egallaydi. 1926-yilda Parijda “FEA ozodlik assotsatsiyasi”ni tuzadi va ularning talablari: irqiy ayirmachilik va kamsitish bilan sug‘orilgan “mahalliy kodeks” ni bekor qilish, mustanlakalarning mahalliy aholisi uchun davlat boshqaruvidan joy ajratish, Afrika tabiiy boyliklarini talayotgan va jinoyi-suiiste‘molliklar qilayotgan konsession kampaniyalarini bekor qilish<sup>63</sup>.

20-30-yillarda Yevropada fashizm kuchayishi bilan Italiya, Portugaliya va Ispaniya mustamlakalarida qattiq fashistik rejim o‘rnatilib, repressiya kuchaydi, har qanday milliy ozodlik harakarlari ayovsiz tarzda bostirildi va hali mustamlak qilinmagan hududlarga tahdidi kuchayib bordi. Bunga Yevropaning boshqa buyuk davlatlarining betaraflik, kelishuvchilik va tinchlantirish siyosati keng yo‘l ochib berdi. Birinchi jahon urushi oxirigacha ham Marokashning katta qismi hali mustamlakachilar tomonidan amalda bosib olinmagan edi. 1920-yilda Ispaniya Marokashning Rif viloyatini bosib olish niyatida hujum uyuştirdi. Ispan bosqinchilariga qarshi kurashga Muhammad Abdul Karim boshchilik qildi. 1921-yilning iyulida rifliklar ispan qo‘sishinlarini tor-mor etdilar va sentabrdagi Rif Respublikasi tuzilganligi e‘lon qilindi. Bundan Marokashning bir qismini bosib olgan Fransiya mustamlakachilarini tashvishga tushib qoldilar. Ular qo‘zg‘alon fransuz mustamlaka hududlariga ham tarqalib ketishidan qo‘rqardi va 1924-yilning yozida unga hujum qildi. Biroq Fransiya o‘zi rejalahtirgan oson g‘alabaga erisha olmadidi. Endi u Ispaniya bilan birgalikda Rif Respublikasini qonga botirishga kirishdi. 1925-yilning sentabrida bu ikki davlat armiyasi birgalikda Rif Respublikasiga qarshi hujum boshladidi. Urush harakatlari 1926-yilning may oyigacha davom etdi. Kuchlar teng bo‘lmagan bu urushda Rif Respublikasi armiyasi yengildi. Abdul Karim asir olindi. Rif respublikasi besh yil davomida imperiyalistlarga qarshi qahramonlarcha kurashdi (SSSRning yirik harbiy va davlat

---

<sup>63</sup> Новейшая история стран Азии и Африки. XX век. Под ред. А.М. Родригеса. часть-1. 1900-1945. М., 2001. 345-346-стр.

arbobi M.V. Frunze “Yevropalik sivilizatorlar va Marokash” )<sup>64</sup>. Shundan keyin ham qurolli qarshilik ko‘rsatish to‘xtamadi va 1934-yilgacha davom etdi. 1934-yilda Marokash milliy burjuaziyasi va ziyolilari “Mag‘ribchilar bloki” deb ataluvchi siyosiy tashkilot tuzdilar. Bu tashkilot Marokash sultonini hokimiyatini kengaytirishni talab etdi. Biroq mustamlakachilar bu talabni rad etdilar. 1937-yilda esa tashkilot faoliyati taqiqlandi. Ispaniya Marokashida Frankoning fashistik diktaturasi o‘rnatildi.

Italiyada fashistik rejim o‘rnatilgandan keyin Afrikaga mustamlakachilik siyosati va agressiyasi kuchayib bordi. Jumladan, Liviya 1911-yilda Italiya mustamlakasiga aylantirilgan edi. Birinchi jaxon urushi davrida Liviyyada Ilaliya mustamlakachiligidagi qarshi qo‘zg‘alonlar kuchayib bordi. Italiya Yevropadagi urushda og‘ir ahvolga tushib qolganligi tufayli Liviyyadagi armiyasini kuchaytira olmas edi<sup>65</sup>. Liviya mustaqilligi uchun kurashayotgan kuchlar birlash olmaganligi g‘alabani oxirigacha yetkazish imkonini bermadi. Shunday bo‘lsada, 1918-yil noyabrda mamlakatninig g‘arbida arab dunyosida birinchi respublika-Tripolitaniya Respublikasi tuzildi<sup>66</sup>. Italiya keyingi jarayonlardan cho‘chib, darhol yosh respublikani tor-mor qilishga qaror qildi va 1919-yilda Liviyyada 70 minglik harbiy kuch to‘plashga erishdi. Ammo, mamlakatdagi og‘ir ahvol urush boshlashga imkon bermadi va milliy-ozodlik kuchlari bilan vaqtincha kelishishga majbur bo‘ldi. 1922-yilda Italiyada o‘rnatilgan Mussolini boshchiligidida fashistik rejim Liviya ozodlik kurashini qattiq choralar bilan bostirish yo‘lini tanladi va Italiya aviyatsiyasi tinch aholi hududlarini bombardimon qildi, repressiya, qyunoq va konslagerlar ommaviy qamash boshlandi. 1928-yilda Tripolitniya Respublikasi tugatildi, 1930-yilda mamlakatning janubi ishg‘ol qilindi. Kirenaikada kurash yana davom ettirildi. “Yam-yashil Kirenaika qip-qizil qonga bo‘yaldi”-deb maqtangandi Mussolini. Mustamlakchilarga qarshi kurash 1932-yilning oxirigacha davom etdi.

<sup>64</sup> История Востока: В 5 т: Восток в новейший период (1914-1945-г.г.). Гл. редактор. Р.Б.Рыбаков, В.Я.Белокреницкий и др. Том-5. М., 2006. 237-239-стр.

<sup>65</sup> Новейшая история Азии и Африки. XX век. Под ред. А.М. Родригеса. часть-1. 1900-1945. М., 2001. 345-346-стр.

<sup>66</sup> История Востока: В 5 т: Восток в новейший период (1914-1945-г.г.). Гл. редактор. Р.Б.Рыбаков, В.Я.Белокреницкий и др. Том-5. М., 2006. 204-206-стр.

Suvaysh kanalini ochilishi Shimoliy-sharqiy Afrikaning harbiy-strategik va iqtisodiy ahamiyatini yanada oshirdi. Natijada, bu yerga mastamlakachi davlatlarning harbiy tazyiqi kuchayib bordi. XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Shimoliy-Sharqiy Afrika Britaniya, Fransiya va Italiya bo‘lib oldi. Faqat, Efiopiya 1867-yilda Britaniya, 1895-96-yillarda Italiyaning bosqinchilik yurishlariga qarshi milliy-ozodlik kurashi g‘alaba qozonib, mustaqilligini saqlab qoldi. Birinchi jaxon urushidan keyin Liberiya singari mustaqil davlat sifatida Millatlar Ligasiga a‘zo bo‘ldi. Ammo, 30-yillarda fashistik Italiya Efiopiyaga tahdid sola boshladi. 1934-yil 6-dekabrdyoq Italiya Somalisi chegarasidagi Ual-Ual vodiysida habiy to‘qnashuv yuz berdi. Efiopiya darhol Millatlat Ligasiga Italiya agressiyasi ustidan arz qildi. Millatlar Ligasi faqat 1935-yil sentabrdha bu mojaro yuzasidan komitet tuzdi. Tez orada bu ziddiyat xalqaro keskilikni keltirib chiqardi. Italiya keng ko‘lamli bosqinchilik urushiga tayyorgarlik ko‘ra boshladi. Efiopiya negusi Xayl-Silasse AQShga yordam so‘rab murojat qildi. AQSh 1935-yil avgustda betaraflik to‘g‘risida qonun qabul qildi va yordam berishdan bosh tortdi. 1935-yil 3-oktabrda 600 ming kishilik Italiya armiyasi Efiopiyaga Eritreya va Samoli hududlaridan bostirib kirdi. 7-oktabrda Millatlar Ligasi bir ovdan Italiyani aggressor deb tan oldi va unga qarshi iqtisodiy sanksiyalarni e‘lon qildi. Millatlar Ligasi tarixida birinchi marta Nizomidagi 16-moddani buyuk davlatlardan biri va Kengashning doimiy a‘zosiga qarshi qo‘lladi. Ammo, bu sanksiyada Germaniya, Yaponiya va AQSh ishtirok etmadidi. 1935-yil dekabrda SSSR Efiopiyaning qurol-yarog‘ va harbiy mutahasislar bilan yordam berishini so‘rab murojaatini rad qildi. SSSR Millatlar Ligasidagi vakiliga “Boshqa davlatlar qatori sanksiyalarni kuchaytirish borasida jonbozlik ko‘rsatmaslik va eng muhimi neft sanksiyasini qo‘llash taklifini bildimaslik” to‘g‘risida ko‘rsatma berdi<sup>67</sup>. Bu harakatlarning barchasi juda muhim bo‘lgan Italiya bilan munosabatlarni buzmaslik va undanda muhimi Germaniya natsislari bilan yaqinlashishini oldini olish edi<sup>68</sup>. Bu ziddiyat bo‘yicha 1935-yil dekabrda Britaniya va Fransiya qo‘shma loyihasi “Laval-Xor dasturi” taqdim

<sup>67</sup> Москва-Рим: Политика и дипломатия Кремля. 1920-1939: Сборник документов. Отв. ред. Г.Н. Севастьянов. М, 2003. 368-369-стр.

<sup>68</sup> История международных отношений. Под ред. А.В.Торкунова. Том-II. М., 2012. 146-стр.

etildi. Ammo, uning shartlarini Italiya va Efiopiya rad qildi. 1936-yil fevral oyida Efiopiya negusi Britaniyaga protektarat yoki Milatlar Ligasi Mandat tizimi orqali o‘ziga qo‘sib olishini taklif qildi. London anglo-italyan ziddiyatlarini chuqurashib ketishidaan cho‘chib bu taklifni rad qildi. Shunday qilib, Efiopiya Italiya agressiyasi qarshida yakkalanib qo‘yildi va 1936-yil mayida Italiya armiyasi Efiopiya poytaxti Addis-Abebuni egalladi<sup>69</sup>. Mussolini Efiopiya anneksiya qilingani haqida dekret chiqarib, Italiya qiroli Vektor-Emmonuel III Efiopiya imperatori deb e‘lon qilindi. Eritriya, Somali va Efiopiya birlashirilib-Italiya Sharqiy afrikasi deb nomlandi. 1936-yil iyulida Millatlar Ligasi yengilganini tan olib, iqtisodiy sanksiyalarni bekor qildi. Ayni paytda Italiyaning faol agressiv siyosatidan havotirga tushgan Britaniya keyingi agressiya Yaman va Saudiya Arbiston bo’lishi mumkinligi va bu Britaniyaning muhim strategik hududi Suvayish kanalini havf ostida qoldirardi. 1936-yilda Italiya-Angliya shartnomasiga ko’ra Britaniya Efiopiya agressiyani tan oldi, Italiya esa Yaman va Saudiya Arabiston hududlariga dahl qilmaydigan bo’ldi.

20-30-yillardagi milliy-ozodlik harakatlari butun mustamlakachilik tizimi katta zarba bergen bo‘lsa-da, parchalay olmadi. Aksincha metropoliyalar barcha huquq va imtiyozlarini saqlab qola oldi. Buning sababi, birinchidan, mustamlakachilik tizimining yemirilishi uchun zarur xalqaro shart-sharoitlar hali to‘la yetilmaganligi bo‘lsa, ikkinchidan, mustamlakalarda mustamlakachilarga qarshi kurashuvchi kuchlarning qaror topish jarayoni hali davom etayotganligi edi. 30-yillarda Yevropada fashizm va uzoq Sharqda yapon militarizmining kuchayishi bir tamondan milliy-ozodlik harakatlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan bo‘lsa, ikkinchi tamondan Buyuk davlatlar o’rtasida kuchlar nisbatini keskin o’zgartirib yubordi. O’rnatilgan eski tizimlarni parchalab tashladi va bu jaxon mustamlakachilik tizimida bo’shliqlarni vujudga kelishi, yemirilishiga olib keldi.

---

<sup>69</sup> История Италии. Джонатан Китс; пер. с анг. Т.М. Котельковой. М., 2012. 180-198-стр.

## **II. Bob. Ikkinchi jaxon urushidan keyiningi yillarda mustamlakalarda mustaqillik uchun kurashning avj olishi.**

### **2.1. Xalqlarning milliy-ozodlik kurashi masalalari Birlashgan Millatlar Tashkiloti faoliyatida.**

Ikkinchi jahon urushi davridayoq natsizmning tor mor etilishi xalqaro huquq tizimining keskin tarzda o'zgarishiga debocha bo'lishi aniq bo'lib qolgan edi. Mustamlakachi imperiyalar taqdiri haqidagi masala Uinston Cherchill va Franklin Ruzveltlarning 1941-yil avgust oyida Ardjentia buxtasidagi dastlabki yuzma-yuz uchrashuvlarida qo'yilgan edi. Uchrashuv yakunida imzolangan Atlantika xartiyasida xalqlarning o'z hoxish istaklarini erkin bildirishlari bilan muvofiq tarzda barcha hududiy o'zgarishlarni amalga oshirish, barcha xalqlarning boshqaruv shakllarini erkin tanlash huquqini ta'minlash, shuningdek, butun dunyoda barcha xalqlarning hamkorligini mustahkamlash, "savdo va xomashyodan teng foydalanish"ni kafolatlash zarurati haqida aytib o'tilgan edi.

Ruzvelt Xartiya tamoyillari nafaqat Yevropa balki butun dunyo uchun qo'llanishini qattiq turib talab qildi. "Men, agar biz barqaror tinchlikni qurmoqchi ekanmiz, u o'ziga qoloq davlatlarning taraqqiyotini ham qamrab olishi kerak degan e'tiqodda qattiq turaman, - deb ta'kidlagan edi Ruzvelt – Biz butun dunyo bo'y lab odamlarni qoloq mustamlakachilik siyosatidan ozod qilish ishida sustkashlik qilib turgan bir paytda fashizm qulchiligiga qarshi kurash olib bora olishimizga ishonmayman"<sup>70</sup>.

Britaniya dplomatiyasi butunlay qarama-qarshi siyosat tarafдори edi. Cherchillni nafaqat mustamlaka imperiyasi sarhadlarini saqlab qolish, balki Sharq xalqlarining o'z istaklarini izhor qilishlarining oldindan bilib bo'lmasligi ham xavotirga solayotgan edi. "Xartiyani Osiyo va Afrikaga nisbatan qo'llash ehtimoli jiddiy mulohazalarni talab qiladi, - deb ta'kidlagan edi u. – Yaqin Sharqda arablarning ko'pchiligi Falastindan yahudiylarni quvib chiqarish yoki hohlagan paytda ularning immigratsiyasini ta'qiqlab quyish istagini bildirishlari mumkin. Men o'zim mualliflaridan biri bo'lgan sionizm siyosatini qattiq turaman. Bu yangi

<sup>70</sup>Пономарев М.В. История стран Европы и Америки в новейшее время. М., 2010. 304-стр

va undan keyingi deklaratsiyalarning natijasi bo'lishi mumkin bo'lган ko'plab oldindan aytib bo'lmaydigan ziddiyatli holatlardan biridir”<sup>71</sup>.

Aksilgitler koalitsiyasini mustahkamlash zarurati g'arb davlatlarini vaqtinchalik bo'lsada urushdan keyingi siyosiy tartib haqidagi masalada o'z manfaatlarini ko'zlab qarorlar qabul qilishdan voz kechishga majbur qildi. Imkon qadar ko'proq xalqlarni natsizmga qarshi kurashda birlashtirish ehtiyoji asosiy ahamiyat kasb etib bordi. 1942-yilning 1-yanvarida AQSH, Buyu Britaniya va Xitoy rasmiy vakillari erkinlik, mustaqillik va din erkinligi tamoyillarining tantanasi, inson huquqlarini va adolatni ta'minlash tomon tashlangan odim bilan natsizm ustidan g'alaba qozonilishini e'lon qiluvchi Birlashgan Millatlarning deklaratsiyasini imzolashdi. Ittifoqchilarining 1943-yil oktabridagi Moskva konferensiyasida “xalqaro tinchlik va barcha tinchliksevar davlatlarning suveren tengligi tamoyiliga asoslangan xavfsizlikni qo'llab-quvvatlash uchun Umumjahon xalqaro tashkilotini ta'sis etish” zarurati haqidagi qaror qabul qilindi. (304)“Erkin qo'llar” tamoyili AQSH oldida qanday katta imkoniyatlar ufqini ochishi mumkinligini yaxshi tushungan Ruzvelt mustamlakachilik masalasida juda qattiq pozitsiyani egalladi. U yaratilajak yangi xalqaro tizim mustamlakachi davlatlarni mustamlaka xalqlar va butun dunyo baxt-saodati yo'lida o'z mustamlakalarini rivojlantirishga undovchi kuchli vosita bo'ladigan tekshirish va oshkorlik borasida keng imkoniyatlar” taqdim etishi kerak deb ta'kidlar edi. O'zgacha mulohaza asosida bo'lsada, mazkur pozitsiya Sovet Ittifoqi tomonidan ham qo'llab-quvvatlandi.

1944-yilning 22-avgust-28-sentabr kunlari Dumbarton-Oksdag'i konferensiyada tuzilajak xalqaro tashkilot doirasida Xavfsizlik kengashini yaratish haqidagi qaror mustahkamlandi. Aksilgitlerchilar koalitsiyasining yetakchi davlatlari ushbu Kengashning doimiy a'zolari bo'lishlari kerak edi. Jahan hamjamiyati nomidan kuch ishlatish masalasi aynan Xavfsizlik Kengashi vakolatida bo'lishi kerak edi. Bunday qaror AQSH va Sovet Ittifoqining urushdan keyingi dunyodagi mustamlakachilik masalalarini hal etishdagi ta'sirini oshirib

<sup>71</sup> Пономарев М.В. История стран Европы и Америки в новейшее время. М., 2010. 304-стр

yubordi. 1945-yilning 4-11-fevral kunlari bo'lib o'tgan Qrim konferensiyasida Ruzvelt Stalining qo'llab-quvvatlashi bilan mustamlaka hududlar ustidan BMT vasiylik tizimini yaratish haqidagi masalani qo'ydi. Ushbu holat Cherchillning kop'roq g'azabini quzg'atdi. U Britaniya imperiyasi ishlariga aralashishlariga yo'l qo'ymasligini ma'lum qildi. 1945-yilning 25-apreldidan 26-iyuniga qadar San-Fransiskoda bo'lib o'tgan BMT ni tuzish bo'yicha Ta'sis konferensiyasida murosa ko'chasi tanlandi. Britaniya delegatsiyasi vasiylik tizimining yaratilishiga rozilik bildirdi, biroq Tinch okeanidagi ayrim orollargina BMT vasiylik obyektlariga aylanishdi. Podmandat hududlarning ikkita kategoriyasi nazarda tutildi. Hududlar ustidan vasiylik BMT assambleyasining vasiylik bo'yicha Maxsus kengashi tomonidan amalga oshirilishi kerak edi.

Xalqaro Vasiylik tizimi BMT ustavining XII bobida o'z ifodasini topgan bo'lib unga quidagi hududlar kirishi belgilandi.

- a) Hozirgi kunda mandat ostida bo'lgan hududlar;
- b) Ikkinchi jahon urushi natijasida dushman daclatlardan ajratib olingan hududlar;
- c) Boshqarish uchun jabobgar davlatlar tamonidan vasiylik tizimiga ixtiyoriy qo'shilgan hidudlar (BMT ustavi, 77-modda)<sup>72</sup>.

Vasiylik tizimi dastlab asosan Tinch okeani hududida joylashgan 11 ta uncha katta bo'lмаган hududlarga nisbatan tadbiq etildi. Vasiylik huquqiy statusining o'zi mandatariylar qo'lida mazkur hududni boshqarish huquqini saqlab qolish va BMT ning qolgan a'zolari uchun iqtisodiy, ijtimoiy va savdo sohalarida teng huquqlilikni ta'minlashni ko'zda tutar edi. Shu o'rinda mandatariyning "irqi, jinsi, tili va dinidan qat'iy nazar inson huquqlari va asosiy erkinliklarni rag'batlantirish" uchun javobgar ekanligiga alohida to'xtalib o'tildi. Shu bilan birga vasiylik tizimi g'arbcha tipdag'i bozor iqtisodiyoti va huquqiy davlatchilik tamoyillari bo'yicha o'tkaziladigan modernizatsiyalash vositasiga aylandi. Buyuk Britaniya, Avstraliya, AQSH, Fransiya va Italiya mandatariy davlatlarga aylanishdi. Vasiylik Kengashi 7 a'zo-mamlakat qo'l ostidagi 11 vasiylik hududida

---

<sup>72</sup> [www.un.org/ru/decolonization](http://www.un.org/ru/decolonization)

xalqaro nazoratni ta'minlash, shuningdek, ularning hukumatlari bu hududlarda o'z-o'zini boshqarish yoki mustaqillikning zarur chora-tadbirlarini ko'rishlari uchun xalqaro nazoratni ta'minlash maqsadida tashkil etilgan. 1994 yilga kelib vasiylik hududlarining barchasi o'zlarini boshqara boshladilar yoki alohida davlatga aylanib mustaqillikka erishdilar, yoxud mustaqil qo'shni davlatlar bilan qo'shilishdi. Eng oxiri bo'lib bunday tadbirni Qo'shma Shtatlari qo'l ostida bo'lgan Tinch okean orollari (Palau) vasiylik hududi amalga oshirdi. Hozirgi paytda, tarkibiga Xavfsizlik Kengashining besh doimiy a'zosi kirgani sababli Vasiylik Kengashi ishlari, asosan, tugallandi, uning ish tartibi qoidalariga tegishli o'zgartirishlar kiritildi, ya'ni u o'zining yig'ilishlarini faqat shart-sharoit taqozo etgan hollardagina o'tkazadigan bo'ldi.

Vasiylik hududlaridan tashqari BMT Nizomi "o'zini-o'zi boshqara olmaydigan hududlar" ning borligini ham qayd etdi<sup>73</sup>. Bu huquqiy formula mustamlakachilik tizimini legallashtirdi. 1946-yilda sakkizta davlat – Avstraliya, Belgiya, Daniya, Fransiya, Niderlandiya, Yangi Zelandiya, Buyuk Britaniya va AQSH ular tomonidan boshqarilayotgan, "o'zini-o'zi boshqarishga tayyor emas" deb hisoblangan jami 72 ta hududning nomi tilga olingan ro'yxatni taqdim etishdi. Xarakterli tomoni shundaki, mazkur vaziyatda BMT Nizomi boshqaruvchi davlatlardan "qo'llar erkinligi"ga ko'mak berish yoki shaxs huquq va erkinliklarining universal standartlarini joriy qilishni talab qilmagan edi. Aksincha, "o'zini-o'zi boshqara olmaydigan" xalqlarning ijtimoniy va iqtisodiy rivojiga ko'maklashish ularning madaniy an'analarini saqlab qolish asosida amalga oshirilmog'i zarur deb hisoblanar edi, o'zini o'zi boshqarishni kengaytirish esa "spetsifik holatlar" va "taraqqiyotning turli darajalari"ga bog'liq tarzda belgilandi. Shunday qilib, Garb metropoliya davlatlari o'z mulklarining siyosiy-huquqiy iqtisodiy jihatdan yopiqligining kafolatini olishdi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tuzilgandan keyin ko'p o'tmay G'arblik ittifoqchilarining Sovet Ittifoqi bilan ijobiy hamkorligi ham nihoyasiga yetdi. Dunyo "sovuj urush" davriga qadam qo'ydi. Dunyoda ikki qutbli tartibning

<sup>73</sup> Пономарев М.В. История стран Европы и Америки в новейшее время. М., 2010. 305-стр

vujudga kelishi, blok strategiyasi tamoyillarining tantanasi BMT sa'y-harakatlarining samaradorligini sezilarli darajada pasaytirib yubordi. BMT ning ko'plab qarorlari "buyuk davlatlar" siyosiy muzokalarini natijalarini yoki mustahkamladi, yoki ularning o'rtasidagi qarama-qarshilik nuqtasini qayd etib qo'ydi xolos. Bu holat to'la ma'noda mustamlakachilik masalasida ham o'z aksini topdi.

Mustamlakachi imperiyalarning saqlanib qolishi va "buyuk davlatlar"ning jiddiy qarshiligi sharoitida BMT ning mustamlakachilik ziddiyatlariga bevosita aralashish va "uchinchi dunyo" mamlakatlarida tinchlikparvarlik operatsiyalarini o'tkazish borasidagi imoniyatlarini cheklab qo'ydi. Falastin muammosini izga solish masalasigina bundan mustasno edi. Falastinning kelgusi davlat qurulishi to'g'risida BMT Bosh Assmbleyasining 1947-yil 29-noyabrda 181-rezolyutsiyasi asosida belgilangan bo'lib, bu hududda ikki (arab va Isroil) davlat tuzilishi haqida qaror qbul qilindi<sup>74</sup>. 1948-yilning 14-mayida Buyuk Britaniya Falastinga nisbatan mandat tizimidan voz kechdi. Falastinning yahudiy aholisi esa Isroil davlati tuzilganligini e'lon qildi<sup>75</sup>. Bunga qarshi arab davlatlari hujumi bilan birinchi arab-isroil urushi boshlanib ketdi. Bu voqealari Falastin davlati tuzilmay qolishiga olib keldi. Arab aholisi tomonidan harbiy-terroristik harakatlarning amalga oshirilishi bu voqeaga nisbatan javob bo'ldi. BMT Xavfsizlik Kengashi vaqtinchalik murosaga chaqirdi va unga amal qilish bo'yicha javobgarlikni o'z zimmasiga oldi. Sulh shartlarini bajarish ustidan nazoratni Bosh Assambleya tomonidan tayinlangan maxsus vakil harbiy ko'zatuvchilar guruhi yordamida amalga oshirdi. 1949-yilda Falastinlik qochoqlarga yordam berish uchun BMT ning Yaqin Sharq agentligi tashkil etildi. 1956-yildagi navbatdagi arab-isroil urushi avj olgach, ilk to'la huquqli tinchlik parvar korpusi-BMT ning Favqulodda Qurolli Kuchlari tashkil etildi. Biroq Yaqin Sharq muammosini to'la izga solish imkonini bo'lmedi<sup>76</sup>.

---

<sup>74</sup> Системная история международных отношений. Под. ред. А.Д. Богатурова. том-4 (1914-1945) Документы. М., 2003. 133-134-стр.

<sup>75</sup> История Востока: В 6 т: Восток в новейший период (1914-1945-г.г.). Гл. редколл. Р.Б.Рыбаков, В.Я.Белокреницкий и др. Том-6. М., 2008. 207-стр.

<sup>76</sup> История международных отношений. Под ред. А.В.Торкунова Том-III. М., 2012. 106-стр

BMT ning Koreya yarim orolidagi ziddiyatlarni izga solishga aralashuvi janjalli bo'lib chiqdi. Ittifoqchi qo'shinlar tomonidan ozod etilgandan keyin demarkatsiya chizig'i bilan ikkiga bo'lib yuborilgan Koreya taqdiri haqidagi masala BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1947-yilda ko'rib chiqildi. Amerika diplomatiyasining taklifiga ko'ra BMT Bosh Assambleyasi barcha okkupatsion kuchlarning chiqarilishiga chaqirdi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Koreya masalasi bo'yicha Komissiyasini tashkil etdi. Biroq demokratik saylovlar yordamida yagona koreys davlatini qayta tiklashga urunish muvaffaqiyatsizlik bilan tugadi. Ikki koreys rejimi o'rtasidagi munosabatlar yanada taranglashdi. 1950-yilning iyunida Amerika Qo'shma Shtatlari va Koreya bo'yicha komissiya Birlashgan Millatlar Tashkilotiga Koreya respublikasi Shimoliy Koreya qurolli kuchlari hujumiga uchraganligi haqida xabar berdi<sup>77</sup>. Xavfsizlik kengashi Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo davlatlarga "harbiy hujumni qaytarish va bu mintaqada tinchlik va xavfsizlikni qayta tiklash uchun Koreya Respublikasiga zarur yordam ko'rsatish"ni tavsiya qildi. Xavfsizlik Kengashi majlisida delegatsiyasida ishtirok etmagan Sovet Ittifoqi bu majlisda ag'darib tashlangan Xitoydagi Chan Kayshi hukumati vakillarining ishtirokiga qarshi norozilik belgisi sifatida Xavfsizlik kengashining qarorini noqonuniy deb e'lon qildi. Shunga qaramasdan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti bayrog'i ostida Koreya yarim orolidagi ziddiyatlarni izga solish ishiga aralashish uchun vakolat berilgan "Birlashgan qo'mondonlik ostidagi xalqaro kuchlar" deb ataluvchi harbiy kuch tashkil etildi. Huquqiy nuqtai nazardan bu qaror xavfli pretsedent bo'lib, Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlikparvar operatsiyalarini o'tkazish uchun xavfsizlik kengashiga doimiy a'zo bo'lган barcha davlatlarning to'g'ridan-to'g'ri roziligi talab qilinar edi<sup>78</sup>.

1960-yillardan boshlab, mustamlaka imperiyalarning inqirozi va milliy ozodlik harakatining keng yoyilishi fonida Birlashgan Millatlar Tashkiloti "uchunchi dunyo mamlakatlari"da faol tarzda tinchlikparvarlik operatsiyalarini

<sup>77</sup> История Востока: В 5 т: Восток в новейший период (1914-1945-г.г.). Гл. редколл. Р.Б.Рыбаков, В.Я.Белокреницкий и др. Том-6. М., 2008. 909-стр.

<sup>78</sup> Пономарев М.В. История стран Европы и Америки в новейшее время. М., 2010. 307-стр.

amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ldi. 1958-yilda Livanda, 1960-1964-yillarda Kongoda, 1962-1963-yillarda Yangi G'arbiy Gvineyada, 1963-1964-yillarda Yamanda, 1964-yil Kiprda, 1965-1966-yillarda esa Dominikan Respublikasida shunday amaliy harbiy tadbirlar o'tkazildi.

1960-yil 14-dekabrdan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi "Mustamlaka mamlakatlar va xalqlarga mustaqillik taqdim etish haqida Deklaratsiya" qabul qildi<sup>79</sup>. Unda "xalqlarning chet el hukmronligiga qaramligi, hukmronlik va ekspluatatsiya asosiy inson huquqlarini rad etadi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomiga zid keladi va butun dunyoda tinchlik va hamkorlik tomon olg'a borish yo'lida to'sqinlik qiladi", - deb aytilgan edi. Deklaratsiyada hali mustaqillikni qo'lga kiritmagan, vasiylik ostida bo'lgan va o'zini-o'zi boshqarmaydigan hududlarning xalqlariga ular tomonidan erkin tarzda izhor qilingan iroda va istaklarga muvofiq tarzda, har qanday shartlar va qo'shimchalarsiz, irqi, dini yoki terisining rangidan qat'iy nazar butun hokimiyatni berish uchun zudlik bilan chora-tadbirlar qabul qilish" zarurati e'lon qilindi.

1961-yilning 27-yanvarida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan 1654-rezolyutsiyani amalga oshirishda "Mustamlaka mamlakatlar va xalqlarga mustaqillik taqdim etish haqida Deklaratsiya"ni hayotga tadbiq etishning borishi masalasi yuzasidan maxsus qo'mitasi tuzildi. Qo'mita tarkibi 24 kishidan iborat edi. Maxsus qo'mitaga BMT ning 1960-yil 14-dekabrdagi Assambleyasining 1514-rezolyutsiyasida o'z aksini topgan "Mustamlaka mamlakatlar va xalqlarga mustaqillik taqdim etish haqida Deklaratsiya"ni qo'llash haqidagi masalani ko'rib chiqish va mazkur Deklaratsiyani amalga oshirilishining borishi va darajasi haqida o'z fikr va mulohazalarini bildirish taklifi bildirildi<sup>80</sup>.

Bosh Assambleya o'zining o'n yettinchi sessiyasida Maxsus qo'mitaning hisobotini ko'rib chiqar ekan, 1962-yilning 17-dekabrida o'zining 1810-rezolyutsiyasini qabul qildi va bu bilan Maxsus qo'mitaning a'zolik tarkibini

---

<sup>79</sup> Системная история международных отношений. Под. ред. А.Д. Богатурова. том-4 (1914-1945) Документы. М., 2003. 197-стр.

<sup>80</sup> [www.un.org/ru/decolonization](http://www.un.org/ru/decolonization)

yettita yangi a'zoni qo'shish orqali kengaytirdi. Rezolyutsianing 8-bandida Bosh Assambleya Maxsus qo'mitaga "Hali mustaqillikni qo'lga kiritmagan barcha hududlarda Deklaratsiyani tez va to'liq amalga oshirishning muvofiq yo'llari va usullarini izlab topishni davom ettirish" ni taklif qildi.

1963-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi "o'zini-o'zi boshqarmaydigan hududlar" ning qayta ko'rib chiqilgan ro'yxatini tasdiqladi. (endi ro'yxat 64 ta hududni o'z ichiga olgan bo'lib, qolganlari yoki mustaqillikka ega bo'lishgan yoki janglarda qo'lga kiritishgan edi). Ro'yxatga o'sha paytda vasiylik ostida bo'lib qolayotgan ikkita hudud – Nauru va Tinch okeani orollari ham kiritilgan edi. 1965-yilda bu ro'yxat Fransiya Somalilend (hozirgi Djibuti) va ummon bilan to'ldirildi. 1972-yilda unga Komar orollari, 1986-yilda esa Yangi Kolidoniya kiritildi. Bir vaqtning o'zida 1960-yildan 1990-yilga qadar bo'lган davr oralig'ida 53 ta hudud o'zini o'zi boshqarish huquqiga ega bo'ldi.

Mustamlakachi imperiyalarning qulashi bilan birga Birlashgan Millatlar Tashkilotining "uchinchi dunyo" mamlakatlarini ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qullab- quvvatlash bo'yicha sa'y-harakatlari faollashdi. 1961-yilda boshlanayotgan o'n yillik rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy o'sishini tezlashtirish davri deb e'lon qilindi, 1971-1980-yillar esa teng huquqlilik asosida xalqaro ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikni keng yoyishga bag'ishlandi. 1997-yilga kelib o'zini-o'zi boshqarmaydigan hududlar soni 17 tani tashkil etdi.

1990-yilda Assambleya mustamlakachilikka barham berish uchun xalqaro o'n yillikni(1991-2000-yillar) e'lon qildi, o'n yillik aniq harakat rejasiga ega. 2000-yilning 8-dekabrida Bosh Assambleya "Mustamlaka mamlakatlar va xalqlarga mustaqillik taqdim etish haqida Deklaratsiya" qabul qilinganligining qirq yilligi munosabati bilan 2001-2010-yillar oralig'idagi davrni mustamlakachilikka barham berishning ikkinchi o'n yilligi davri deb e'lon qildi (rezolyutsiya 55/146)

2004-yilning 22-dekabrida Assambleya a'zo-davlatlarni Birlashgan Millatlar Tashkilotning dekolonizatsiya bo'yicha Maxsus qo'mitaga umumjahon miqyosida yordamko'rsatish bilan ikkinchi xalqaro o'n yillikda dunyo mustamlakachilikdan to'la ozod bo'lishiga qaratilgan sa'i-harakatlariga ko'mak

berishga chaqirdi (rezolyutsiya 59/134). Amerika Samoasi, Angilya, Bermud orollari, Britaniya Virginiyasi orollari, Qoshma Shtatlar Virginiyasi orollari, Guam, Kayman orollari, Montserrata, Muqaddas Yelena orollari, Terks va Kaykos, shuningdek Pitkren orollarinining holati haqidagi masala bilan bog'liq tarzda Assambleya bu hudud aholisining Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi va Bosh Assambleya tomonidan qabul qilingan "Mustamlaka mamlakatlar va xalqlarga mustaqillik taqdim etish haqida Deklaratsiya" ga muvofiq o'z taqdirini o'zi belgilash uchun ajralmas huquqqa ega ekanliklani yana bir bor ta'kidlab o'tildi (rezolyutsiya 1514) <sup>81</sup>.

2010-yilning 29-iyunida Bosh Assambleya Mustamlaka mamlakatlar va xalqlarga mustaqillik taqdim etish haqida Deklaratsiya"sining dekolonizatiya va Birlashgan Millatlar Tashkilotining a'zolik tarkibini kengaytirish jarayonidagi juda muhim rolini tan olar ekan, bu tarixiy hujjatning asosini tashkil etuvchi Assambleyaning 1514 raqamli rezolyutsiyasi qabul qilinganligining ellik yillik yubileyini nishonlash haqida qaror qabul qildi<sup>82</sup>.

2011-yilda Bosh Assambleya 2011-2020-yillar davrini mustamlakachilikka barham berish uchun uchinchi xalqaro o'n yillik davri deb e'lon qildi.

Mustamlaka bo'lgan mamlakatlarda qashshoqlik va ocharchilik bilan kurashish, butun jahon sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, bolalarga yordam berish va gender taraqqiyoti muammolarini hal qilish, jinoyatchilik va narkomaniyaga qarshi kurash BMT insonvarvarlik tadbirlarining ustuvor yo'nalishlari bo'lib kelmoqda<sup>83</sup>.

---

<sup>81</sup> [www.un.org/ru/decolonization](http://www.un.org/ru/decolonization)

<sup>82</sup> [www.un.org/ru/decolonization](http://www.un.org/ru/decolonization)

<sup>83</sup> Пономарев М.В. История стран Европы и Америки в новейшее время. М., 2010. 307-стр

## **2.2. Mustamlakachilik tizimining barbod bo‘lishi.**

XX asr mustamlakachilik taraqqiyotining oxirgi bosqichi bo‘lib, yemirilish va inqirozi kuchaygan davr hisoblanadi. Aslida bu inqiroz Ikkinci jahon urushiga qadar boshlangan edi. Mustamlaka tizimining yemirilishi ichki va tashqi sabablar bilan bog’liq. Ikkinci jaxon urushi yuz bergan o’zgrishlar va kuchlar nisbatini o’zgarishi, mustamlakachlik tizimining yemirilishiga olib kelgan omillardan biridir. Urush davomida Yaponiya Osiyoning katta qismini egallab olib, eski mustamlaka tartiblarni buzib yuborgan bo’lsa, Italiya va Germaniya qo’shinlari Shimoliy Afrikada hukumronligini o’rnatishga harakat qildi. Eng yirik mustamlakachi davlatlardan biri Fransiya taslim bo’ldi. Bu siyosiy jarayonlar mustamlakchilik tizimiga ta’sir etmay qolmadi. Ma’lumki, yapon va italyan mustamlakachiligi bevosita Sobiq Ittifoq va AQSh, Butuk Britaniya qo’shinlarining harbiy harakati bilan yo’q qilindi. Ular bosib olgan mustamlaka xalqlar ham antifashistik blokda faol ishtirok etdilar. Ammo, mustamlakachi davlatlar yana eski tartiblarini o’rnatishi, mustamlaka xalqlarning keskin noroziligiga sabab bo’ldi va endi milliy-ozodlik kurashi yangi, hal qiluvchi bosqichiga kirib keldi<sup>84</sup>.

XX asrning ikkinchi yarmidan mustamlakachilik tizimi barbod bo’lish jarayoni nihoyatda tezlashdi. Buning sabablari: mustamlaka xalqlarning milliy ongini o’sib bordi. Uzoq yillar davomida olib borilgan milliy-ozodlik kurashlari davomida qurolli, huquqiy-siyosiy kurashda katta tajribaga ega bo’lgan xalqlarning mustamlakachilik tizimiga qarshi kurashi yangi bosqichga ko’tarildi. Asosiy mustamlakachi davlatlar; Buyuk Britaniya va Fransiya zaiflashishdi. Bu davlatlar Ikkinci jaxon urushi davrida nafaqat mustamlakalarini saqlab qolish balki, o’z mustaqilliklarini himoya qilishi ham qiyin masalaga aylangan edi. Ammo, Yevropa metropoliyalari juda bo’lmasa imperiya qoldiqlarini saqlab qolishga urinardilar. AQSh va SSSR o’zlarining siyosiy maqsadlarini ko’zlab mustamlaka imperiyalarning saqlanib qolishiga qarshi chiqdilar. SSSR va AQSH soyasida Evropa davlatlari rolining pasayib ketishi Ikkinci jahon urushidan keyin

---

<sup>84</sup> История международных отношений. Под. ред. А.В Торкунова А.В. Том-III. М., 2012. 102-стр.

kolonializmni barbod bo'lishiga sharoit yaratdi. Har xil sabablarga ko'ra ushbu ikki davlat kolonializmni saqlanib qolishiga tarafdar emas edi. SSSR uchun milliy-ozodlik harakatlariga, Xitoy yoki Vietnamga o'xshash communistlar va sotsialistik davlatlarga rahbarlik qilishi ayni muddao edi. AQSH esa o'zgacha fikrda edi. Eslatib o'tish kerakki, AQSH davlat sifatida mustaqillik uchun kurash jarayonida paydo bo'lgan. AQSH koloniyalizmga zid bo'lgan ozod tijorat va dengizlarda erkin suzish tarafdori edi. Shu bilan birga, AQSh iqtisodiy jixatdan eng qudratli va ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda yakka peshqadam davlat edi, shuning uchun unga eski mustamlakachilik barod bo'lishi va erkin savdo aloqalari o'rnatilishi qulayroq edi. Mustamlakalarga mustaqillik berishini talab qilib AQSh Britaniyaga tazyiq o'tqaza boshladi. Uning maqsadi yangi bozor va homashyo bazasiga ega bo'lish va shu bilan birga kommunizmga qarshi kurashda mustamlakalarga ozodlik berish kerak deb hisoblardi. Chunki, mustamlakalar metropoliyaga qarshi kurashda Sovet davlatidan yordam olishi, SSSRning obro'sini oshib ketishi va bu hududlarga kommunizmning kirib kelishidan cho'chir edi. Shunday qilib, Ikkinchijiahon urushidan so'ng ikkita konfrontatsion blok tashkil topdi. Ular o'z ta'sirini Osiyo-Afrika mamlakatlari hisobidan ko'paytirishni ko'zlar edilar. Kuch usuli bilan kolonial egalikni ushlab turishda bir-biriga qarshi tizim vujudga keldi. "Sovuq urush" boshlanishi arafasida ushbu qarama-qarshi guruqlar yadro kurashiga duch kelishdi. Butun insoniyatga tazyiq paydo bo'ldi. Ikki qutbli tizim kapitalistik jamiyatdagi qayta qurishning muhimligi, hech bir og'riqsiz imperializmning mustamlaka tizimini bekor qilishni taqazo qildi<sup>85</sup>. BMTning tuzilishi, xalqoro maydondag'i roli va obro'sining oshib borishi ham mustamlakachilik tizimining yemirilishida muhim rol o'ynadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti mustamlakachilik tizimini bekor qilish jarayoniga faol qo'shildi va mustamlaklardagi vaziyatni o'z nazorati ostiga oldi<sup>86</sup>. Endilikda Osiyo va Afrika xalqlari mustamlakachilkka qarshi oyoqqa turdi va bu qit'alardagi yosh davlatlar xaqoro xuquqning to'laqonli subektiga aylandi. Shular qatorida mustaqil bo'lgan

<sup>85</sup> Фармонов Р. Халқоро муносабатлар тарихи. Т., 2013. 146-147-б.

<sup>86</sup> Новейшая история стран Азии и Африки. XX век. Под. ред. А.М.Родригеса., в 3-ч., часть-3(1945-2000). М., 2004. 232-238-стр.

Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari bilan birga “Uchinchi dunyo”ni tuzdilar.

G’arbdagi ishlab chiqarishning yangidan rivojlanishi, rivojlangan mamlakatlarning mustamlakalardagi ishlab chiqarish jarayoni rolini pasaytirdi. Imperializm davridagi kabi sharq mamlakatlarini harbiy-siyosiy bosim vositasida qaram qilish ahamiyatga ega bo’lmay qoldi. Asosiy e’tibor sobiq mustamlaka hududlaridagi daromadini qo’lga kiritishning yangi usullariga qaratildi. Kapital eksporti asosiy rolni bajardi. 60-yillar o’rtalariga kelib, mustamlaka tizimining iqtisodiy samarasiz ekanligi ma’lum bo’ldi. Oddiy eksplutatsiyaga qaraganda sobiq mustamlakadagi mustaqil davlat bilan hamkorlik qilish iqtisodiy samarali ekanligi bilindi. Buyuk Britaniya hukumron doiralari mustamlaka imperiyasining samarasiz ekanligini birinchi bo’lib e’tirof etdi. Ularga mustaqillik berishga tayyor ekanligini ta’kidlagan. Sobiq mustamlakalar o’z mustaqilliklarini mustahkamladi. Ammo, buyuk davlatlarning ta’siri va manfaatlari to’qnashgan hududlarda ko’pchilik davlatlar to’liq birlashtirilmadi, yoki bo’lib yuborildi<sup>87</sup>.

Masalan, Ikkinchiji jahon urushi tugashi arafasida Xitoyda amalda 3 ta hokimiyat bor edi. Bular: 1) Xitoydagagi Kvantun armiyasi boshqarayotgan qo’g’irchoq Sin sulolası; 2) mamlakat shimoli va shimoli-sharqida qaror topgan Xitoy Kommunistik partiyasi (XKP) boshchiligidagi hokimiyat; 3) mamlakat janubi- g’arbidagi Chan Kayshi hukumati (Gomindan hukumati)<sup>88</sup>. Yaponiya tormor etilgach, uning Xitoydagagi ma’muriyati ham quladi. 1946-yilning yozida Gomindan armiyasi XKP armiyasi egallab turgan hududga hujum qildi. Shu tariqa fuqarolar urushi boshlandi. Bu urush 1949-yilning kuzigacha davom etdi. Nihoyat, urushda Gomindan armiyasi yengildi. Uning qolgan qismi Chan Kayshi boshchiligidagi Tayvan orolida (AQSH panohida) joylashib oldi. Xitoy inqilobi g’alaba qozondi va 1949-yil 1-oktabrda Xitoy Xalq Respublikasi tashkil etildi<sup>89</sup>. Bu G’arb davlatlari mustamlakachiligiga qaqshatqich zarba bo’ldi. Xitoyda

<sup>87</sup> Фармонов Р. Халқоро муносабатлар тарихи. Т., 2013. 147-стр.

<sup>88</sup> Новейшая история стран Азии и Африки. XX век. Под. ред. А.М.Родригеса., в 3-ч., часть-3(1945-2000). М., 2004. 130-132-стр.

<sup>89</sup> Новейшая история стран Азии и Африки. XX век. Под. ред. А.М.Родригеса., в 3-ч., часть-3(1945-2000). М., 2004. 33-стр.

kommunistik partiyaning hukumat tepasiga kelishiga Sovet Ittifoqi qo'shinlarining 1945-yil Kvantun armiyasi ustidan erishgan g'alabasi yengillashtirgan. Xitoy kommunistlari "ozod etilgan rayon"larni iqtisodiy, harbiy va siyosiy tomonidan qo'lladi. 1945-yilda "ozod etilgan rayonlar" Xitoy hududining o'ndan ko'proq qismini tashkil etgan. Chan Kayshi milliy hukumati AQSh ko'magiga qaramasdan o'z mavqeyini ushlab tura olmadi. G'arb davlatlari va AQSh ochiq intervensiya qaror qilishadi. Ularning qo'shinlari jangovar harakat tomonida bo'lган. Chan Kayshi armiyasi Tayvan oroliga tashlandi. Bu yerda AQSh yordamida Xitoy Respubliasi tuzilgan edi. Xitoyda aholining mulkdor qismi yaponlar bilan hamkorlik qilish tarafdori edi. XXR va Tayvan orolida Xitoy Respublikasining tashkil topishi amalda Xitoyning-orol va qit'aviy bo'linishiga olib keldi. Barcha oxirgi davr ikki davlatning qarama-qarshiligi kuchayishi bilan bog'liq bo'lган. AQSh Tayvan qismini iqtisodiy-siyosiy va harbiy jihatdan qo'llab-quvvatladi. XXI asr boshida ikki Xitoy davlatining birlashuvi masalasi chuqur bahsga sabab bo'ldi. O'sha davrdagi Xitoy va Tayvan keskinligi Uzoq Sharqdagi jiddiy muammo bo'lib hisoblangan. Gankong va Makaoda esa Britaniya hukmronligi saqlanib qolaverdi. Shunday qilib Xitoy uzoq davom etgan ozodlik kurashlari, fuqorolar urushlaridan so'ng mustaqilligini qo'lga kiritdi, lekin to'liq birlashtirish keyingi davrlarda amalga oshirildi. Xitoyning Britaniya bilan kelishuvlariga ko'ra 1997-yilda Gankong va 1999-yilda Portugaliyadan Makao Xitoya qaytarildi<sup>90</sup>.

1945-yil iyul oyida Potsdam konferinsiyasida Yaponiya kopitulyatsiyasida keyin Koreyaning mustaqillagini tiklash haqida qaror qabul qilingan edi. 1945-yil Kvantun armiyasi yo'q qilingach, sovet qo'shinlari Shimoliy Koreyani AQSh Janubiy Koreyani egalladi. Uzoq vaqt Shimoliy Koreya istilosiga qadar SSSR koreys communistlarini hokimiyatga kelishini ko'zlab Koreya mehnatkashlar partiyasini tuzdi. Amerika zonasida antikommunistik rejim yuzaga keldi. Shunday qilib, Koreya dunyo tajribasida birinchi bo'lib ikkiga: shimoliy va janubiy qismlarga bo'lingan davlatga aylandi. Koreya mustaqilikka erishdi, ammo buyuk davlatlar ta'sirida ikkiga bo'linib ketdi. Bu aynan ikki buyuk davlat qo'shinlarini

---

<sup>90</sup> История международных отношений. Под. ред. А.В Торкунова А.В. Том-III. М., 2012. 353-стр.

ajratib turgan 38 parallel orqali amalga oshirildi. Koreyaning ikki davlatida ikki tizim qaror opdi va “Sovuq urush” o’choqlaridan biriga aylandi. Ertami kechmi harbiy to’qnashuv bo’lishi muqarrar edi. Urush 1950-yil boshlanib 1953-yilda tugadi<sup>91</sup>. Birlashtirish yo’lidagi urinishlar buyuk davlatlat aralashuviga sabab bo’ldi va xalqoro mojoraga aylandi. Mamlakatni ikki qismga bo’lishdi. SSSR va Xitoy yordamida Shimoliy Koreya AQSh va Janubiy Koreyaga qarshi turdi. Shimoliy Koreya uzoq vaqt tashqi dunyodan uzilib (izolyatsiyada) turgan. Koreyaning bo’linishi hazirgi kunda dolzarb muommolardan biri bo’lib qolmoqda. Ayniqsa, Shimoliy Koreyaning yadroviy sinovlari xalqoro tinchlikka jiddiy ta’sir ko’rsatmasdan qolmaydi.

Ikkinci jahon urushidan so’ng Hindiston xalqining milliy-ozodlik kurashi yanada kuchaydi. Buyuk Britaniya bosh vaziri K. Ettli 1947-yil 20-fevralda Hindiston haqida yangi deklaratsiya bilan chiqdi va hokimiyatni 1948-yilning iyunidan kechiktimay “hindlar qo’liga” topshirishini bayon qildi. 1947-yil mart oyida hind va musulmonlar o’rtasida qonli to’qnashuvar sodir bo’ldi. 1947-yil iyun oyida L. Mauntbattenning Hindistonning Hindiston ittifoqi va Pokistonga bolinishi haqidagi dasturi bosib chiqarildi. Shu asosda, 1947-yil 18-iyulda Hindiston mustaqilligi to’g’risida Akt va 1947-yilning 15-avgustida Hindiston mustaqilligi to’g’risida qonun qabul qilindi<sup>92</sup>. Bunga ko’ra, Buyuk Britaniya hukmron doiralari Hindistonni ikki dominionga (Hindiston Ittifoqi va “ikki” Pokistonga) bo’lib yubordi. Shu tariqa Buyuk Britaniya yana bir marta o’zining “Bo’lib tashla, hukmronlik qil!” shioriga sodiqligini namoyon qildi<sup>93</sup>. Bu bo’linishni eng nozik belgi-diniy belgi asosida amalga oshirdi. Bir davlatning ikkiga bo’linishi jarayoni katta diniy to’qnashuvar, qirg’inlar sharoitida amalga oshirildi. Ayniqsa, Kashmir viloyatining Hindistonda qoldirilishi (bu viloyat ahолиси asosan musulmonlardan iborat edi) Hindiston va Pokiston o’rtasida urush harakatlarini keltirib chiqardi. 1947-yil kuzida Pokiston qo’shinlari Kashmira

<sup>91</sup> Новейшая история стран Азии и Африки. XX век. Под. ред. А.М.Родригеса., в 3-ч., часть-3(1945-2000). М., 2004. 107-109-стр.

<sup>92</sup> Системная история международных отношений. Под. ред. А.Д.Богатуров., том-4(1945-2003) Документы. М., 2003. 127-стр.

<sup>93</sup> Пономарев М.В. История стран Европы и Америки в новейшее время. М., 2010. 308-стр.

kirdi. Hindiston armiyasi bilan janglar bo'ldi. M. K. Gandhi bu diniy to'qnashuvga qarshi chiqdi. Hindistonda musulmonlarning hayot kechirishi uchun zarur sharoit yaratishni talab qildi. Bunga shovinist hind burjuaziyasi qarshi chiqdi. 1948-yil 30-yanvarda 70 yoshli M. K. Gandhi o'ldirildi. 1949-yilning 1-yanvarida bu ikki dominion o'rtasida urushni to'xtatish haqida bitim imzolanishiga erishildi. 1949-yilda Hindiston Ta'sis majlisi mamlakat konstitutsiyasini qabul qildi va u 1950-yilning yanvaridan kuchga kirdi. 1950-yilning 26-yanvarida Hindiston Respublika deb e'lon qilindi. Shunday qilib, hind xalqining Buyuk Britaniya mustamlakachiligiga qarshi salkam 100 yil davomida olib borgan milliy-ozodlik kurashi mustaqil davlatga ega bo'lish bilan yakunlandi. 1948-yil 4-fevralda Buyuk Britaniya Seylon (Shri-Lanka) mustaqilligini tan oldi<sup>94</sup>.

Yaponiya kapitulyatsiyadan keyin Janubiy-Sharqiy Osiyoda g'arbiy metropolianing yana eski mustamlaka tartiblarni o'rnatishi, inqilobiy harakatlar kuchaytirdi. 1945-yil 17-avgustda Indoneziya musatqilligi e'lon qilindi va birinchi Prezidenti sukarno respblikani keying rivojlanishi haqida "Panja shila" (besh prinsip) qabul qildi. Ammo, Gollandiya o'zining boy mustamlaksidan ajralishni sura xohlamasdi va 1945-yil kuzida urush harakatlari boshlandi. Galandiya eski tartiblarni tiklashga urinishlari natija bermadi. Natijada, 1949-yil avgustda Indoneziya mustaqilligini tan olishga majbur bo'ldi.

Urushdan keyingi dunyo tizimidagi keskinlikda Sovet Ittifoqi millatchi va kommunistlarning imperialistlarga qarshi kayfiyatidan foydalandi. 1945-yil avgustda Vietnamda inqilob yuz berdi va 2-sentabrda Hindixitoy Kommunistik partiyasi yetakchisi Xo Shi Min Vietnam demokratik respublikasi (VDR) tuzilganligini e'lon qildi<sup>95</sup>. Sentabr oyi oxirida fransiya Angliyaliklar yordamida mamlaktga qo'shin kiritdi va Saygonni egalladi. Janubiy Vietnam, Laos va Kambojada mustamlaka tartibini tikladi. Hindixitoy xalqlari fransuz mustamlakachilariga qarshi ozodlik urushi boshladilar. Fransiya Janubiy Vietnamda 1946-yil sentabrda alohida respublika tuzdi (Koxinxin respublikasi), dekabrda

<sup>94</sup> Ражабов К. Жаҳон тарихининг муҳим саналари.. Т., 2011. 472-б.

<sup>95</sup> Новейшая история стран Азии и Африки. XX век. Под. ред. А.М.Родригеса., в 3-ч., часть-3(1945-2000). М., 2004. 170-171-стр.

VDR ga qarshi harbiy harakatlar boshladi. Bu urush 8 yil davom etdi va 1954-yilda Fransiya mag'lubiyati bilan yakunlandi. 1954-yilning aprel-iyul oylarida Jenevada Hindixitoyda tinchlik o'rnatishga bag'ishlangan konferensiya bo'lib o'tdi. Fransiya Laos, Komboja va Vietnam mustaqlligini tan oldi. Ammo, Vietnam ham 17-parallel bo'yicha ikkiga bo'lindi. Mustaqil davlatning ikkiga bo'linishi "Sovuq urush" ta'sirida yanada mustahkamlandi. AQSh Xindixitoyda hukmronligini ornatishga urinib ko'rdi. SSSR va Xitoy qo'llab turgan vietnamda maglubiyatga uchradi. Va nihoyat, 1975-yil 30-aprelda Vietnamni birlashtirish amalga oshirildi<sup>96</sup>.

Sovet Ittifoqining Ikkinci jahon urushidagi g'alabasi nafaqat uning mustamlaka tuzimidan ozod bo'lgan mamlakatlardagi nufuzining oshishiga, balki "Uchinchi dunyo" mamlakatlari taraqqiyotiga yo'l ochilishiga turtki bo'ldi. Ularning keyingi tuzilish modellari qidirildi. Bu vaqtda SSSRning Osiyo mamlakatlariga ta'siri katta edi. Sovet Ittifoqining asosiy yutug'i esa qayerda kommunistlar mavqeyi kuchli bo'lsa, o'sha yerda samaraliroq kechgan. Sobiq Sovet Ittifoqi urushdan keying dastlabgi yillarda Xitoy, Shimoliy Koreya va Vietnamda sovet rahbarligi modelini o'rnata oldi. Sotsializm qurish yo'li kuchli ta'sir ostida Vietnam, Xitoy, Laos va Kombadjada takomillashdi. Ushbu Uzoq Sharqning sharqiy mamlakatlari va Hindixitoy mamlakatlari "sotsialistik blok" i uzoq davom etmadi. Xitoy 1967-yil sovet siyosiy tizimi doirasidan chetlashib mustaqil ravishda "Uchinchi dunyo" ustidan hukmronlik qilishga intildi. 70-yillarda Vietnam Kommunistik partiyasi doimiy ravishda Xitoy pozitsiyasiga yaqinlashdi. Sovet Ittifoqi yemirilgach, mamlakat iqtisodiy sohasida Xitoy sotsializm modeli o'rnatildi. 1945-yil Tashqi Mo'g'ilistonda davlat suverreniteti to'g'risida plebissit o'tkazilib 100% mangollar mustaqillik uchun avoz berdi va uni mustaqillligini Xitoy ham tan oldi<sup>97</sup>. Mo'g'ilistonda qanday vaziyat ekanligi o'rganilsa, ularda davlat qurilishida sovet modeli urushdan keying yillarda ustun edi. Sovet Ittifoqi yemirilgach, iqtisodiy va ijtimoiy siyosat to'liq qayta qurilib,

<sup>96</sup> История Востока: В 6-т: Восток в новейший период(1945-2000г.г.). Гл. редколл. Р.Б.Рыбаков, В.Я.Белокреницкий и др. том-6. М., 2008. 718-721-стр.

<sup>97</sup> Новейшая история стран Азии и Африки. XX век. Под. ред. А.М.Родригеса., в 3-ч., часть-3(1945-2000). М., 2004. 167-стр.

bozor iqtisodiyotiga o'tish lozim topilgan. Birin-ketin boshqa davlatlar ham mustaqilligini e'lon qildi<sup>98</sup>. 1946-yil 4-iyulda Filippin, 1947-yil oktabrda Birma (Myanma), 1957-yilda Malayziya, 1961-yil Kipr, 1965-yilda Singapur (Malayziya federatsiyadan chiqdi), 1968-yil Nauri, 1970-yilda G'arbiy Samoa, Tonga, Fidji, 1972-yilda Bangladesh, 1973-yilda Bagama orollari, 1975-yilda Papua-yangi Gveniya, 1984-yilda Bruney mustaqillikka erishdi<sup>99</sup>.

Ikkinci jahon urushidan keyin Afrika va unga yondosh orollardagi 55 ta hududuy birliklarda 200 mln atrofida aholi yashardi. Afrikada rasman to'rtta davlat: Misr, Efiopiya, Liberiya (bu davlat XIX asrning o'rtalarida AQSH dan ko'chib kelganlar tomonidan tashkil etilgan) va Janubiy Afrika Ittifoqi mustaqil bo'lib, qit'aning qolgan hududlari uzoq vaqtlardan beri Angliya, Fransiya, Belgiya, Portgaliya, Ispaniya, Italiya kabi davlatlari mustamlakasi bo'lib kelardi.

Ikkinci jahon urushigacha Afrikadagi boshqaruvda liberallashuv Afrika natsionalistlari uchun oxirgi istak bo'lib qolgan bo'lsa, urush davomida bu ancha o'zgardi. Afrika hududi bo'ylab urush harakatlari avj olib ketdi: Angliya, Fransiya, Belgiya, Janubiy Afrika Ittifoqi armiyasi tarkibida 1 milliondan ortiq kishi janglarda qatnashdi; yana 2 million odam kolonial armiya ortida kerakli xizmatlarni bajardi. Afrika kolonialidagi resurslarning sezilarli o'sishi hattoki ishlab chiqarish ko'rsatkichglariga ham ta'sir qildi.

1944-45-yillarda ko'plab koloniyalarda milliy partiyalar va tashkilotlar, Afrika matbuot organlari vujudga keldi, kasaba uyushmalari faollashdi. Ularning ko'pchiligi eski ijtimoiy asoslarda tashkil qilingandi; uning tarkibidagi tribalizm, yetakchilar raqobati, turli diniy guruhlar va etnik jamiyatlar muhim rol o'ynardi. Ammo ularning talablari dastlab mustaqillikkacha bo'lган davrda radikal asosda edi. 1945-yil urush tugashi bilan darhol Panafrikan kongresssi tashkil etildi va bu yangilik Manchesterda rad etildi, ammo endi Afrika koloniyalari vakillari ustunligi mavjud edi. Ular Afrika mustaqilligi uchun kurashda panafrika kongressiga qo'shildi. Kvame Nkrumaning "kolonial xalqlar munosabati" nomli hujjati

<sup>98</sup> История международных отношений. Под. ред. А.В Торкунова А.В. Том-III. М., 2012. 104-стр.

<sup>99</sup> Пономарев М.В. История стран Европы и Америки в новейшее время. М., 2010. 311-стр.

tayyorlanib u mustaqillikka chaqirdi. “Panafrika otasi” sifatida tanilagan Uilyam Dyuba muallifi bo’lgan “Kolonial hukumatga bayonot” nomli hujjati tuzilib, unda u o’z kolonilariga mustaqillik berilishini Yevropa hukmron doiralaridan talab qildi.

Yevropa hukmron doiralari kolonialarda demokratik reforma o’tkazishni, mahalliy aholi huquqlar berishni va ularni boshqaruv ishlariga jalb qilishni vada qildi. Fransiyada 1946-yil 27-oktabrda konstitutsiya qabul qilinib fransuz ittifoqi tuzilganligi e’lon qilindi. Uning kolonilaridagi xalqlar fransuzlar bilan bir qatorda fuqarolik huquqlarini oldilar, har qanday irqdagi kishilarni kamsitish, notenglik huquqlari bekor qilindi. Barcha fransuz kolonilarida hududiy saylov assambleyalari tuzilib, ularga Fransiya parlamenti vakilini ham saylash imkonii berildi<sup>100</sup>.

Ulkan koloniyalarga ega bo’lgan Angliya hukmron doiralari esa har bir koloniya bilan ikki tomonlama kelishuv olib bordi, ularga konstitutsiya qabul qilish imkonini berdi, ular bosqichma-bosqich mustaqillikka tayyorlanib bordi, ularning bir qanchasi o’zini-o’zi boshqarish huquqini oldi.

1945-yildan keyin panafrikanizm inqirozga yuz tuta boshladi-so’l harakat (Uilyam Dyuba boshchiligida)va o’nglar harakati (J. Pedmor boshchiligida) shakllana boshladi. Navbatdagi (oxirgisi) Kongress faqatgina 1974-yilda tashkil qilindi, ammo 1940-yillarning oxiridayoq Afrikadagi bir qancha koloniyalarda siyosiy harakatlarda qo’shilishga intilish kuzatilgandi. Shunday tashkilot-Afrika demokratik birlashmasi Fransiya koloniylarida harakat boshladi; Nigeriya va Kamerun Milliy kengashi Angliya ta’siri ostidagi ulkan hududlarni o’ziga qo’shib oldi. 1947-yilda Hindiston va Pokistonning mustaqillikni e’lon qilishi Afrikani qayta koloniyaga aylantirishning ahamiyatini oshirdi.M. K. Gandining g’oyasi asosida ozodlik kurashi, satyagraxi taktikasi Afrikadagi milliy harakat

---

<sup>100</sup> Системная история международных отношений. Под. ред. А.Д.Богатуров., том-4(1945-2003) Документы. М., 2003. 126-стр.

yetakchilariga ulkan ta'sir ko'rsatdi. Bu ularni hakatidagi talablarning faolligini oshirish uchun ilhomlantirdi<sup>101</sup>.

Metropoliya turli usullar va siyosiy o'yinlar bilan mustamlakalari boshqaruvini saqlab qolishga harakat qilardi. Afrikada og'ir va uzoq olib borilgan turli ko'rinishdagi milliy ozodlik kurashlari mustamlaka tizimini parchaladi. Shimoliy Afrikada dastlab, 1951-yilda Ikkinchi jaxon urushigacha Italiya mustamlakasi Liviya mustaqillikka erishdi, 1952-yil 23-iyulda Misrda inqilob yuz berdi va monarxiya ag'darilib, 1954-yil iyunda Misr respublika deb e'lon qilindi. 1956-yil Suvaysh kanali milliylashtirish o'tkazildi. Unga qarshi 1956-yilda "uchlar" (anglo-fransuz-isroil) agressiyasi barbod bo'lgandan keyin Misr suvereniteti to'liq tiklandi<sup>102</sup>. Shu yili Angliya Sudan respublikasining suverenitetini tan oldi. Marokashda 1953-yilda, Tunisda 1952-yilda milliy-ozodlik qo'zg'alonlari boshlandi va Fransiya 1956-yil bu davlatlarning mustaqilligini e'tirof etdi<sup>103</sup>. 1956-yil 5-aprelda Ispanya Marokashi ham mustaqillikka erishdi. Jazoirda 1954-yil 1-noyabrda qurolli qo'zg'olon ko'tarildi. Qo'zg'olon umummilliy inqilobga aylanib ketdi. Mustaqillik uchun kurashda Jazoir xalqi juda katta qurbanlar berdi. Ozodlik kurashi davomida 1,5 mln dan ortiq jazoirlilik halok bo'ldi, 2 mln kishi turli konslagerlarga tashlandi. 1962-yil 18-martda urushni to'xtatish va Jazoir mustaqilligi e'tirof etilgan Evian bitimi imzolandi. Va, nihoyat, 1962-yilning 1-iyulida mustaqil Jazoir Xalq Demokratik Respublikasi deb e'lon qilindi<sup>104</sup>.

Shimoliy Afrikada esa boshlagan ozodlik shamoli Tropik va Janubiy Afrikaga ham kirib keldi. 1957-yil 6-martda Britaniya Oltin qirg'og'ida dastlabki davlat mustaqillikka erishdi, Togoni ham qo'shib olib, Gana degan yangi nom oldi va birinchi Prezidenti Kvame Nkruma bo'ldi<sup>105</sup>. Afrikadagi mustamlakalarini mustaqillik berishini talab qilib AQSh Britaniyaga tazyiq o'tqaza boshladi. Uning

<sup>101</sup> История международных отношений. Под. ред. А.В Торкунова А.В. Том-III. М., 2012. 267-стр.

<sup>102</sup> Хидаитов Г.Ф. Дипломатия XX века. М., 2010. 642-646-б.

<sup>103</sup> Новейшая история стран Азии и Африки. XX век . Под. ред. А.М.Родригеса., в 3-ч., часть-3(1945-2000). М., 2004. 44-стр.

<sup>104</sup> История Востока: В 6-т: Восток в новейший период(1945-2000г.г.). Гл. редактор. Р.Б.Рыбаков, В.Я.Белокреницкий и др. том-6. М., 2008. 105-106-стр.

<sup>105</sup> Ражабов К. Жаҳон тарихининг муҳим саналари.. Т., 2011. 488-б.

niyati yangi bozor va yangi homashyo bazalariga ega bo'lish edi, shu bilan birga kommunizmga qarshi kurashda mustamlakalarga ozodlik berish kerak deb hisoblardi. Chunki mustamlakalar metropoliyaga qarshi kurashda Sovet davlatiga suyanishi va SSSR ning obro'sini oshib ketishidan cho'chir edi. 1958-yil Fransiya tarixida Sharl de Goll raxbarligidagi Beshinchi Respublikaning yangi konstitutsiyasi qabul qilindi. Mustamlakalardagi inqirozli vaziyatni yumshatish, parchalanib borayotgan imperiyani saqlab qolish maqsadida "Fransiya hamjamiyati" tuzdi. Shunday qilib "Fransiya mustamlaka imperiyasi" Federatsiya sifatida qayta shakllantirildi. Ammo, Ahmad Seku Ture raxbarligidagi Gveniya "hamjamiyatga" kirishdan bosh tortdi va 1958-yil 28-sentabrda mustaqilligini e'lon qildi. Fransiya Gveniyaga nisbatan iqtisodiy, siyosiy sanksiyalar qo'llashi foyda bermadi<sup>106</sup>. Gveniyani SSSR va Gana har tamonlama qo'llab-quvvatladi. Aynan shu davrdan Fransyaning Afrikadagi mustamlakalarida milliy ozodlik kurashining yangi to'lqini boshlandi. Inqirozli holat mustamlakalarni boshqarishni nihoyatda qiyinlashtirib yubordi. 1959-yil dekabrda Sharl de Goll agar "hamjamiyatga" kirgan davlatlar (mustamlakalar) undan chiqib mustaqillik yo'lini tanlaydigan bo'lsa, ularga qarshilik qilmasligini bildirdi. Lekin voqealar Fransiya o'ylagandan tez kechdi. 1960-yil Fransiya mustamlaka imperiyasi pachalandi. Metropoliyaga qarshi kurash Britaniya va Belgiya mustamlakalarida ham keskin tus oldi. 1960-yining 1-yanvarda Kamerun, 27-aprelda Togo, 26-iyunda Madakaskar, 1-avustda Dagomeya (hozirgi Benin), 3-avgustda Neger, 5-avgustda Yuqori-Volta (1984-yildan Burkino-Faso), 7-avgustda Fil Suyagi Qirg'og'i ( hozirgi Kot-D'-Ivuar), 11-avgustda Chad, 13-avgustda Markaziy Afrika Respublikasi, 15-avgustda Kongo, 17-avgustda Gabon, 20-avgustda Senegal, 22-sentabrda Mali ( sobiq fransuz g'arbiy Sudani), 28-noyabrdi Mavritaniya mustaqilligini e'lon qilib, "hamjamiyatdan" chiqdi<sup>107</sup>. Fransiyaga qarashli Markaziy va G'arbiy Afrikadagi 12 ta mustamlakasi va 2 ta vasiylikdagi hudud mustaqillikka erishdi. Shu yilning o'zida Markaziy Afrikadagi

<sup>106</sup> История международных отношений. Под. ред. А.В Торкунова А.В. Том-III. М., 2012. 112-113-стр.

<sup>107</sup> Ражабов К. Жаҳон тарихининг муҳим саналари. Т., 2011. 496-498-6.

Belgiyaning eng yirik va boy mustamlakasida inqiroz yuz berdi va milliy ozodlik inqilobi g'alaba qozonib, 30-iyunda Kongo (Zair) mustaqilligini e'lon qildi. 1960-yil 1-oktabrda Britaniya imperiyasining Markaziy Afrikadagi eng yirik mustamlakalridan biri Negeriya va 1-iyulda Britaniya Samoliysi va vasiylik hududidagi Samoli (Italiyadan olingan) birlashib Samoli Demokratik Respublikasi mustaqil davlat deb e'lon qildi. Britaniya, Fransiya, Belgiya mustamlaka imperiyalari quladi, Afrika qit'asi tarixada mustamlaka zulm va zanjirlarini parchalagan yorqin yil bo'lib qoldi. Dunyo haritasida 17 ta yangi Afrika davlati paydo bo'ldi va Afrika qit'asida mustaqil davlatlar soni 9 tadan 26 taga yetdi. 1960-yil tarixga "Afrika yili" nomi bilan kirdi. "Afrika yili" (1960-yil) 25-may kuni butun Afrika qit'asida an'anaviy tarzda nishonlanib kelinadi. Afrikadagi inqilobiy vaziyatni va metropoliyadagi siyosiy jarayonlarni kuzatib borayotgan siyosatchi Buyuk Britaniya imperiyasi mustamlakalar ishi vaziri O.H. Morris 1960-yil yanvar oyidayoq so'zlagan nutqida "1960-yil Afrika yili bo'ladi"- deb ta'kidlab o'tgan edi. Shu yilning 16-fevralida Amerikalik siyosiy tadqiqotchi, diplomat, akademik Rolf Jonson ham O.H. Morrisning so'zlarini ta'kidlab o'tadi. Bu termin darhol mashhur bo'lib ketdi. Butun dunyo ommaviy axborot vositalarini e'tiborini o'ziga tortdi. Afrika muommosi Jaxon hamjamiyati diqqat markazidagi masalaga aylandi. 1960-yil oktabrda Gana Prezidenti Kvame Nkruma BMT ga "Afrikaning dunyodagi o'rni va kelajak dunyonи Afrikadagi roli" nomlangan butun Arika nomidan murojotnomasi taqdim etdi. U yana bir bor dunyo e'tiborini Afrikaga qaratdi. "Hozirgi vaqtdagi "Yangi dunyoda" Afrikaning shiddat bilan uyg'onayotgani inkor etib bo'lmaydigan faktdir. Afrika milliy ozodlik to'lqini oldidan chiqqan har qanday to'siqni supurib tashlamoqda va u koloniyal kuchlarga Afrika qit'asiga qilgan jinoyatlari va adolatsizliklari uchun badal to'lashga chaqiradi. U qasos izlagani yo'q. Milionlab aholimiz bir hil avozda hayqiradi va bizning ovozimiz okean, tog'lar, qir-adirlar, cho'llar, tekisliklar va odam uyumlari osha kesib o'tib ozodlikka chorlaydi. Afrika ozodlikni hohlaydi. Afrika ozod bo'lishi shart"<sup>108</sup>. Aynan bir vaqtida keng

---

<sup>108</sup> Давидсон А.Б. Тропическая и Южная Африка в XX веке. Новая и новейшая история №5, 2000.

miqyosida mustamlakachilik tizimiga qarshi yangi bayroq BMTning Nyu-Yorkdagi shitab kvartirasida ko'tarildi. 1960-yil 14-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi Mustamlaka mamlakatlari va xalqlariga mustaqillik berish to'g'risida Deklaratsiyani qabul qildi<sup>109</sup>. BMTning ushbu deklaratsiyani bajarilishini nazorat qiluvchi maxsus komissiyasi tuzuldi. Agar 1943-1960-yillarda Osiyo-Afrika mintaqasida 20 ta davlat mustaqillikka erishgan bo'lsa, 1960-1975-yillarda 50 ta davlat mustaqilligini qo'lga kiritdi. Afrika qit'asida mustaqil davlatlar soni 34 taga yetdi.

Afrika qit'asidagi mustamlakalar birin-ketin mustaqilligini qo'lga kiritishda davom etdi. 1961-yil Britaniya mustamlakasi Serra-Leone va vasiyligidagi Sharqiy Afrika(Germaniyadan olingan)-Tanganika nomi bilan mustaqilligini e'lon qildi, 1962-yilda Burundi, Ruanda mustaqilligini e'lon qildi, Belgiya Afrikadagi so'nggi mustamlakalaridan ajraldi. Shu yili Britaniya mustamlaklari Uganda, Tridinand va Tobago ham ham mustaqilligini qo'lga kiritgan bo'lsa, 1963-yilda Keniya va Zanzibar, 1964-yil Malavi, Zambiya, 1965-yil Gambiya, 1966-yil Botsvana, Lesoto, 1968-yil Svazilend, Mavrikiy, Ekvatorial Gvineya (Ispaniya), Portugaliya mustamlakachiligi eng uzoq vaqt saqlanib qolib, Portugaliya fashistik rejimi har qanday milliy-ozodlik harakatlarini qonga botirish, qattiq repressiya yo'li bilan bostirib keldi. Angola va Mozombik mustaqillik uchun uzoq vaqtlar partizan urushlari olib bordi. 1973-yil Gvineya-Bisau, Portugaliya "Chinnigullar inqilobi"dan keyin yangi hukumat 1975-yil Angola, Mazombik, San-Tome va Pirinsipi, Komora orollari mustaqilligini e'tirof etdi. 1977-yilda Franiya mustamlakasi Jibuti mustaqillikka erishdi. Janubiy Afrikada milliy-ozodlik kurashlari apartetga qarshi kurash bilan birga kechdi. 1980-yil Zimbabve va 1990-yilda JAR boshqaruvidagi vasiylikdagi hudud Janubiy G'arbiy Arika-Namibiya nomi bilan mustaqilligini e'lon qildi<sup>110</sup>. Shunday qilib Afrika qit'asida mustamlaka tizimi parchalanib, mustaqil davlatlar tashkil topishi nihoyasga yetdi. Sobiq

---

<sup>109</sup> Системная история международных отношений. Под. ред. А.Д.Богатуров., том-4(1945-2003) Документы. М., 2003. 197-198-стр.

<sup>110</sup> Новейшая история стран Азии и Африки. XX век . Под. ред. А.М.Родригеса., в 3-ч., часть-3(1945-2000). М., 2004. 232-238-стр.

mustamlaka hududlarda turli boshqaruv tizimidagi 52 ta mustaqil Afrika davlati vujudga keldi.

Mustamlakachilikning tarixiy evolyutsiyasi XX asrga kelib Yevropa mustamlakachilik tuzumining oxirgi, o’z mavjudligining beshinchi yuz yilligiga kirdi. Mustamlakachilining roli, uning darajasi, Sharq xalqlarining tarixiy taqdiriga ta’siri-tarixchi va siyosatshunoslar uchun chuqur bahsli mavzu hisoblanadi. Tarixiy adabiyotlarda mustamlakachilikning ikki tomonlama vazifasi – vayrongarchilik va bunyodkorlik, progressiv va regressiv omillar e’tirof etiladi. Mustamlakachilikning ijobiy omillari hech qachon bo’limgan. Mustamlakachilikning barcha tomonlarini o’rganib chiqib, muammoli xususiyatlarni topishi mumkin. Mustamlakachilik doimo zo’ravonlik, xalqlarni eksplutatsiya qilish, qul savdosi, tabiiy boylik va resurslarni talon-taroj qilishga harakat qilgan. O’tmishdagi mustamlaka tizimining jinoiy faoliyati ro’yxatini yana davom ettirish mumkin. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib metropoliya mustamlakalarga siyosiy mustaqillik bersa-da, iqtisodiy hukmronligini saqlab qolishga harakat qildi. Bu jarayonlar endi xaqoro munosabatlarda yangi-neokoloniyal munosabatlarni vujudga keltirdi.

### **III.Bob. Mustamlakachilik tizimining yemirilishi va neokolonalizm.**

#### **3.1. Britaniya Milliy Hamdo'stligi: o'tmish, hozirgi davr va kelajakda.**

XIX asr oxirida Britaniya uyushmasi imperiya tarkibidagi dominionlar doirasida vujudga keldi, bu tashkilot bir necha bosqichlardan o'tib mustaqil institutga aylandi va o'z tarkibiga Britaniya imperiyasining barcha hududlarini qamrab oladi. Milliy Hamdo'stlik tashkiloti qamrovi jixatidan BMT dan keyingi tashkilot hisoblanadi. U barcha qit'alardagi turli xil davlatlarni birlashtiradi. Uning ahamiyatli jihatni turli xil boshqaruvdagi eng boy va eng kambag'al davlatlar, eng yirik va kichik davlatlar davlatlar ishtirok etib, hamkorlik qiladi. Shu sababli, bunday tashkilot jaxon siyosiy maydonida o'z qiymatiga ega. Hozirgi zamon xalqoro aloqalarida rivojlanayotgan davlatlar dunyoda barqarorlik va tinchlikni saqlashda muhim rol o'yynamoqda. Hamdo'stlik davlatlarni demokratik tizimga o'tishida asosiy kuch hisoblanadi va terrorizmga qarshi kurashda muvaffaqqiyatlarga erishmoqda. Britaniya Hamdo'stligining tarixi, asoslari va boshqaruv mexanizmlari MDH davlatlarida ham qiziqish uyg'otib keladi. Milliy Hamdo'stlik uzoq rivojlanish tarixiga ega bo'lib, ingliz burjua inqilobida Karl I Styuart o'limidan so'ng O. Kromvel Britaniyani respublika deb e'lon qiladi. Ammo, Deklaratsiya matnida yangi ingliz davlati "respublika" emas "commonwealth"- "umumiy farovonlik" (milliy manfaat) ya'ni hokmiyat hamma uchun, aniqrog'i- Angliya, Uels va Irlandiya xalqlari uchun deb bitilgan va bu xalqlar bir davlatga birlashadilar. Hozirgi zamon Hamdo'stligiga o'tmishdagi "commonwealth" ning merosxo'ri sifatida qarash mumkin. Dastlab Hamdo'stlikka "oq koloniylar" Britaniya dominionlari kirganlar. Ular britan madaniyati, hayot tarzini o'zlashtirib olganlar svilizatsiyasiga yaqinlashib borganlar. B.Britaniya dominionlari Britaniya orollaridan chiqqan mustamlaklarda vujudga kelgan. Buni fransuz taniqli tarixchisi vaziri J. Tyurgo "mustamlakalar pishib yetilib to'kilayotgan mevalarga o'xshaydi" deb ta'rif bergan<sup>111</sup>. XIX asrning ikkinchi yarmidan xolat o'zgara boshladi. Kanada ajralib chiqib AQShga qo'shilish ehtimoli kuchaydi. Bunday burulish Britaniya harbiy siyosiy holatini

---

<sup>111</sup> Брендон П. Упадок и разрушение Британской империи 1781–1997. М., 2011. 957-стр.

yomonlashganini va Kanada mustamlakalarida mavqeyini tushib ketganligini bildirar edi. Kanada mustamlakalarida o'zini-o'zi boshqarishga intilish kuchaydi. Bu mustamlakalar birlashib 1867-yilda dominion maqomini oldi. Dominion so'zi Bibliyadan olingan bo'lib -“egalik” degan ma’noni bildiradi. “Milliy Hamdo’stlik” iborasini birinchi bo'lib lord Rozberi 1884-yilda Britaniya va dominionlari aloqalariga nisbatan qo'lladi. Adelaidaga qilgan safari vaqtida Avstraliya endi mustamlaka emas, lekin Britaniya bilan aloqalarini uzdi degani ham emas, bu endi Milliy Hamdo’stlik deb takidlab o'tadi. Asta-sekin “Hamdo’stlik” atamasi ommaviy bo'lib ketdi va imperiya so'zini ishlatishga hojat qolmadi. 1917-yilda Janubiy Afrika Ittifoqi (JAR) bosh vaziri Ya. Smets taklifiga ko'ra “Hamdo’stlik” so'zi imperiya konfrensiyasiga rezalyutsiyasiga kiritildi: dominionlar, o'sh vaqtida to'rtta edi (Kanada, Avstraliya, Yangi Zellandiya va JAR), ular o'z kuchlariga ishonishdi va imperiya tarkibida metropol qoldiqlari bo'lib qolishni xohlamadilar<sup>112</sup>. Xaqoro aloqalarning rivojlanishi dominionlar davlatmi degan savolga javob talab etardi. 1921-yil dominionlar bosh vazirlari konfrensiasida “Britaniya milliy hamdo’stligi” iborasi paydo bo'ldi, lekin konstitutsion konfrensiya chaqirilishi rad etildi. Dominionlar imperiya qoldiqlari bo'lib qolmaslik uchun kurashdilar. Bu ziddiyatlar 1922-yildagi chanas inqirozida yaqqol namoyon bo'ldi. Britaniya o'z dominionlariga Turkiyaga qarshi qo'shin yuborishlarini so'radi. Metropoliyaga faqat Avstraliya va Yangi Zellandiya harbiy yordam va'da qildi. Avstraliya parlamentida Angliyaning iltimosi ko'rib chiqildi. Chanas inqirozi davrida dominionlar metropoliya orqasidan borib urush qilishni xohlamasliklari va tinchlik tarafдори ekanligini ko'rsatdi<sup>113</sup>. Birinchi marta tashqi siyosatda mustaqil qaror qabul qildilar. 1923-yilda imperiya konfrensiyasida yangi dominionlar shartnomasi imzolandi. Unga ko'ra dominionlar o'zlari shartnomalar imzolash huquqiga ega bo'ldilar. 1926-yilda imperiya konfrensiyasida lord A. Balfur deklaratsiyasi ma'qullandi. Britaniya va dominionlar “Britaniya imperiyasi tarkibidagi avtonom davlatlar ichki va tashqi masalalada bir-biriga

<sup>112</sup> Остапенко Г.С., Прокопов А.Ю. Новейшая история Великобритании: XX-начало XXI века. М., 2012. 309-311-стр.

<sup>113</sup> Брендон П. Упадок и разрушение Британской империи 1781–1997. М., 2011. 957-стр.

bo'ysunmaydilar, Biritaniya Hamdo'stliga tarkibiga kirsa ham". 1930-yilda Ottavada Balfur deklaratsiyasi dominionlar huquqlariga ta'rif beriladi va shu asosda 1931-yil 11-dekabrda Britaniya "Vestminster nizomi"ni qabul qildi va bu nizom qonun kuchiga ega bo'ldi. Buyuk Britaniya o'z dominionlarining huquqlaridagi cheklashlarni bekor qilish haqidagi hujjatni joriy etishga majbur bo'ldi. Bu hujjat Buyuk Britaniya tarixiga "Vestminster nizomi" nomi bilan kirgan. Hujjat dominionlarining ichki va tashqi siyosatda to'la mustaqilligini e'lon qildi. Endi dominionlar (Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya va JAR) qabul qilgan qarorlar Buyuk Britaniya parlamenti tomonidan tasdiqlanmaydigan bo'ldi. Shu vaqtgacha davom etgan qoida, ya'ni Buyuk Britaniya parlamentining dominionlarda qabul qilingan istalgan qonunni bekor qilish huquqi barham topdi<sup>114</sup>. Ayni paytda hukumat dominionlarni mumkin qadar o'z ta'sir doirasida saqlashga harakat qildi. "Vestminster nizomi"ga ko'ra, dominionlar Buyuk Britaniya bilan birgalikda "Britaniya Millatlar Hamdo'stligi"ga birlashdilar. Dominionlar suverenitetida katta olg'a siljish kuzatildi. Angliya va AQSh diktaturasiga qarshi turish uchun Avstraliya Yangi Zellandiyaga yaqinlashishga harakat qildi. 1944-yil 17-yanvarda Konberrida avstra-yangi zelland konferensiyasi ochildi va "Konberri pakti" imzolandi. 1937-yilda imperiya konfrensiyasida Britaniya Hamdo'stligidagi davlatlarning mitaqaviy ittifoqlarda ishtirok etishi ijobjiy hal etildi. Hamdo'stlik tarixida birinchi marta dominionlar "imperiya birligi" bilan ochiq aloqani uzib, Angliya ishtirokisiz jiddiy kelishuvlar qabul qilishdi<sup>115</sup>. Iqtisodiy sohadagi aloqalar Britaniya tashqi siyosaning asosiy etiborini tortar edi. Kanada, Avstraliya, Janubiy Afrika metropoliyaga shunchalar qaram ediki, ulaning iqtisodiy rivojlanishi Britaniya iqtisodi bilan chambachast bo'glangan edi. Mustamlakalardan xomashyo va ishchi kuchi sifatida foydalanilgan. Savdo bilan bir qatorda moliyaviy ahvoli ham rivojlanayotgan edi. Britaniyadan imperiya mamlakatlariga kapital olib chiqish XIX asr davomida 1913-yilgacha eng yuqori

<sup>114</sup> Рейнольдс Д. Внешняя политика Британии и "упадок" Британии в двадцатом веке. Россия и Британия. В мире английской истории; под ред. В. Г. Трухановского. М., 1997. 54–60 б.

<sup>115</sup> Брендон П. Упадок и разрушение Британской империи 1781–1997. М., 2011. 957-стр.

cho'qqlarga ko'tarildi<sup>116</sup>. Dunyo bo'ylab Amerika va nemis iqtisodi va kapitali shtob bilan o'sa boshladi. Britaniya esa iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay imperiya hududida iqtisodiy hukimronligini saqlab qoldi. Britaniya kapitali va tavarlari uchun mustamlakalar "dahlsiz hudud" bo'lib xizmat qildi. Britaniya o'zining jaxon savdosi hukimronlik davosidan voz kechib asosiy etiborini yangi imperiya iqtisodini rivojlantirishga qaratdi. A'zo davlatlar bilan tashkil etilgan umumiy bozor, uning katta hajmi Britaniya iqtisodi va savdosi rivojlanishi, AQSh bilan iqtisodiy kurashda kafolat vazifasini bajardi. Metropolianing yangi yo'nalishi qaram davlatlar iqtisodini rivojlantirishga qaratilgan. Imperiya uchun Britaniyaning iqtisodiy qiyinchiliklari, turg'unlik va Buyuk depressiya davrida Hamdo'stlikdagi iqtisodiy va savdo aloqalar XIX asrga qaraganda katta ahamiyat kasb etardi. Mustamlaklarda bozor va hom ashyo eksport qilish o'sib bordi. 1938-yilda Kanadaning 29,1, Avstraliyaning 49,7, JAR ning 38,5, Hindistonning 32,9, Nigeriyaning 66,3, Keniyaning 36,6 foiz tashqi savdo aylanmasi Britaniya hissasiga to'g'ri keldi. Britaniya imperiyasi uchun resurs manbayi va tavarlariga ulkan bozor bo'lib xizmat qildi, kuchayib borayotgan xaqoro raqobatda saqlanib qolish va buyuk davlatlar qatorida qolishi imkonini berdi. Tashqi siyosiy va harbiy mudofaa iqtisoddan ko'ra boshqa prinsiplar asosida qaralardi. Bunda faqat dominionlar avozga ega edilar. Hatto bu davlatlarga ham ma'lum davrgacha tashqi siyosatni boshqarish imkoni berilmagan. Imperiyaning ayrim hududlariga harbiy bosqinchilik siyosati havf solar edi. Kanadaga ulkan janubiy qo'shnisi, Avstraliyaga XIX-XX asr oralig'ida kuchli agressor davlatga aylangan Yaponiya, Hindistonga shimal tamondan Rossiya havf solardi. Dunyodagi eng yirik harbiy-dengiz kuchlari imperiyani himoya qilar va shu bilan birga yuqori darajadagi kommunikatsiya aloqalarini taminlar edi. Bu butun imperiyaning faxri edi. Urush davrida Britaniya Milliy Hamdo'stligiga AQSh ning ta'siri kuchayib bordi.

Ikkinci jaxon urushidan keyin mustamlaka va qaram davlatlarda mustmlakachilik tizimiga qashi kurashi Britaniya imperiyasini qulashiga olib keldi.

---

<sup>116</sup> Рейнольдс Д. Внешняя политика Британии и "упадок" Британии в двадцатом веке. Россия и Британия. В мире английской истории; под ред. В. Г. Трухановского. М., 1997. 54–60 б.

O'ng kuchlarni imperiyani saqlab qolishga bo'lgan urinishlari natija bermadi. Birin ketin Osiyo va Afrika davlatlari siyosiy mustaqillikka erisha boshladi. 1956-yildagi Suvaysh inqirozi britaniyani arab dunyosidan siqib chiqardi va o'z o'rnnini AQShga bo'shatib berdi. Britaniya endi "Uchunchi dunyo"ga nisbatan siyosatini qayta ko'rib chiqishga majbur bo'ldi. Dekolonizatsiya davrida Angliya o'z mustamlakalaridan chiqib ketishi masalasi qo'yildi. Oldingi barcha aloqlar qayta ko'rib chiqildi, lekin bu mustamlakalrdan to'liq chiqib ketishni anglatmas edi. Yumshoq siyosat asosida "ketib ketmaslik"-o'z pozitsiyasini saqlab qolishdek strategik maqsadni amalga oshrish lozim edi<sup>117</sup>. Mustaqillikka erishgan mustamlakalari bilan ikki tamanlama sharnomalar imzolandi. Imperiya tarkibiga kirgan mamlaktlarning deyarli barchasi Britaniya Milliy Hamdo'stlikka a'zo bolib kirdilar va hozida ham a'zo hisoblanadi. Uning tuzilishi, qamrovi, boshqaruvida katta o'zgarishlarga olib keldi. 1946-yilda tashkilotdan "Britaniya" so'zi olib tashlandi va 1947-yildan Milliy Hamdo'stlik nomini oldi<sup>118</sup>. Assotsatsiyaning binar (ikkilik, ikki tamon) tabiatini ham o'zgarmay qolmoqda. Britaniya milliy Hamdo'stligi tarkibiga dastlab "eski dominionlar" kirgan. 1947-yilda g'arbiy svilizatsiya doirasidan ajraldi va Hindiston, Pokiston, Seylon a'zo bo'lib kirib, multimadaniy birlashmaga aylandi. Keyinchalik Hamdo'stlika Osiyo, Afrika va Karib havzasining boshqa davlatlari ham qo'shildi. Britaniya shunday qayta tashkil etilishiga rozi bo'ldi, chunki, bipolyar dunyo davrida oldingi koloniyalarda o'z ta'siri va turli-xil aloqalarini saqlab qolishga va ularni SSSR bilan yaqinlashtirmaslika harakat qildi, AQShning tuli qiziqish doiralaridan himoya qildi. Yosh mustaqil davlatlar esa, rivojlangan davlatlar tamonidan diplomatik, harbiy, iqtisodiy va siyosiy yardam kerakligi sababli Hamdo'stlik tarkibiga kirgan. Assotsatsiyaning kengayganligi uning butunligi, mustahkamligini buzdi- "eski" va "yangi" davlatlar o'rtasida aniq chegaralar hosil bo'ldi. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishda katta tafovut, "Qo'shilmaslik" harakatiga kirgan ko'p yangi

<sup>117</sup> Зимулина Л.А. Эволюция национальной государственности британских доминионов. Британская империя в XX веке; под ред. А.М. Пегушева, Е.Ю. Сергеева. М., 2010.72–80 б.

<sup>118</sup> Остапенко Г.С., Прокопов А.Ю. Новейшая история Великобритании: XX-начало XXI века. М., 2012. 310-стр.

davlatning ishtiroki, madaniy-svilizatsiyalardagi farq- bu sabablar assotsatsiyani ikki guruhga “g’arbiy” va “nog’arbiy” donyo davlatlariga bo’linishiga va Hamdo’stlikni binar tizimga aylanishiga olib keldi. Hamdo’stlikning binar me’morchiligi- bu o’tmishdagi imperiya sarqiti (Britaniya imperiyasining qaram hududlarini ierarxik jixatidan ikki guruhga bo’linishi saqlanib qolgan- “oq mustamlakalar” o’zining madaniy-svilizatsiyasi bilam metropiliga yaqin va “bosib olingan” , “oq bo’lman” mustamlakalarda “svilizator hukumronligi” qamrab olgan)<sup>119</sup>. Hamdo’stlikning binar tabiatи assotsatsiyaning rivojlanishiga to’sqinlik qiluvchi omil bo’lib qoldi. Industrial rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar birlashmasi o’zaro hamjixatlikda ish olib borishi qiyin. Binar tizim Hamdo’stlikning rivojlanishi va uning potensiallarini o’sishiga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Chunki uning a’zolarining madaniy birligi yo’q. Assotsatsiyaning binar qurulishi saqlanib qolinishi: rivojlanayotgan a’zo-davlatlari Osiyo va Afrika, Okeaniyaning kichik davlatlari va Karib havzasi davlatlarida ijtimoiy-iqtisodiy muommolarni yechishga yordam talab etilashi va bu yordamni ko’rsatayotgan “eski britan klubi” “yangi” Hamdo’stlikda o’zining siyosiy va iqtisodiy tasirini mustahkamlashga harakat qiladi. Shu sababli birlashmaning mavjudligi donor va resepient davlatlar o’rtasida foydali kelishuvni tashkil etadi. Assotsatsiyaning yashovchanligi aynan eski-donar davlatlarga bog’liq bo’lib-bu birlashmaning kalit-elementi(“eski” Hamdo’stlining to’rt davlati)dir. Bu guruh Assotsatsiyaning rivojlanishidagi asosiy mablag’ni kiritadi va uning institutlari ( Hamdo’stlik kotibiyati, Ham. Fondi, texnik rivojlanish bo’yicha Ham. Fondi va h.z.) faoliyat yuritishida asosiy sarmoyadorlari hisoblanadi. Agar Milliy Hamdo’stligi tashlkil qilingandan buyon tabiatи o’zgarmasdan kelayotgan bo’lsa, birlashmaning oldida turgan masalalari va vazifalarini, qiziqish doiralarini kengaytirish va o’zgartirishga to’g’ri keladi. “Sovuq urush” davrida kun tartibida dekolonizatsiya, irq tengligi uchu kurash, yangi iqtisodiy tartiblar, “Shimol-janub” qurulishi diologи, yadro qirolini tarqab ketmasligi va tinchlik zonani yaratish, kichik davlatlar qiziqishlarini

---

<sup>119</sup> Тролстухина Ф.Ю. Современная внешняя политика Великобритании в отношении Содружество наций. Диссертация, афтореферат. М., 2015. 19-20-стр.

himoya qilish, iqlim o'zgarishi va boshqa jarayonlar kuchaydi. Dunyoda yangi tartiblarning shakllanishi, bipolyar tizimning qulashi Hamdo'stlikning rivojlanishi uchun yangi impuls berdi. Bu tarixiy davrda London qulay imkoniyatdan foydalanib Hamdo'stlikning bor kuchini liberal-demokratik asoslarini mustahkamlashga sarfladi, ichki huquqini himoya qilishni, bozorlarni liberalizatsiya qilishni ta'kidladi. 1947-yil iyunda Hamdo'stlik ishlari vazirligi tashkil etildi(1969-yildan Hamdo'stlik tashqi ishlar vazirligi). Urushdan keyin Hamdo'stlik rivojalnishida bir necha bosqichlardan o'tdi. Birinchisi 1945-55-yillar, ikkinchisi 1955-70-yillarni o'z ichiga oladi. 60-yillar o'rtalariga kelib Britaniya mustamlakalrida yoshovchi 600 mln aholi siyosiy mustaqillikka erishdi, 19ta kichik hududlarda 5 mln aholi yashardi(shundan 4 mln Gankongda). 1966-yilda mustamlaka ishlari vazirligi tugatildi<sup>120</sup>.

Urushdan keyin xalqaro aloqalarda bipolyar tizimning tashkil bo'layotgan sharoitida AQSh kapitali yuqori o'rinni egalladi va Britaniyani kichik partniyoriga aylantirdi. "Yopiq Britan klubı" amerikaliklar uchun ochiq tizimga aylantirildi va rivojlangan Hamdo'stlik davlatlari Britaniya, Kanada, Avstraliya va Yangi Zellandiyalar bilan bir qator harbiy-siyosiy bitim tuzdi<sup>121</sup>. Hamdo'stlik o'z butunligini saqlab qoldi. London bilashmada markaziy o'rinni saqlab qolishga muofaq bo'ldi. Buning sababi Hamdo'stlik a'zo davlatlar uchun bufer zona sifatida xizmat qildi. Chunki, davlatlar Britaniya bilan birlashib Vashintonni o'z siyosatiga aralashishini chegaraladilar. Hamdo'stlikning markazi Britaniya edi. Bu amerikaliklarga qo'l keldi. Chunki metropoliya bor imkoniyatlari bilan Osiyo va Afrika mamlakatlariga kommunizmning kirib kelishiga qarshi harakat qildi. Britaniya AQShga g'arbiy g'oyalar va qadriyatlarni Hamdo'stlikning orqali Osiyo va Afrika davlatlariga o'kazishda yordam bersa, AQSh ham o'z navbatida Rossiya va Xitoy bu davlatlarga suqilib kirishiga to'sqinlik qiladi. Vashiton va London siyosiy-g'oyaviy jixatdan ittifoqdosh, ammo, iqtisodiy tamonlama to'g'ridan-

<sup>120</sup> Зимулина Л.А. Эволюция национальной государственности британских доминионов. Британская империя в XX веке; под ред. А.М. Пегушева, Е.Ю. Сергеева. М., 2010.72–80 б.

<sup>121</sup> Тролстухина Ф.Ю. Современная внешняя политика Великобритании в отношении Содружество наций. Диссертация, афтореферат. М., 2015. 15-17-стр.

to'g'ri raqiblardir. Hamdo'stlikka a'zo davlatlar iqtisodiy aloqalarida AQSh Britaniyani siqib chiqarib qo'yemoqda, shu yo'l bilan uni birlashmadagi rolini susaytirishga harakat qiladi. XX asrning 40-60-yillarida Britaniya birlashmada markaziy qismida bo'lgan. A'zo davlatlar siyosiy jixatdan suverenitet bo'lsada, iqtisodiy qaram edilar. Assotsatsiyaning ichki iqtisodiy muommolarini sterling, savdo aloqalari, investetsiya kiritish va turli yordamlar ko'rsatish yo'li bilan boshqarardi. Hamdo'stlikning yuqori organi davlat raxbarlari kofrensiyalari hisoblanadi. 1965-yilda Gana, Uganda, Tridinand va Tabogo harakati bilan Londonda Hamdo'stlik kotibiyati tashkil qilindi<sup>122</sup>. U a'zo davlatlar tamonidan saylanadi. 2008-yilda hind siyosatchisi Kamol Sharma saylandi. Bu mustaqilma'muriy tashkilot bo'lib, a'zo davlatlar uchrashuvini tashkil qilish, asosiy muommolarni muhokama qilish va hamkorlikni rivojlantirish masalarini ko'rib chiqadi. 1979-yilda rivojlanayotgan davlatlar texnik yordam ko'rsatish maqsadida Hamdo'stlikning Qo'shma Fondi tashkil etildi. Milliy Hamdo'stlik BMT dan keyin katta xaqoro tashkilot hisoblnadi<sup>123</sup>. Hamdo'stlikka 1995-yilda Portugaliya sobiq mustamlakasi Mozombik, 2009-yilda 28-noyabrda Ruanda a'zo bo'lib kirdi. Uning a'zolari soni 54 taga yetdi. Sharl de Goll ikki marta Fransiyani Hamdo'stlikka a'zo bo'lishini ko'tarib chiqdi. Lekin bu amalga oshmadi. D.B. Gurion Isroilni Hamdo'stlikka a'zo bo'lishi taklifi ham rad etildi. Bunga ko'pchilik isroilliklar qarshi chiqishi, hamda notinchligi a'zo davlatlar xavotiriga sabab bo'ldi<sup>124</sup>. Fidji va Zembabve demokratik prinsiplarning buzulishi tufayli Hamdo'stlikdan chiqarildi. A'zo davatlarning umumiyligi aholisi 1,8 mlrd dan ortiq bo'lib, yer yuzi aholisini 30% ini o'z ichiga oladi. Hududi yer yuzini 1/4 qismini tashkil qiladi. Hamdo'stlik o'z faoliyatini ikki asosiy yo'nalishda olib bormoqda: demokratik normalar va prinsiplarni taqatish va rivojlanishga o'zaro yordam berish<sup>125</sup>.

---

<sup>122</sup> Пономарев М.В. История стр.ан Европы и Америки в новейшее время. М., 2010. 312-стр.

<sup>123</sup> Остапенко Г.С., Прокопов А.Ю. Новейшая история Великобритании: XX-начало XXI века. М., 2012. 311-стр.

<sup>124</sup> Тролстухина Ф.Ю. Современная внешняя политика Великобритании в отношении Содружество наций. Диссертация, афтореферат. М., 2015. 19-21-стр.

<sup>125</sup> Остапенко Г.С., Прокопов А.Ю. Новейшая история Великобритании: XX-начало XXI века. М., 2012. 312-стр.

XX sarning ikkinchi yarmidan birlashmada anglosintrizmning kuchi kamaydi. 70-yillarda Britaniya Yevropa Umumiy bozororiga kirishi Hamdo'stlikni ahamiyatini kamaytirdi. Ammo, Hamdo'stliklik "Britan aksenti" va ierarxiyasidan qutila olmadi. Birinchidan, Britaniya Hamdo'stlik byujediga boshqa a'zolariga nisbatan sarmoya ko'p kiritadi. Ikkinchidan, hamkorlikdagi davlatlar orasida Britaniya ikki yoqlama yordam ko'rsatuvchi ledir bo'lib qolaverdi. Uchunchidan, a'zo davlatlarda Britaniya kapitali alohida o'rinni egallaydi. To'rtinchidan, Milliy Hamdo'stligi boshlig'i va ramzi Britaniya monarxidir. Beshinchidan, Hamdo'stlik doirasida diplomatik funksiyalar yuqori komissarlar tamonidan amalga oshiriladi. Oltinchidan, ingliz tili Hamdo'stlik uchrashuvlarida asosiy til va boshqa a'zolarida ham davlat yoki ikkinchi til (Mozombikdan tashqari) hisoblanadi.

1945-1960-yillar o'rtalarigacha Hamdo'stlikda o'zining virtikal aloqalari bilan Britaniya AQSh va SSSR davlatlari qatorida dunyoda uchunchi kuch sifatida ko'tarilgan. 1965-yilda Hamdo'stlikda mustaqil boshqaruva tashkiloti tuzilgandan keyin xaqoro tashkilotga aylandi. Britaniyaning iqtisodiy va moliyaviy ahvoli yamonlashdi. Britaniya Hamdo'stlikda ikkinchi darajali pozitsiyani egalladi va asosan, "Uchunchi dunyo" davlatlari bilan birlashmada rivojlantirish va mustahkamlash asbobiga aylandi. London kelajakda Hamdo'stlikni kuchli savdo tashkilotiga aylantirish maqsadini qo'ydi. Hozirgi kunda Hamdo'stlik a'zolari o'rtasida savdo aylanmasi yuqori darajada ko'tarilishida Britaniyalik tadqiqotchilar "Hamdo'stlik faktorini" (tarixiy birlik, til yaqinligi, yuridik o'xhashlik, moliyaviy yaqinlik) ilgari surdi, bu g'oya investetsion oqimning, savdo va beznesning katalizatori bo'lib xizmat qiladi. Britaniya Hamdo'stlikda demokratiya va inson huquqlarini himoya qiluvchi tashkilot tuzilishi va uni faoliyat ko'rsatishi uchun katta mablag' ajratmoqda. Hamdo'stlikda Kotibiyatda islohar o'tkazilishi va a'zo davlatlarda inson huquqlari va demokratiyani nazorat qiluvchi maxsus Kamissarlik tuzilishini tasdiqlaydi<sup>126</sup>. Gambiyaning 2013-yilda Hamdo'stlikdan chiqib ketishi va a'zo davlatlarning qiziqishining susayishi (bu 2013-yilda Shri-Lankada bo'lган

---

<sup>126</sup> Корнеева Е.В. Ключевые аспекты гендерной политики Содружества Наций в конце XX- начале XX веков. М., Гуманитарни питання. № 8(11), 2015. 3-5-стр.

Hamdo'stlik sammiti yaqqol ko'rindi)-bu "eski" va "yangi" a'zolar kelishmovchilari natijasidir.

Hamdo'stlikning tarqalib katushidan saqlovchi omillar: a'zo davlatlar assotsatsiyani Britaniya bilan ikki tarflama aloqlarni ushlab turuvchi davlat sifatida foydalanadilar- Britaniya kuchli G'arb davlatlari ichida yagona a'zo. Birlashma qatnashchilari Britaniya sarmoyasi, moliyaviy, harbiy va boshqa yordamlari ko'rsatishi tarafдорларидир. Assotsatsiya Osiyo, Afrika, Okeaniya, Karib havzasi davlatlarini iqtisodiy, texnologik, gumanitar va boshqa soxalarda o'zaro hamkorlik qilish imkonini beradi. Bu esa Hamdo'stlikning rasmiy va norasmiy tashkilotlari orqali amalga oshiriladi. Hamdo'stlik bu donor va recipient a'zolar o'rtasida bo'ladigan aloqalar maydonchasidir. Hamdo'stlikning yillik byudjeti 50 mln funt sterlingni tashkil qiladi va bunda rivojlanayotgan davlatlar bilashmada katta sarf harajat qilmaydidi. Uni asosan donor davlatlar moliyalashtiradi. Hamdostlik ayrim boshqa xalqoro tashkilotlar bilan moliyaviy sohada berlasha olmaydi. Hamdo'stlik doirasida o'takaziladigan davlat raxbarlari va vazirlari o'rtasida o'takaziladigan uchrashuvlar, hukumatlar o'rtasida muhim aloqalarni o'rnatishga yordam beradi. Barcha yirik xalqoro uchrashuvlarda Hamdo'stlik kotibiyati rivojlanayotgan a'zo davlatlar manfaatlarini qudagilarga qaratadi: soliq tizimi, kambag'l davlatlar qarzlaridan kechish va b.q. Hamdo'stlik komissiyasi Granti orqali iste'dodli fuqorolarga Qo'shma qirollikda o'qish va ishlash imkonini beriladi. Hamdo'stlik yagona xalqoro davlat tashkilotidir. Kichik davlatlar va lider davlatlar to'g'ridan-to'g'ri muloqat qilishiga imkon beradi. Kanada, Avstraliya va Yangi Zellandiya uchun o'z dasturi va global tashqi iqtisodiy faoliyatini muhokama qilish xalqoro maydanchasidir. Hamdo'stlik yordamida Kanada iqtisodiy va harbiy jixatdan AQSh ga qaramligini oldini oladi va tenglashtiradi. Avstraliya va yangi Zellandiya uchun Hamdo'stlik Janubiy-Sharqiy Osiyo va Okeaniyada o'zlarning ta'sirlarini kuchaytirishda diplomatik resurs rolini bajaradi<sup>127</sup>.

---

<sup>127</sup> Тролстухина Ф.Ю. Современная внешняя политика Великобритании в отношении Содружество наций. Диссертация, афтореферат. М., 2015. 23-стр.

Britan monarxining assotsatsiyadagi roli dekolonizatsiya va Afrika qit'asining irqchilikdan ozod bo'lgan vaqtida yaqqol namoyon bo'ldi. Britaniya bilan a'zo davlatlar o'rtasida munosabatlarni yumshatish va Hamdo'stlikda hamjixatlikni saqlab qolishda qirolichaning faol diplomatik o'rni va neytral statusga egaligi bilan bo'gliq. Ammo, hozirgi sharoitda assotsatsiyaning asosiy vazifalari- demokratiya, inson huquqlaroini himoya qilish bo'lib, qirolicha avvalgi entegral rolni o'ynamay qo'ydi va siytosatda ishtirok etmay qo'ydi. Qirolicha Londonni to'liq qo'lla-quvvatlaydi. Hamdo'stlikdagi davlatlaridan 16 tasining boshlig'i hozirda ham rasman qirolicha hisoblanadi. Britan monarxi tufayli faoliyat ko'rsatayapti va qirolicha assotsatsiyani boshqarishdan ketgandan keyin birlashma parchalanib ketadi, chunki ko'pchilik a'zo davlatlarning qiziqishi yo'qoladi. Ammo, hozirgi sharoitda ayrim a'zo davlatlar qirolicha assotsatsiyani imperiya o'tmish qoldiqlari bilan vujudga keltirishi mumkin deb qarashlar ham mavjud. Shunga qaramay qirolicha uyushmada yorqin va taniqli element bo'lib qolmoqda. Qirolicha Hamdo'stlik hayotida alohida information sabablar vujudga keltiradi va turli xil qiziqarli tadbirlar, marosimlar uyushtiradi. Hamdo'stlik ramzi va boshi sifatida Britaniya monarxidan kechish, qirol ommasi obro'yiga putur yetkazadi va assotsatsiyada Britan rolini kamaytiradi. Britaniya o'z navbatida monarx qo'llashi imkonidan maxrum bo'ladi<sup>128</sup>.

Hamdo'stlik tajribasini Rossiya MDH siyosatida qo'llash. Hamdo'stlik tajribada ko'rsatganidek xaqoro tajribada kuchlarni birlashtirishda birinchi o'rinda tizim hosil qiluvchi element (kalit o'yinchi) kerak va u gravitatsion maydon bo'lib o'ziga boshqa ishtirokchilarni jalb qiladi. Gravitatsion maydon kuchi birlashma doirasida faqat geosiyosiy joylashuvi va demografiyasigina emas, balki kuchli iqtisodi, siyosati, o'ziga jalb qiluvchi madaniyati, beznes muhiti, tashqi siyosiy masalalarni yechishdagi yondashuvi, birlashma davlatlarga modiy va psixologik yordam berish birlashtiradi. Bundan tashqari, yana bir asosy faktor "o'ziga jalb qilish" information maydonda o'z g'oyasini ilgari surish va birlashma

---

<sup>128</sup> Остапенко Г.С., Прокопов А.Ю. Новейшая история Великобритании: ХХ-начало XXI века. М., 2012. 313-б

ishtirokchilariga “yumshoq” ta’sir o’tkazishi zarur. Bu ma’noda Rossiya uchun ta’sir ko’rsatish va posthamkorlikni rivojlantirishda telekomunikatsiya tarmoqlaridan mukammal foydalanish talab etiladi. O’tmishdagi umumiylar tarixiy birlikdan foydalanish integratsion maydonni shakllantirishga yordam bermaydi, chunki tarixga doimiy murojat “kichik” millatlar ongida o’tmishdagi qaramliikni, “mustamkalar” uyushmasi sifatida anglashga majbur qiladi. Millat bilan “og’ainichilik aloqalarni” solishtirish yoki birlashmani oila bilan solishtirish katta xato hisoblanadi. O’zaro aloqalar rivoji umumtarix o’tmish bazasiga emas, balki o’zaro foya va mafaatlar asosida qurulishi kerak. Shunday qilib qarshi g’oya asosida quidagi formula- birlashmada birdamlik, har bir a’zosining individual rivojlanishi va o’zaro aloqalar siyosiy tenglik va erkinlik asosida qurulishi kerak<sup>129</sup>.

Hamdo’stlik tarixi davomida moslashuvi sababli xalqoro muxit o’zgarishlarida o’zini saqlab qoldi. Hamdo’stlik jaxon arenasida o’z mavqeyini oshirish uchun kechirayotgan qiyinchiliklari o’tkinchiligiga shubha yo’q. Hamdo’stlik faqat oddiy forum emas, har ikki yilda bir marta umumjaxon muommolari muhokama etiladi, birlashmani va a’zo davlatlarni rivojlanishi masalalari ko’rib chiqiladi. Hamdo’stlik globallashgan dunyoda tarmoq strukturasi sifatida davlatlar, fuqorolik jamiyati va beznesda aktualligini oshiradi. Shu sababli mohiyatini saqlab qoladi va xalqoro maydonda o’z o’rnini saqlab qoladi. Bundan tashqari donor va reseptient davlatlar o’zaro qiziqishi kelajakda saqlanib qoladi. Hamdo’stlik XXI asrda rivojlanish potensial imkoniyatiga ega<sup>130</sup>.

---

<sup>129</sup> Рейнольдс Д. Внешняя политика Британии и “упадок” Британии в двадцатом веке. Россия и Британия. В мире английской истории; под ред. В. Г. Трухановского. М., 1997. 54–60 б.

<sup>130</sup> Тролстухина Ф.Ю. Современная внешняя политика Великобритании в отношении Содружество наций. Диссертация, афтореферат. М., 2015. 19-21-стр.

### **3.2. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar munosabatlari.**

Ikkinci jahon urushidan keyingi davrda SSSR va AQSH timsolida yangi buyuk davlatlar roli va ahamiyatining ortishi o‘z navbatida Evropa davlatlari rolining pasayishiga olib keldi. Urushning nihoyalashi, afsuski, uzoq kutilgan tinchlikni ta’minlab bera olmadi, bu bosqich endilikda tarixiy adabiyotlarda va siyosatchilar chiqishlarida “sovuk urush” nomini oldi. “Sovuq urush” sharoitida dunyoning qudratli davlatlari sifatida e’tirof etilgan Sovet Ittifoqi hamda AQSH ayrim masalalarda o‘zlarining pozitsiyalarini zo‘r berib himoya qilgan holda uni boshqa davlatlar tashqi va ichki siyosati tamoyillari bilan chambarchas bog‘lashga harakat qildilar. Jumladan, kolonial siyosat borasida har ikkala davlat ham o‘z qarashlaridan kelib chiqib bu siyosatni yoqlamasdilar. Jumladan, Sovet Ittifoqi koloniyalardagi ozodlik harakatlarini qo‘llab-quvvatlar ekan, bu mamlakatlarda etakchi rolning communistlarga berilishini, qo‘lga kiritilajak ozodlik ortida kommunistik mafkura turishini istardi. O‘z navbatida, AQSH kolonial siyosatga barham berilishi ayrim Evropa davlatlari iqtisodiy qudratiga putur etkazadi, deb hisoblardi. Biroq “sovuk urush” sharoitida AQSh Evropadagi ittifoqchilarini qo‘llab-quvvatlamasa bo‘lmasdidi. Bundan tashqari, AQSH SSSR ko‘magi va madadiga tayanib ozodlik kurashini olib borayotgan davlatlarga nisbatan o‘zining salbiy munosabatini namoyon etib keldi. Shunday bo‘lsada, AQSH urushdan keyingi davrda kolonial imperiyalarning qayta tiklanishiga tish-tirnog‘i bilan qarshi edi<sup>131</sup>. Uchinchi dunyo” mamlakatlarida mustamlakachilik tizimidan keyingi rivojlanish boshlandi. G‘arb mamlakatlari yaqinda ozodlikka erishgan mamalakatlardagi ekspulatatsiya usullarini niqoblashga urindi. Neokolonializmning turli shakllari yuzaga keldi. Ularning orasidagi muhimi rivojlangan mamlakatlarning yetakchi monopoliyalari tomonidan dunyo bozoridagi hukmronlik edi. “Uchinchi dunyo ”ni o‘zlari uchun foydali deb hisoblashdi. Kerakli tovarlarni ishlab chiqarish ularni tasarruf etishda ustunlik qildi. Uchinchi dunyoning qaram davlatlari G‘arb davlatlarining tasarruf joyi edi. Sobiq

---

<sup>131</sup> Кредер А.А. Новейшая история зарубежных стран. 1914-1997//Интернет ресурс.

metropoliyalar ozod etilgan mamlakatlar hududlarida korxonalar qurishdi. Sobiq mustamlakalar hom-ashyo tasarruf joyi, bozor vazifasini bajardi. Dekolonizatsiya o‘zi bilan urushni etaklab keldi. Shu tarzda o‘tgan asrning 50-yillari oxiri va 70-yillarni qamrab olgan kolonial siyosatga qarshi kurashlarning milliy-ozodlik harakatilari muvaffaqiyatli yakun topishi dunyo siyosiy xaritasida yuzdan ortiq yangi davlatlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Koloniyal tizim inqirozi jahon siyosatida jiddiy o‘zgarish yasadi. Yuzdan ortiq yangidan tashkil topgan davlatlar o‘z tarixiy taraqqiyot yo‘li va milliy manfaatlarini, o‘z geosiyosati, davlat tuzilmasini o‘zлari belgilash imkoniga ega bo‘ldilar. Barcha yangidan tashkil topgan davlatlar o‘z haq-huquqlarini himoya qilish uchun xalqaro tashkilotlar va harakatlarga a’zo bo‘ldilar. Afsuski, ilk kunlardayoq mustaqil taraqqiyot yo‘liga qadam qo‘yan davlatlarning ayrimlarida jiddiy etnik, siyosiy ziddiyatlar ham yuzaga keldiki, bu jahonda tinchlikni saqlash, millatlar va xalqlarning yangidan asoratga solinishidan asrash va milliy ozchilik manfaatlarini himoya qilish maqsadida xalqaro yig‘inlar chaqirish, shunday tashkilotlarga murojaat qilish bilan belgilandi. Bunda ayrim yetakchi siyosiy kuchlar manfaatlari ham yashirin ekanligi sir emas. Jumladan, “Uchinchi dunyo” mamlakatlariga ta’sir etish uchun nafaqat sobiq metropoliya mamlakatlar, balki boshqa davlatlar ham, ya’ni yuqori derjavalar harakat qildi. “Uchinchi dunyo” mamlakatlarida AQShning faolligi yanada oshdi. SSSR ham Misr, Gveniya, Efiopiya, Somali, Mozambik va Angolani o‘z nazorati ostiga olishga harakat qildi. Ko’plab mamlakatlarda kommunistik yo’sindagi rejimni o’rnatishga muvaffaq bo’ldi. Ta’kidlash joizki, SSSR o‘z kuchiga real baho bermasdan, siyosatini olib borgan. Sovet Ittifoqi rahbariyati ta’kidlaydiki, milliy-ozodlik harakati ayniqsa, Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlarida kuchli bo’lgan. SSSR tezda dunyoviy sotsialistik inqilob g’alaba qilishiga ishongan.

Ushbu vaqtda ko’pchilik ozod etilgan mamlakatlarda ishlabchigarish kuchlari past darajada edi. Iqtisodiyoti agrar ahamiyat kasb etgan. Ko’pchiligi iqtisodiyotda radikal qayta o‘zgarishlarni amalga oshira olmadi. Shaxdam rivojlanib borayotgan kapitalistik dunyo mamlakatlariga yaqinlashmagan va BMT statistik rubrikasida

“kam rivojlangan mamlakatlar” nomini olgan. Sobiq mustamlakalarning rivojlangan davlatlardan orqada qolishining umumiy kartasi saqlanib qoldi. Ulardagi ishlab chiqarishning aholi jon boshiga to’g’ri kelishi proporsiyasi ham aksincha edi. Bu hozirgi kunda ham saqlanib qolmoqda. 60-yillar boshida rivojlangan mamlakatlar sanoat ishlabchiqarishi 88,5 % bo’lsa, “Uchinchi dunyo”da 11 % edi. Oxirgi yillarda bu farq qisqarsa-da, uncha sezilarli emas. Bu farq yanada oshib borayotganligi ham kuzatilmoqda. Bu hol tasodifiy emas. “Uchinchi dunyo” mamlakatlaridagi iqtisodiy rivojlanishning to’xtab qolishi, G’arb davlatlari oldidagi qarzini oshirib yubordi. Natijada moliyaviy qaramlik kuchayib, quyi darajaga tushishiga olib kelmoqda. Moliyaviy qarzdorligi doimiy oshmoqda. 70-yillar bu qarz – 45,5 mlrd dollar bo’lsa, yangi asr boshida 2 trln dollarni tashkil etdi. 90-yillar qarz to’lovi evaziga 60 % eksportni tasarruf qildi.

Sayyoramizning siyosiy tabiatini ham tubdan o’zgartirib yubordi. Bu yangidan tashkil topgan davlatlar dunyo siyosatining muhim omili sifatida o’zlarini namoyon qilish harakatini boshladilar. O’z navbatida bu holat Yevropa davlatlarining ta’siri va obro’siga jiddiy ta’sir ko’rsatmasdan qolmadi. O’z rivojlanish dasturlarida biron-bir buyuk davlat namunasida taraqqiy etish istagidan voz kechgan bu mamlakatlar o’z oldilariga birinchi galda qoloqlikni bartaraf etish maqsadini ro‘yobga chiqarish zarurligini tushunib yetdilar. Chunki ular nazdida biror davlatga taqlidan rivojlanish global inqirozga olib kelishi va mamlakatni qoloqlik botqog‘idan chiqara olmasligi mumkin edi. Shu boisdan tarixiy-siyosiy adabiyotlarda “uchinchi dunyo” mamlakatlari<sup>132</sup> sifatida ta’riflanadigan davlatlar o’z haq-huquqlarini himoya qilish maqsadida Qo’shilmaslik harakatiga kirishni lozim topdilar<sup>133</sup>. Mamlakat mustaqillikni qo’lga kiritgandan so‘ng, Hindiston bosh vaziri Javoharla’l Neru xalqaro miqyosdagi qo’shilmaslik siyosati va harakatining ilk yaratuvchilaridan biri bo’ldi. Hozir bu harakat zamonamizning xalqaro munosabatlaridagi muhim omilga aylanib, unda Evropa, Osiyo, Afrika va Lotin

<sup>132</sup> Тадқиқотчилар фикрича, “учинчи дунё” мamlakatlari sirasiga ЯИМ аҳоли жон бошига 5000 АҚШ доллари ва ундан камини ташкил этувчи Форс кўлтифи, Лотин Америкаси, МДҲ ва Осиёning бошқа давлатлари киради//Запад и неоколониализм. Интернет ресурс.

<sup>133</sup> Кредер А.А. Новейшая история зарубежных стран. 1914-1997//Интернет ресурс.

Amerikasidagi 120 dan ortiq mamlakat faol qatnashmoqda<sup>134</sup>. 1983 yil martda Dehlidagi anjumanda qo'shilmagan davlatlar va mamlakatlar hukumat boshliqlarining Indira Gandini bu harakat raisi sifatida saylashi Hindiston Respublikasining qo'shilmaslik harakatidagi ulkan va xayrli rolini e'tirof etish bo'ldi, deyish mumkin<sup>135</sup>. Bugungi globallashuv jarayonlarida dunyo geosiyosatiga "qo'shilmaslik harakati" nomi bilan kirgan ustuvor yo'naliш xalqaro munosabatlarning taraqqiyot mahsuli bo'ldi, deyish mumkin. Uning paydo bo'lishida ikki omil muhim ahamiyat kasb etdi, bular: dunyoning ikki qarama-qarshi ijtimoiy-iqtisodiy tizimdagи davlatlarga ajralishi hamda xalqaro munosabatlarda mustaqil rol o'ynayotgan yuzga yaqin davlatlarning paydo bo'lishi edi. Shu bilan birga "qo'shilmaslik harakati"ning tashkil topishida bu ikki omil bilan bir qatorda tashqi siyosiy omillar ham yetakchi rol o'ynadi.

Shunday bir vaziyatda dastlab, qo'shilmaslik konsepsiysi, so'ngra qo'shilmaslik kursi va nihoyat, qo'shilmaslik tashqi siyosiy tamoyili vujudga keldi. Ushbu harakat tamoyillarini ishlab chiqishda va ularni amalga tadbiq etishda Hindiston Bosh vaziri Javoharla'l Neru, Misr Arab Respublikasi Prezidenti Jamol Abdul Nosir, Yugoslaviya Prezidenti Iosip Broz Tito ulkan hissa qo'shganlar. Ushbu harakatning eng muhim tamoyillari Osiyo va Afrika mamlakatlarining Bandung (Indoneziya, 1955 yil, aprel) konferensiyasida ta'rif etilgandi<sup>136</sup>. Bular - davlatlar hududlarining butunligi, suveren tinchlik, suverenitetga xos huquqlarni hurmat qilish, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid etmaslik, chegaralar daxlsizligi, davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish, tinchlik va xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash

---

<sup>134</sup> Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 6-том. Давлат илмий нашриёти. Т., 2003, 323-б.

<sup>135</sup> Фиёсов Т.Ф. Қўшилмаслик харакати - тинчлик ва халқаро хавфсизлик омили. - Т., "Ўзбекистон", 1984. 31б.

<sup>136</sup> 1949-йилда Хиндистон ва Хитой ўртасида Тибет масаласида юзага келган қарама-қаршилик 1954-йилга келиб ўзининг ижобий ечимини топган эди. Шунга кўра, Хиндистон Тибетнинг Хитойнинг бир қисми эканлигини тан олди. Ушбу шартномада "панча шила"- "тинчликни таъминлашнинг 5 тамоили" эълон қилинган ва бу ўз навбатида Бандунг конференциясида ҳам асосий қоида сифатида эътироф этилган эди.

huquqi, davlatlar o‘rtasida tenglik va o‘zaro hamkorlik, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, xalqaro huquq majburiyatlarini vijdonan bajarishdan iborat<sup>137</sup>.

Qo‘shilmaslik harakati siyosati va falsafasining yaratuvchilaridan biri bo‘lgan J.Neru xalqlarning moddiy farovonligini faqat tinchlik sharoitida bunyodga keltirish mumkin, deb bir necha bor uqtirgan edi<sup>138</sup>. Tinchlik - bu faqat urushdan xoli bo‘lish emas, balki davlatlarning o‘zaro hamkorligi hamdir. Hindiston va shu kabi davlatlar xalqaro miqyosda muhim rol o‘ynash uchun hech qanday harbiy blokka qo‘shilmasligi kerak, degan edi u<sup>139</sup>. - Biz qo‘shilishni istagan yakkayu-yagona blok - tinchlik blogi hisoblanib, unda iloji boricha ko‘proq davlat ishtirok etishi lozim.

Qo‘shilmaslik siyosatining asosi va mazmunini birinchi marta J.Neru 1947-yil 4-dekabrdagi Hindiston ta’sis majlisida ta’riflagan edi. "Bizning davrimizda, - degan edi u, -tashqi siyosatning mohiyati bitta umumiy savolga borib taqaladi: "Kim qaysi guruhgaga mansub?". Bu albatta, masalani nihoyatda soddalashtirib ko‘rsatishdir... . Biz esa, tashqi siyosatda o‘zimizni birorta tomon bilan bog‘lab qo‘ymaslikka intildik va har bir xalqaro masalani mohiyatan o‘z shaxsiy fikrimiz bilan hal etishga tirishamiz.

Haqiqatdan ham, qo‘shilmaslik siyosati tashqi siyosat muammolarini echishda umumiy tinchlik va xavfsizlikni ta’milagan holda ko‘zlangan maqsadga etishda bloklarga qo‘shilmay mustaqil ravishda harakat qilishdan iborat.

Qo‘shilmagan davlatlarning Lusakada qabul qilingan deklaratsiyasida (1970 yil sentyabr) qo‘shilmaslik siyosati mustaqil mamlakatlarning milliy suvereniteti va xalqlarning qonuniy huquqlarini himoya qilish natijasida paydo bo‘lganligi ko‘rsatilgan. 1947 yildayoq Hindiston hukumati rahbari "Men yaqin orada, aytaylik 2-3 yildan so‘ng dunyo qo‘shilmaslik pozitsiyasini ma’qul ko‘rishiiga ishonaman va hozirda kuchsiz bo‘lgan talaygina kichik davlatlar bu masalada

<sup>137</sup> Бу ҳақда қаранг: История международных отношений. В трех томах. Том 3. Ялтинско-Потсдамская система. Под. ред. А.В.Торкунова.,М.М.Наринского. М., «Аспект-пресс», 2012, 113-стр.

<sup>138</sup> Хидаятов Г.Ф. Дипломатия XX века. М., 2010., С.693.

<sup>139</sup> Насенко Ю. Джавахарлал Неру и внешняя политика Индии. М., 1975. Неру Ж. Внешняя политика Индии, 1946-1964. М., 1965, 58-стр.

ehtimol, Hindistondan o‘rnak olsalar kerak", -degandi. "Sovuq urush" sharoitida kichik yoki endigina ozodlikka chiqqan davlatlar uchun muammoli vaziyatlarning tug‘ilishi oson edi. Birgina Hindiston misolida ko‘rib o‘tadigan bo‘lsak, Hindistonning qo‘snilari bo‘lmish Xitoy va Pokiston o‘rtasidagi aloqalarni yaxshilash borasida Javoharla’l Neruning omadi kelmadi. 1948 yilgi voqealardan so‘ng Pokiston bilan Hindiston aloqasi yomonligicha qoldi. Kashmir masalasi Hindiston bilan Pokiston o‘rtasidagi muammoli hudud bo‘lib qolmoqda. Bu ikki mamlakat o‘rtasidagi kelishmovchilik hozirgi kungacha davom etib kelyapti.

O‘tgan asrning 50-yillaridan e’tiboran buyuk davlatlarning rivojlanayotgan mamlakatlarni harbiy bloklarga tortishga bo‘lgan urinislari, ayrim shunday mamlakatlarda qo‘g‘irchoq hukumatni qaror toptirishga intilishlari, davlatlarni bir-biriga qarshi gijgijlash va ular o‘rtasida ziddiyatni paydo qilish, inqilobiy to‘ntarishlar yasashga urinishi kuzatiladi. Bu davrda AQSH ning bevosita ishtirokida 1953-yilda Eronda Mosaddiq hukumati ag‘darildi, Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari tashkiloti shartnomasi (SEATO)ning iqtisodiy birikmasiga harbiy tus berishga va shu yo‘l bilan Hindixitoydagi Laos, Vietnam, Kampuchiya singari rivojlanishning sotsialistik yo‘lini tanlagan mamlakatlarga qarshi qo‘yishga urindi. Afrikada yangidan tashkil topgan mamlakatlar ichki ishlariga garchi sobiq metropoliyalarga tegishli bo‘lmasada, ammo ular orqali vositachilik qiluvchi monopoliyalar va transmilliy korporatsiyalar (TMK)ning aralashuvi kuzatildi. Raqamlarga murojaat etadigan bo‘lsak, rivojlanayotgan davlatlar tomonidan etkazib berilayotgan xom-ashyoning 70 % i TMK kanallari orqali chiqariladi<sup>140</sup>. Hali 80-yillar o‘rtalaridayoq G‘arb mamlakatlarining bu davlatlarga kiritgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri sarmoyasi taxminan 142 million AQSH dollarida baholangan edi<sup>141</sup>. Bu va boshqa misollar yaqin o‘tmishda mazkur mintaqalarda kolonial siyosat yuritib, uning ortidan davlat xazinasini boyitgan mamlakatlarning 1957 yilda mustaqil Gana Respublikasi davlat rahbari etib saylangan Kvame Nkruma

---

<sup>140</sup> Неоколониализм: сущность, формы, методы. Институт мировой экономики и международных отношений. Отв.ред Волков М.Я. М., Наука, 1987. - С.18.

<sup>141</sup> Ўша жойда.

ta'biri bilan aytganda, “neokolonializm”<sup>142</sup> ko'rinishi edi. SHu boisdan rivojlanishning yangi pog'onalariga qadam qo'ygan davlatlar bu kabi iqtisodiy, harbiy va ijtimoiy tazyiqlar va “bo'ysundirishning yangi ko'rinishlari”ga “qo'shilmaslik siyosati” orqali javob berishni ma'qul ko'rdilar.

Uzoq davr mobaynida qo'shilmaslik siyosati mustaqillikni qo'lga kiritgan davlatlarning ulkan umumdemokratik xalqaro birlashmasiga aylandi. Agar qo'shilmagan davlatlarning 1961-yil sentyabrda Belgradda bo'lgan I konferensiyasida 25 mamlakat vakillari ishtirok etgan bo'lsa, 1983 yilda Dehlida bo'lib o'tgan VII konferensiyasida 101 mamlakatdan delegatsiyalar ishtirok etdi. Bu albatta, qo'shilmaslik harakati xalqaro siyosatning muhim faktoriga aylanib, dunyo voqealari taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatganligining dalilidir.

1947 yilda qo'shilmagan mamlakat faqat Hindiston hisoblangan bo'lsa, bu harakat tobora kengayib, mustahkamlanib, Evropa, Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlariga yoyildi va 20 asr so'ngida qo'shilmaslik harakati bir yarim milliard aholiga ega 120 dan ortiq mamlakatni qamrab oldi, son jihatdan BMTdan keyin ikkinchi o'ringa chiqdi. Yana shu narsa diqqatga sazovorki, 1947 yildan buyon birorta mamlakat bu harakatdan chiqish haqida arz qilgani yo'q. Birgina farqi, 1955-yildagi Bandung konferensiyasidan so'ng bir qator mazkur harakatga kirgan davlatlar tashqi siyosatida ushbu nomga mos bo'lmanan holatlar kuzatildi. Jumladan, Turkiya NATO, Filippin, Tailand, Pokiston SEATO, Iraq “O'rta Sharq mudofaa tashkiloti” nomini olgan Bog'dod pakti tarkibida qoldi. SEATO va Bog'dod paktiga birdek a'zo bo'lgan Pokiston shu yo'l bilan Sovet Ittifoqi, milliy-ozodlik harakatlari hamda Afrika-Osiyo birdamligiga qarshi bo'lgan bloklar zanjirini birlashtirdi. Shunday bo'lsada, mazkur harakat yil sayin keng quloch yoyib, 60-yillar boshida o'z safida 20 ga yaqin davlatni jamlagan edi<sup>143</sup>. Qo'shilmaslik harakatida ishtirok etayotgan davlatlar jahondagi barcha ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy tuzilmalarni o'z ichiga oldi. Bu harakatda monarxiyadan tortib, bozor munosabatlarida erkin harakatlanayotgan davlatlar ishtirokini ko'rish

<sup>142</sup> Сущность и методы современного неоколониализма, и проблемы развития стран «третьего мира»//Интернет ресурс.

<sup>143</sup> Хидаев Г.Ф. Дипломатия XX века. М., 2010., С.697.

mumkin. Qo'shilmaslik harakatidagi mamlakatlar o'tmishda chet el zulmidan jafo chekib, yaqin yillarda mustaqillikni qo'lga kiritgan davlatlardan tashkil topgani bois 20 asr so'nggida bloklarga qo'shilmaslik g'oyasi Osiyo va Afrikadagi talaygina mamlakatlar tashqi siyosiy faoliyatiga asos qilib olindi. O'z navbatida "sovuj urush" sharoitida harakat g'oyalari Sovetlar mafkurasiga mos kelganligini asos qilib olgan SSSR undan AQSHga qarshi kurashda foydalandi<sup>144</sup>.

Harbiy bloklarda qatnashmaslik, tinch-totuv yashash, teng huquq asosida iqtisodiy xamkorlik qilish - ana shu mamlakatlar qo'shilmaslik siyosatining asosiy tamoyillaridir. Mazkur mamlakatlarning rahbarlari bunday siyosatning betaraflik siyosati bilan hech qanday aloqasi yo'qligini bildirganlar. J.Neru tomonidan aytilgan "Ozodlik yoki adolat xavf-xatar ostida qolgan joyda yoki agressiya vujudga kelgan taqdirda biz neytral bo'la olmaymiz va bo'lmaymiz ham" iborasi qo'shilmaslik harakatining negizini tashkil etib, uning shioriga aylangan.

Qo'shilmaslik siyosatining ijobiy tomoni shundaki, u o'z mohiyati bilan aksilmustamlakachilik mazmuniga ega bo'lib, irqchilikka qarshi maqomda turadi. Qo'shilmagan davlatlarning Belgraddagi I konferensiyasida (1961 yil sentyabr) so'zlagan ma'ruzasida J.Neru: "Qo'shilmaslik iborasini har - xil tushunish mumkin, ammo u asosan "buyuk davlatlarning harbiy bloklariga qo'shilmaslik" ma'nosini anglatadi. Bu so'z harbiy maqsadlarda tuzilgan harbiy bloklarga, harbiy ittifoqlarga kirmaslik, degan ma'noni bildiradi. Shuning uchun biz bunday guruhlardan chetda turamiz va ozmi-ko'pmi o'z obro' - e'tiborimizni tinchlik manfaatlariga bo'ysundirishni istaymiz", -degan edi<sup>145</sup>.

AQSHning Vietnamga boshlagan agressiyasi qo'shilmaslik harakatining kuchayishiga, umumjahon-tarixiy ahamiyat kasb etishiga hamda aksilamerika kayfiyati va siyosatining ko'plab davlatlar va tashkilotlar xalqaro siyosatida etakchi o'ringa ko'tarilishiga sabab bo'ldi.

1970-yilda Lusakada bo'lib o'tgan navbatdagi uchrashuvda ilk marotab "qo'shilmaslik harakati" iborasi qo'llanildi. Ushbu nomning ommalashuviga o'z

---

<sup>144</sup> Хидаитов Г.Ф. Дипломатия XX века. М., 2010., С.699.  
Неру Ж . уша асар, -Б. 267.

navbatida 1963-yilda tashkil etilgan Afrika Birdamligi harakati (ABH) asos bo‘lib xizmat qildi. O‘zining zamонавиу ташқи сиёсиy muammolarni bartaraf etish istagida davlatlarni birlashtirishga muvaffaq bo‘lgan harakat 1983 yilga kelib o‘z safida yana ikkita yirik tashkilot- Falastin Ozodlik Tashkiloti (FOT) va Janubi-Sharqiy Afrika Xalq Tashkiloti (JSHAXT)ni jamlagan edi. Bundan tashqari, 5ta xalqaro tashkilot harakatda kuzatuvchi maqomiga ega edi, shuningdek 10 ta davlat vakillari va 16 ta xalqaro tashkilot harakat forumlarida kuzatuvchi sifatida ishtirot etardi<sup>146</sup>.

1983 yil martida Hindiston poytaxti Dehlida qo‘silmagan mamlakatlarning VII konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Dehli anjumani xalqaro vaziyat nihoyatda chigallashgan, imperialistik davlatlarning qo‘silmagan mamlakatlar ichki ishlariga aralashuvi avjiga chickan, bu harakat qatnashchilarining ichida ayrim mamlakatlar shu harakat tamoyillariga rahna solgan (masalan, Pokiston tashqi siyosatda militarizmga yuz tutib, AQSH bilan harbiy shartnomaga tuzgan) bir sharoitda o‘tdi. Kuba davlat kengashi va Vazirlar Mahkamasi raisi F. Castro VII konferensianing ochilish marosimida so‘zlagan nutqida Washingtonning militaristik kursini, uning xalqaro keskinlikni kuchaytirishga qaratilgan siyosatini qattik qoraladi. Prezident Reygan harbiy ustunlikka ega bo‘lish niyatida urush xavfini keskin kuchaytirar ekan, yadro halokatidan xalos bo‘lishning yakkayu-yagona yo‘li-bu kurashishdir, deb hisobladi. Konferensiya qatnashchilari yer kurrasidagi nihoyatda xavfli hududlarga - Yaqin Sharq, Janubiy Afrika va Markaziy Amerikaga katta e’tibor berdilar. Ular Falastin ozodlik tashkiloti ijroiya qo‘mitasi rahbari Yasir Arofatning Indira Gandhi raisligida Falastin muammosi bo‘yicha maxsus qo‘mita tuzish haqidagi taklifini qabul qildilar.

Konferensiya ikki qismdan iborat muhim hujjat-siyosiy va iqtisodiy deklaratsiyani qabul qildi. Qo‘silmaslik siyosatining mohiyati, -deyiladi siyosiy deklaratsiyada, - imperializm, kolonializm, neokolonializm, irqchilik va aparteid, shu jumladan sionizmga qarshi hamda tashqi aggressiyaning barcha shakllariga

---

<sup>146</sup> Хидаев Г.Ф. Дипломатия XX века. М., 2010., С.700.

qarshi kurashdan iboratdir<sup>147</sup>. Iqtisodiy deklaratsiyada tenglik va adolat asosida qurilgan yangi iqtisodiy munosabatlarni o‘rnatish lozimligi qayd qilinadi. Konferensiya yakunida «Dehli murojaati» qabul qilinib, unda zamonamizning bosh vazifalari tinchlik va tinch-totuv yashash, qurolsizlanish va taraqqiyotga erishishdan iboratligi ko‘rsatilgan. Umuman, Dehli anjumanining ishi natijasidan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- qurollanish poygasi zo‘rayayotgani insoniyatni xalokatga olib kelish xavfini anglash, unga zudlik bilan barham berish zarurligi va birinchi galda yangi qirg‘in qurollarini ishlab chiqarish va yoyishni to‘xtatish;
- umumiy xavfsizlik maqsadida Er kurrasida yadro qurolidan xoli bo‘lgan hududlarni vujudga keltirish, ayniqsa xavfli bo‘lgan Hind okeanini va boshqa regionlarni tinchlik hududiga aylantirish;
- milliy - ozodlik harakatini mustahkamlash va huquqlari poymol qilingan Falastin, Janubiy Afrika respublikasi, Namibiya va boshqa xalqlarning huquqlarini tiklash;
- Yaqin va O‘rta Sharqda, Afrikaning janubida va Markaziy Afrikada adolatli tinchlikni barpo etish.

Qo‘silmaslik harakati bilan bir vaqtida uning faoliyatini yanada boyitgan tashkilotlar rivojlanayotgan davlatlar haq-huquqlari uchun kurashning yangidan-yangi usullarini targ‘ib qildilar. Ular qatorida 1957-yilning 26-dekabridan 1958 yilning 1-yanvariga qadar Misr poytaxti Qohirada bo‘lib o‘tgan Osiyo va Afrika xalqlari birdamligi konferensiyasi davomida tashkil etilgan xalqaro tashkilot (OAXBT)ni ham ko‘rsatish muhim. Imperializm, kolonializm, neokolonializm, irqchilik, fashizm va sionizmga qarshi bo‘lgan, shuningdek, mazkur mamlakatlar xalqlarining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti uchun kurashni o‘zlarining asosiy burchi deb bilgan OAXBT tarkibiga 90 dan ortiq mamlakatlar siyosiy partiyalari, milliy-ozodlik harakatlari hamda jamoatchilik tashkilotchilari kiradi. Ushbu xalqaro tashkilot sa’y-harakati bilan bir qator muhim uchrashuvlar, yig‘inlar

---

<sup>147</sup> Нихамин В.П. Очерки внешней политики Индии. М., «Политическая литература», 1959, С.225.

va konferensiyalar o‘tkazildi. Jumladan, 1958 yilning oktyabrida Osiyo va Afrika yozuvchilarining Toshkent konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Unda qalam ahli tinchlik, birodarlik, do‘stlik va demokratiya xizmatida bo‘lishi g‘oyasi qo‘llab-quvvatlandi. Kolonializm va irqchilikka qarshi kurash olib borayotgan davlatlar va xalqlarga moliyaviy yordam ko‘rsatish maqsadida Afro-Osiyo birdamligi Fondi tashkil etildi. OAXBT qo‘shilmaslik harakati, YUNESKO, YUNKTAD yig‘inlarida rasmiy kuzatuvchi maqomiga ega edi, Afrika Birdamlik Tashkiloti (ABT) va Arab Davlatlari Ligasi (ADL) bilan uzviy aloqada edi<sup>148</sup>.

Yana shunday tashkilotlar sirasiga 1963-yilda Habashiston poytaxti Addis-Abebada Afrikaning mustaqil davlatlari va hukumat rahbarlarining yig‘ini chog‘ida tashkil topgan Afrika Birdamlik Tashkiloti (ABT)ni kiritish mumkin. A’zolari soni 51 nafarni tashkil etuvchi tashkilot o‘z oldiga quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

- Afrika davlatlari o‘rtasidagi siyosiy va iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish;
- Afrika xalqlari hayotini yaxshilashni ta’minlash maqsadida ularning birdamligini mustahkamlash;
- Qit’ada kolonializmning barcha ko‘rinishlariga barham berish;
- Afrika davlatlari mustaqilligini himoya qilish.

Xalqaro maydonda ushbu harakat qo‘shilmaslik pozitsiyasini o‘zlariga dasturilamal qilib olishgan. Turli davrlarda tashkilotning etakchi kuchlari va siyosiy liderlari sifatida Ahmad Bin Bella, Jamol Abdul Nosir, Modiba Keyta, Kvame Nkruma, Kaunda, Xayle Selasia va boshqalar maydonga chiqdilar.

ABT va qo‘shilmaslik harakatining yirik muvaffaqiyatlaridan biri bu-aparteid tizimi<sup>149</sup>ga qarshi kurash bo‘ldi. 1960-yilning martida Sharpevillda qora tanli aholining ushbu tizimga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarilgan, g‘alayonni bostirish vaqtida

---

<sup>148</sup> Хидаев Г.Ф. Дипломатия XX века. М., 2010., С.701.

<sup>149</sup> Апартейд-ахолини ирқий камсиши, расман 1948 йилда ЖАР давлатчилиги ва ижтимоий-сиёсий тизимининг асоси сифатида қонунийлаштирилган, оқ танли ахолининг манфаатларини ҳимоя қилишга қаратилган тизим. Амалда АҚШ ва бошқа собиқ колониалист давлатлар ушбу тизим тарафдорлари бўлишган.

67 kishi o'ldirilgan edi. Bunday xunrezlik oqibatida 29 Osiyo va Afrika mamlakatlari talabiga ko'ra Xavfsizlik Kengashi chaqirilib, unda JARdagi vaziyat keskinligi, bu o'z navbatida xalqaro tinchlik va xavfsizlikka xavf solishi mumkinligi haqida xulosa bergan edi. O'z navbatida JAR mamlakatda aparteid tizimini bekor qilishdan bosh tortdi. Bunga javoban, BMT Bosh Assambleyasi 1962 yilda o'z safida bo'lgan davlatlarni JAR bilan diplomatik aloqalarni uzishga chaqirdi. G'arb davlatlari va AQSH bunga veto qo'llamadilar, ammo, JAR bilan aloqalarni maxfiy sur'atda davom ettirdilar. Bu mazkur mamlakatda aparteid tizimining 1991-yilga qadar saqlanib qolishiga sabab bo'ldi. Mamlakatning izolyasionizm holatiga tushib qolishidan xavotirlangan Prezident de Klerk aparteid tizimiga qarshi kurashgan Afrika Milliy Kongressi (AMK) faoliyatini tiklashga, shu bilan birga ushbu Kongress rahbarlaridan biri bo'lmish, 25 yil davomida qamoqda saqlangan Nelson Mandelaning ozodlikka chiqishiga ruxsat berdi. 1993-yilda N.Mandela tinchlik yo'lidagi xizmatlari uchun Nobel mukofoti bilan taqdirlandi<sup>150</sup>.

“Uchinchi dunyo mamlakatlari” dastlabki kezlarda ularning qoloqligi bosh sababi jahon iqtisodiyotida xom-ashyo etkazib beruvchi hamda tayyor mahsulot iste'molchisi sifatida noto'g'ri harakat qilayotganligidir, deb baholadilar. Aynan shu holat ular nazarida G'arb davlatlarining koloniyalarni talon-taroj qilishiga yo'l ochib berardi. Bunday vaziyatdan chiqish uchun yoki xom-ashyoga bo'lgan narxni oshirish yoki tayyor mahsulotning eksport qilinishiga erishish edi. Bu yo'lning dastlabkisi neft eksport qiluvchi davlatlar faoliyatida to'lig'icha o'z natijasini berdi. 1960-yilda tashkil topgan OPEK tashkiloti jahon neft eksporti ustidan to'liq nazoratni o'rnatishga erishibgina qolmay, 1970-yillardan e'tiboran neft narxini oshira boshladi. Bu energetika inqirozini keltirib chiqargan bo'lsada, neft eksporti bilan shug'ullanuvchi davlatlar daromadini oshirishga xizmat qildi. Bu holat Fors qo'ltig'i mintaqasida joylashgan arab davlatlarining iqtisodiy jihatdan ravnaq topishiga va boyishiga xizmat qildi. Rim kelishuviga asosan 1957-yil Yevropa

---

<sup>150</sup> Хидаев Г.Ф. Дипломатия XX века. М., 2010., С.703.

Iqtisodiy Hamjamiyati tuzildi. Unga birlashganlarning assotsatsiya huquqi mavjud bo’lgan. Ular jamoaviy forma va neokolonial siyosat metodlaridan foydalanishdi. Osiyo-Afrika kontenentida integratsiyani keng yoyish, ularni birlashtirish uchun asos yaratish ilgari surilgan. Siyosiy mustaqillikni qo’lga kiritgan “Uchinchi dunyo”ning ko’plab mamlakatlari “Umumiy bozor” assotsatsiya tizimiga a’zo bo’ldi. Shu bilan birga ko’plab davlatlar pul tizimini mo’tadillashtiradigan, davlat sektorini xususiylashtirishga xizmat qiluvchi bozor iqtisodiyoti tamoyillari asosida rivojlanishni ma’qul topdilar. Xorijiy sarmoya va texnologiyalardan faollik bilan foydalanib, joylarda ko’plab yangi ish o’rinlarini yaratgan “yangi industrial mamlakatlar” sifatida ta’riflanadigan Indoneziya, Malaziya, Singapur, Tayvan va Janubiy Koreya singari davlatlar raqobatbardosh, rivojlangan ishlab chiqarish sanoatini shakllantirishga muvaffaq bo’ldilar<sup>151</sup>.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, rivojlanayotgan davlatlar xalqaro maydonda mustaqil siyosiy kuch sifatida shakllana bordilar. Bu o’z navbatida xalqaro munosabatlar tizimida yangicha qarashlarni keltirib chiqarardi.

Ko’rib chiqilayotgan davrda yangi postkolonial Sharqda siyosiy differensatsiya kuchaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning 1/5 qismi sotsialistik yo’ldan bordi. Ushbu mamlakatlarda diktatorlik inqilobiy rejimi yuzaga kelganligi tasodifiy emas. Iqtisodiy va siyosiy sohada bu rejimning mag’lubiyyati yakunda o’z isbotini topdi. “Nokapitalistik rivojlanish yo’li”ga asosan davlatlar ikki avlodaga bo’linadi. 60-yillar sotsialistik yo’l Gana, Gveniya, Mali, Misr, Somali, Tanzaniya, Jazoir va Birmada o’rnatildi. Katta iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy qiyinchilik tufayli ushbu davlatlar siyosati oxir-oqibat boshi berk ko’chaga kirdi. 70 – 80-yillar ushbu yo’l, siyosat Angola, Mozambik, Benin, Kongo, Efiopiya, Iroq va Suriyada davom etdi. KPSS tomonidan konsepsiya ishlab chiqarilgan. Rivojlanayotgan mamlaatlarga berilgan iqtisodoy yordam Sovet Ittifoqiga qimmatga tushdi. SSSR Osiyo va Afrika mamlakatlarida 3900 ta obyekt qurib, 10 mlrd dollar sarf qilgan. (Imperialistlarga qarshi oqim uchun obyekt qurish va boshqa ishlar amalga

---

<sup>151</sup> Кредер А.А. Новейшая история зарубежных стран. 1914-1997//Интернет ресурс.

oshirilgan). Bu mamlakat iqtisodiy budjetiga katta zarar edi. Ozod etilgan mamlakatlarda imperialist va kapitalistik davlatlarga qarshi kurashgani uchun, SSSR rahbarligida ushbu davlatlarga nafaqat iqtisodiy, balki harbiy yordam ham berildi. Sovet Ittifoqi gigant quollar sonini oshirdi. Ittifoqning 40 % sanoati harbiy sohaga sarf qilindi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda militarlashtirish va harbiy rejim paydo bo'ldi. Bu postkolonial taraqqiyotning alohida xususiyati bo'lib, dunyodagi vaziyat destabillashuvini tezlashtirdi. Rivojlanayotgan davlatlarda harbiy xarajatlar doimiy oshirib borildi. 1960-yil ushbu mamlakatlarda 4,5 mlrd. dunyoviy harbiy xarajatlar sarf qilingan. XXI asr boshlariga kelib esa bu 35 % ni tashkil qiladi. Sovet Ittifoqi yemirilgach ushbu uchinchi dunyo mamlakatlarida yangi dunyoviy munosabat shakllandi. SSSR 1990-yildayoq iqtisodiy yordamni tugatgan edi. Ilgariroq Jazoir, Misr, Iraq, Suriya va Birmada sotsialistik yo'nalishidan voz kechilgan edi. Sovet Ittifoqi yemirilgach ushbu mamlakatlarga iqtisodiy va texnik yordam kerak edi. Osiyo va Afrika mintaqasi mamlakatlari g'arb bilan munosabatlarini mustahkamlab bordi. SSSR yemirilishi natijalaridan biri mana shu holatlarni yuzaga keltirdi. XXI asr boshlarida Rossiya so'nggi yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilishga kirishdi. Shu tariqa, hozirgi globallashuv sharoitida rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi munosabatlar masalasi muammoligicha qolmoqda. Uning yechimi va ijobili yakuni uchun barcha davlatlarning teng sheriklik va hamkorligi zarur bo'ladi.

## Xulosa.

Yevropa davlatlarining zabit etish va koloniyal siyosati XV asr oxirlari-XVI asr boshlarida-Buyuk geografik kashfiyotlar davridan boshlandi. XIX asr oxiri-XX asr boshlariga kelib buyuk davlatlar o'rtasida dunyoni hududiy jihatdan bo'lib olish nihoyasiga yetdi. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi ko'plab davlatlar va xalqlari mustamlakaga aylantirildi<sup>152</sup>. Mustamlakalar va jahon bozori uchun kurash Birinchi jahon urushini keltirib chiqqagan asosiy omillardan biri bo'ldi. Birinchi jahon urushidan keyin bir tamondan yangicha mustamlaka munosabatlari paydo bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tamondan milliy-ozodlik kurashlari nihoyatda kuchaydi. Birinchi jahon urushidan so'ng mag'lub davlatlar mustamlakalari go'lib davlatlar o'rtasida qayta taqsimlandi va bu jarayon siyosiy jixatdan Millatlar Ligasining Mandat tizimi orqali qonuniylashtirildi. Ammo u o'zida kuchli qaramaqarshiliklarni mujassamlashtirgan bo'lib, birinchidan, buyuk davlatlar o'rtasida keskin ziddiyatlarni keltirib chiqqagan bo'lsa, ikkinchidan, mustaqillikka umid qilgan xalqlarning yangi mustamlak sirtmog'iga solinishi, milliy-ozodlik kurashini yangi to'lqinini keltirib chiqardi. Xalqaro munosabatlardagi chigalliliklar mustahkam tinchlik o'rnatishga yo'l qo'ymadni.

20-30-yillardagi milliy-ozodlik harakatlari butun mustamlakachilik tizimi katta zarba bergan bo'lsa-da, parchalay olmadi. Aksincha metropoliyalar barcha huquq va imtiyozlarini saqlab qola oldi. Buning sababi, **birinchidan**, mustamlakachilik tizimining yemirilishi uchun zarur xalqaro shart-sharoitlar hali to'la yetilmaganligi bo'lsa, **ikkinchidan**, mustamlakalarda mustamlakachilarga qarshi kurashuvchi kuchlarning qaror topish jarayoni hali davom etayotganligi edi. 30-yillarda Yevropada fashizm va uzoq Sharqda yapon militarizmining kuchayishi bir tamondan milliy-ozodlik harakatlariga salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, ikkinchi tamondan Buyuk davlatlar o'rtasida kuchlar nisbatini keskin o'zgartirib yubordi va xaqaro munosabatlarda chigalliliklarni keltirib chiqardi.

---

<sup>152</sup> Новейшая истории стран Азии и Африки. XX век. Под ред. А.М. Родригеса. часть-1. 1900-1945. М., 2001. 5-стр.

XX asrning ikkinchi yarmidan mustamlakachilik tizimi barbod bo'lish jarayoni nihoyatda tezlashdi. Buning sabablari: **birinchidan**, mustamlaka xalqlarning milliy ongini o'sib bordi. Uzoq yillar davomida olib borilgan milliy-ozodlik kurashlari davomida qurolli, huquqiy-siyosiy kurashda katta tajribaga ega bo'lган xalqlarning mustamlakachilik tizimiga qarshi kurashi yangi bosqichga ko'tarildi; **ikkinchidan**, asosiy mustamlakachi davlatlar; Buyuk Britaniya va Fransiya zaiflashishdi. Bu davlatlar Ikkinci jaxon urushi davrida nafaqat mustamlakalarini saqlab qolish balki, o'z mustaqilliklarini himoya qilishi ham qiyin masalaga aylangan edi. Ammo, Yevropa metropoliyalari juda bo'lmasa imperiya qoldiqlarini saqlab qolishga urinardilar; **uchunchidan**, AQSh va SSSR o'zlarining siyosiy maqsadlarini ko'zlab mustamlaka imperiyalarning saqlanib qolishiga qarshi chiqdilar. SSSR va AQSH soyasida Evropa davlatlari rolining pasayib ketishi Ikkinci jahon urushidan keyin mustamlakachilik tizimini barbod bo'lishiga sharoit yaratdi; **to'rtinchidan**, BMTning tuzilishi, xalqoro maydondagi roli va obro'sining oshib borishi ham mustamlakachilik tizimining yemirilishida muhim rol o'ynadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti mustamlakachilik tizimini bekor qilish jarayoniga faol qo'shildi va mustamlaklardagi vaziyatni o'z nazorati ostiga oldi. Endilikda Osiyo va Afrika xalqlari mustamlakachilikka qarshi oyoqqa turdi va bu qit'alardagi yosh davlatlar xaqaro xuquqning to'laqonli subektiga aylandi. Shular qatorida mustaqil bo'lган Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari bilan birga "Uchinchi dunyo"ni tuzdilar.

G'arb mamlakatlari yaqinda ozodlikka erishgan mamalakatlardagi ekspulatsiya usullarini niqoblashga urindi. Neokolonializmning turli shakllari yuzaga keldi. Sobiq mustamlaklarini buyuk davlatlar iqtisodiy-siyosiy va g'oyaviy jixatdan ta'sir o'tkazish va qaram holatda saqlash turishga urinardi. Yevropa davlatlari Osiyo va Afrikadan chiqib ketgan bo'lsa-da, biroq bu qit'alarda hali bu o'z mavqelarini yetarlicha saqlab qolishga muofaq bo'ldilar. Birinchidan, texnikaviy-moliyaviy ustunliklaridan foydalanib, sobiq mustamlakalarida savdosotiq va iqtisodida yetakchilik qilar edilar. Osiyo va Afrika davlatlari hamon homashyo bazasi bo'lib qolaverdi, o'n martalab qimmat bo'lган tayyor maxsulatlar

sobiq metropoliyadan keltirilardi<sup>153</sup>. Bu resurslar muommosini keltirib chiqardi va rivojlanayotgan davlatlar qarzlari muttasil oshib borishiga olib keldi. Ikkinchidan, “Sovuq urush” davrida ikki harbiy-siyosiy blok o’rtasidagi raqobat maydoniga aylandi. Ularni turli siyosiy bloklarga tortishga va ustidan nazorat o’rnatishga urinishlar kuchaydi. Bu maqsad yo’lida qurolli agressiyalar ham uyuştirildi (AQSHni Vietnamga, SSSRni Afg’onistonga agressiyasi).

Mustamlakachilik yemirilgach ozod etilgan mamlakatlar xalqaro munosabatlarda o’z strategiya yo’lini topishga harakat qildi. “Uchinchi dunyo”da Osiyo-Afrika hamkorligi vujudga keldi. 1955-yilgi Bandung konferensiyasida ushbu jarayon boshlandi. Manfaatdor davlatlar birlashdi. 1961-yilda “Qo’shilmaslik harakati” deb atalgan doirada ozod mamlakatlar birlashdi. Bu harakat ozod mamlakatlar kurashida asosiy rolni o’ynadi. “Qo’shilmaslik harakati”da rahbarlik rolini Hindiston, Yugoslaviya va XXR bajardi. Hozir bu harakat zamonamizning xalqaro munosabatlaridagi muhim omilga aylanib, unda Evropa, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi 120 dan ortiq mamlakat faol qatnashmoqda<sup>154</sup>. Rivojlanayotgan mamlakatlar turlicha tarqqiyot yo’lini tanladi. Ammo, rivojlanish jarayoni bir tekis kechmadi. Rivojlanayotgan davlatlar ustidan turli siyosiy kuchlar iqtisodiy, moliyaviy, g’oyaviy hukumronlik o’rnatishga harakatlar va geosiyosiy ziddiyatlar hamon davom etmoqda.

“Bu hayotning shafqatsiz bir qununiyati bor. Ya’ni tarixning murakkab va hal qiluvchi burilish pallasida har qanday millat va elat o’z ahilligi va birdamligini saqlab, o’z milliy manfaatlari yo’lida qat’iyat bilan turmasa, mas’uliyat va hushyorligini yo’qatadigan bo’lsa, oxir-oqibatda o’zining eng katta, tengsiz boyligi bo’lmish mustaqilligi va ozodligidan judo bo’lishi shubhasiz... Bu achchiq haqiqat barchamizga, ayniqlsa, bugun hayotga katta umid va ishonch bilan kirib kelayotgan yoshlarimizga doimo saboq bo’lishi lozim”<sup>155</sup>.

<sup>153</sup> Фармонов Р. Халқоро муносабатлар тарихи. Т., 2013. 148-бет.

<sup>154</sup> Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 6-том. Давлат илмий нашриёти. Т., 2003, 323-6.

<sup>155</sup> Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch”. Т., 2008. 116-117-bet.

## **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. - Т., Шарқ. 1998.
2. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch". Т., 2008.
3. Брендон П. Упадок и разрушение Британской империи 1781–1997. М., 2011.
4. Фиёсов Т.Ф. Қўшилмаслик харакати - тинчлик ва халқаро хавфсизлик омили. - Т., "Ўзбекистон", 1984.
5. Давидсон А.Б. Тропическая и Южная Африка в XX веке . Новая и новейшая история №5, 2000.
6. Зимулина Л.А. Эволюция национальной государственности британских доминионов. Британская империя в XX веке; под ред. А.М. Пегушева, Е.Ю. Сергеева. М., 2010.
7. Илюхина Р.М. Лига наций 1919-1934. - М: наука, 1982.
8. История Афганистана. Документальное исследование. С.А. Шумов, А.Р. Андреев. М., 2002.
9. История Востока: В 6 т: Восток в новейший период(1945-2000г.г.). Гл. редколл. Р.Б.Рыбаков, В.Я.Белокреницкий и др. Том-6. М., 2008.
10. История Италии. Джонатан Китс; пер. с анг. Т.М. Котельковой. М., 2012.
11. История Китая. Под ред. А.В.Меликсетова. М.: Изд-во МГУ, 1998.
12. История международный отношений. Под. ред. А.В. Торкунова. Том-III. М., 2012.
13. История Японии. 1868-1998. Т. 2. М.: Институт востоковедения РАН, 1998.
14. Киссинджер Г. Дипломатия. М., 1997.
15. Клеймонова Н.Е., Сидоров А.Ю. Версальско-Вашингтонская система международных отношений: проблемы становления и развития. 1918-1939. М., 1995.
16. Ключников Ю.В. (ред.) Версальский мирный договор. М., 1925,

17. Корнеева Е.В. Ключевые аспекты гендерной политики Содружества Наций в конце XX- начале XX веков. М., Гуманитарни питання. № 8(11), 2015.
18. Кремнев П.П. Распад СССР: международно-правовые проблемы. М., 2005.
19. Насенко Ю. Джавахарлал Неру и внешняя политика Индии. М., 1975.  
Неру Ж. Внешняя политика Индии, 1946-1964. М., 1965.
20. Неоколониализм: сущность, формы, методы. Институт мировой экономики и международных отношений. Отв.ред Волков М.Я. М., Наука, 1987.
21. Нихамин В.П. Очерки внешней политики Индии. М., «Политическая литература», 1959.
22. Новейшая истории стран Азии и Африки. ХХ век. под ред. Родригес А.М. част-1. 1900-1945. М., 2001.
23. Новейшая история стран Азии и Африки. ХХ век. Под. ред. А.М.Родригес а., в 3-ч., част-3(1945-2000). М., 2004.
24. Остапенко Г.С., Прокопов А.Ю. Новейшая история Великобритании: ХХ-начало ХХI века. М., 2012.
25. Пономарев М.В. История стран Европы и Америки в новейшее время. М., 2010.
26. Ражабов Қ. Жаҳон тарихининг муҳим саналари. Т., 2011.
27. Рейнольдс Д. Внешняя политика Британии и “упадок” Британии в двадцатом веке. Россия и Британия. В мире английской истории; под ред. В. Г. Трухановского. М., 1997.
28. Системная история международных отношений. Под. ред. А.Д. Баготов., том-4(1945-2003) Документи. М., 2003.
29. Советская внешняя политика. 1917-1945 гг. Поиски новых подходов. М.: Международные отношения, 1992.
30. Тролстухина Ф.Ю. Современная внешняя политика Великобритании в отношении Содружество наций. Диссертация, афтореферфт. М., 2015.

31. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 6-том. Давлат илмий нашриёти. Т., 2003.
32. Улунян А.А. Коминтерн и geopolitika: Балканский рубеж. 1919-1938 гг. М., 1997
33. Уткин А.И. Дипломатия Вудро Вильсона. М., 1989
34. Фармонов Р. Халқоро муносабатлар тарихи. Т., 2013.
35. Хидаятов Г.Ф. Димломатия XX века. М., 2010.
36. Ходнев А.С. Лига наций и колониальный вопрос 1919-1939. Диссертация: Афтореферат. М., 1996.
37. Шацилло В.К. Президент В.Вильсон: от посредничества к войне. Новая и новейшая история. 1993. №6.

**Internet resurslar:**

38. Кредер А.А. Новейшая история зарубежных стран. 1914-1997//Интернет ресурс.
39. Сущность и методы современного неоколониализма, и проблемы развития стран «третьего мира»//Интернет ресурс.
40. [www.wikipediya.com](http://www.wikipediya.com)// Онлайн энциклопедия.
41. <http://forexaw.com>. Интернет ресурсы
42. [www.un.org/ru/decolonization](http://www.un.org/ru/decolonization)